


**TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI PEDAGOG KADRLARNI QAYTA
TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI
OSHIRISH TARMOQ MARKAZI**



BIOLOGIYA O'QITISH METODIKASI

Biologik ta'lilda kredit-modul tizimi

**MODULI BO'YICHA
O'QUV-USLUBIY MAJMUA**



TOSHKENT-2022

**Mazkur o'quv-uslubiy majmua Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining
2020 yil 7 dekabrdagi 648-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan o'quv reja va
dastur asosida tayyorlandi.**

Tuzuvchilar: **p.f.d., prof. J.O.Tolipova**

Taqrizchilar: **b.f.d., prof. S.G.Sherimbetov** - Turon fanlar
akademiyasining akademigi – O'zR FA Bioorganik kimyo
instituti professori, laboratoriya mudiri
b.f.n., dos. D.Mamatqulov – TDPU dotsenti.

Xorijiy ekspert: PhD doktori Frank Laper - Ponter de Parij
№10 universiteti (Parij).

**O'quv-uslubiy majmua TDPU Kengashining 2020 yil 27 avgustdagи
1/3.6- sonli qarori bilan nashrga tavsiya qilingan.**

MUNDARIJA

I. ISHCHI DASTUR.....	4
II. MODULNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTREFAOL TA'LIM METODLARI	11
III. NAZARIY MATERIALLAR	16
IV. AMALIY MASHG'ULOT MATERIALLARI.....	64
V. GLOSSARIY	104
VII. ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	113

I. ISHCHI DASTUR

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi «O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida» PF-5847-sonli Farmonida oliy ta’lim tizimida tashkil etiladigan ta’lim-tarbiya jarayoniga kredit-modul yondoshuvni tatbiq etish nazarda tutilgan.

Oliy ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilarini kredit-modul o‘qitish tizimiga tayyorlash, mazkur tizimning didaktik va metodik ta’minotini yaratish, pedagogik faoliyatida uchragan tipik kamchiliklarni bartaraf etish, ularning pedagogik tafakkurini kengaytirish maqsadida pedagogik kadrlarning malakasini oshirish o‘quv rejasiga **Biologik ta’limda kredit-modul tizimi** kursini kiritish zarurati vujudga keldi.

Kurs yakunida professor-o‘qituvchilar quyidagi tayyorgarlikka ega bo‘lishi nazarda tutilmoqda:

I. O‘qituvchining pedagogik faoliyatga pedagogik-psixologik tayyorgarligi nuqtai nazaridan quyidagi metodik bilim, ko‘nikma va malakalar:

- Kredit- modul o‘qitish tizimining o‘ziga xos xususiyatlarini anglash, mazkur tizimning didaktik va metodik ta’minotini yaratish ko‘nikmalarini egallah;
- O‘qitish shakllarida o‘qitish metodlari va vositalaridan o‘z o‘rnida foydalanishni bilish
- Ta’lim-tarbiya jarayonida ta’lim mazmuni, metodlari, vositalari va shakllarining uyg‘unligi, uzviyligini ta’minlash yo‘llari to‘g‘risida tasavvurga ega bo‘lish
- Ta’lim-tarbiya jarayonida innovatsion texnologiyalarini qo‘llash ko‘nikmalarini egallah;
- Ta’lim beradigan fanlari turkumini kredit-modul tizimini joriy etish metodikasining asosiy g‘oyalarini bilish;
- Ma’ruza, seminar, amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlarida kredit- modul o‘qitish texnologiyalarini qo‘llash uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikmalarini egallah;
- Blum taksonomiyasi bo‘yicha mashg‘ulotlarning didaktik maqsadlarini aniqlash, mashg‘ulotning har bir bosqichi uchun reproduktiv, produktiv, qisman-izlanishli va kreativ o‘quv topshiriqlari, ularning didaktik maqsadlarini aniqlash va shakllantirish
- Kredit- modul o‘qitish tizimining o‘ziga xos xususiyatlari asosida o‘quv dasturini modullarga ajratish, har bir modul uchun reproduktiv, produktiv, qisman-izlanishli va ijodiy (kreativ) o‘quv topshiriqlarini tuzish va amalda



qo'llash;

- O'quv fanlari o'rtasida fanlararo, mavzulararo bog'lanishni amalga oshirish
- Mashg'ulot mavzusi va maqsadiga asosan o'quv axboroti, matn, illyustratsiya, sxema, jadval, savol va topshiriqlar, vosita, metod va shakllarni tanlash
- O'qitishning didaktik vositalari tasnifini bish va ularni mashg'ulot mavzusiga mos ravishda tanlay olish
- Yangi o'quv materiali ustida ishlashning bosqichlari va mantiqiy yo'nalishini belgilash
- Kredit-modul o'qitish tizimining o'ziga xos xususiyatlari asosida talabalar bilimini nazorat qilish va baholashning zamonaviy usullarini bish va olingan natijalarni tahlil qila olish, reyting tizimi ballarini maqsadga muvofiq differensiallashtirishni bish va qo'llay olish
- O'qitishning istiqbol va mavzuli rejali, reyting tizimining nazorat turlari uchun differensiallashtirilgan topshiriqlarni tuza olish
- Talabalarning bish faoliyatidagi tipik kamchiliklar va ularning javoblaridagi xatoliklarni aniqlash
- O'quv fanini o'rganish natijasini baholash, talabalar tomonidan ta'lim mazmunining tarkibiy qismlari (bilim, ko'nikma, malaka, tajriba va qadriyatlar tizimi)ni o'zlashtirish darajasini aniqlash

Biologik ta'linda kredit-modul tizimi kursining maqsadi: professor-o'qituvchilarni oliy ta'linda kredit-modul yondoshuv asosida o'quv jarayonini tashkil etish va o'tkazish, pedagogik madaniyat va texnikaga doir ko'nikma va malakalarini rivojlantirish.

Biologik ta'linda kredit-modul tizimi kursining vazifalari:

- oliy ta'linda o'quv jarayonini tashkil etish nazariyasi va metodikasini o'rgatish;
- kredit-modul o'qitish tizimining o'ziga xos xususiyatlari, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash mazmuni, texnologiyalari, ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish mahoratini egallahsga zamin yaratish;
- oliy ta'linda kredit-modul tizimini qo'llash asnosida o'quv jarayonini loyihalash va rejalashtirish yo'llarini ko'rsatib berish;
- pedagogik madaniyat va texnikani egallah usullarini yoritib berish.

Biologik ta'linda kredit-modul tizimi kursining o'rni

Kursni o'zlashtirish orqali professor-o'qituvchilar kredit-modul tizimida o'quv jarayonini to'g'ri tashkil etish va o'tkazish bilim, ko'nikma va malakalari, shuningdek texnologik kompetentlikka ega bo'ladilar.

Modul bo'yicha soatlar taqsimoti

№	Modul mavzulari	Jami auditoriya soati	Jumladan	
			Nazariy	Amaliy
1.	O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiysi va ta'lim-tarbiya jarayonini takomillashtirish yuzasidan belgilangan vazifalarni amalga oshirish yo'llari.	2	2	
2.	Kredit-modul tizimining ta'rifi, tavsifi, talaba shaxsining rivojlanishi va kelgusi kasbiy faoliyatidagi ahamiyati.	2	2	
3.	Kredit-modul o'qitish tizimining o'ziga xos xususiyatlari, ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish.	2	2	
4.	Kredit-modul tizimida Xalqaro baholash dasturlarini amalga qo'llash.	2	2	
5.	Xalqaro baholash dasturlari talablarini ma'ruza, laboratoriya, amaliy va seminar mashg'ulotlarning mazmunan va identiv o'quv maqsadlariga muvofiq uzviyligini ta'minlash.	2	2	
6.	Biologiyani o'qitishda modul mazmuni yuzasidan talabalarning o'zlashtirishi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma, malaka, tayanch va fanga doir xususiy kompetensiyalarni aniqlash.	2		2
7.	Mavzu yuzasidan talabalarning o'zlashtirishi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma, malaka, tayanch va fanga doir xususiy kompetensiyalarni nazorat qilish va baholashni amalga oshirish.	2		2
8.	Blum taksonomiysi bo'yicha o'quv maqsadlarini shakllantirish va erishilgan darajani baholash tizimi O'quv fanlari bo'yicha murakkablik darjasini turlicha (reproduktiv, produktiv, qisman-izlanishli va kreativ) bo'lgan o'quv va test topshiriqlarini shakllantirish.	2		2
9.	Kredit birliklarini aniqlash va ularga mos holda talabalarning o'zlashtirgan bilim, ko'nikma, malaka, tayanch va fanga doir xususiy kompetensiyalarni nazorat qilish va baholash	2		2

10.	Kredit-modul tizimidan foydalanishda lokal va xususiy metodik texnologiyalardan foydalanish	2		2
11.	Ma'ruza mashg'ulotlarining kredit-modul tizimi talablari asosida kvalimetrik diagnostikasi.	2		2
12.	Laboratoriya mashg'ulotlarni kredit-modul tizimi talablari asosida kvalimetrik diagnostikasi.	2		2
13.	Amaliy va seminar mashg'ulotlarni kredit-modul tizimi talablari asosida kvalimetrik diagnostikasi.	2		2
	Jami:	26	10	16

NAZARIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI

1-ma'ruza: O'zbekiston respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiysi va ta'lim-tarbiya jarayonini takomillashtirish yuzasidan belgilangan vazifalarni amalga oshirish yo'llari.

O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiysi va oliy ta'lim tizimida tashkil etiladigan ta'lim-tarbiya jarayoniga qo'yiladigan talablar. Oliy ta'lim tizimini rivojlantirishning strategik maqsadlari. Oliy ta'lim tizimini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari.

2-ma'ruza: Kredit-modul tizimining ta'rifi, tavsifi, talaba shaxsining rivojlanishi va kelgusi kasbiy faoliyatidagi ahamiyati.

Kredit-modul tizimining umumiy ta'rifi va tavsifi. Kredit-modul tizimi prinsiplari va ularni amalga oshirish yo'llari. Akademik kredit va akademik modul tushunchalarini.

3-ma'ruza: Kredit - modul o'qitish tizimining o'ziga xos xususiyatlari, ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish.

Kredit - modul o'qitish tizimining o'ziga xos xususiyatlari. Kredit-modul o'qitish tizimida innovatsion texnologiyalardan foydalanish.

4-ma'ruza: Kredit-modul tizimida xalqaro baholash dasturlarini amalga qo'llash.

Kredit-modul tizimida Xalqaro baholash dasturlarini amalga oshirish yo'llari. Xalqaro baholash dasturlarining turlari va ularning o'ziga xos xususiyatlari.

5-ma'ruza: Xalqaro baholash dasturlari talablarini ma'ruza, laboratoriya, amaliy va seminar mashg'ulotlarning mazmunan va identiv o'quv maqsadlariga muvofiq uzviyiligini ta'minlash.

Bioliyi ma'ruza mashg'ulotida Xalqaro baholash dasturlari talablarini amalga oshirish yo'llari. Bioliyi laboratoriya mashg'ulotida Xalqaro baholash dasturlari talablarini amalga oshirish yo'llari. Bioliyi amaliy mashg'ulotida Xalqaro baholash dasturlari talablarini amalga oshirish yo'llari. Mazkur mashg'ulotlarida identiv o'quv maqsadlariga muvofiq uzviyiligini ta'minlash.

AMALIY MASHG'ULOT MATERIALLARI

1-amaliy mashg'ulot: Bioliyani o'qitishda modul mazmuni yuzasidan talabalarning o'zlashtirishi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma, malaka, tayanch va fanga doir xususiy kompetensiyalarini aniqlash.

Biologik fanlarni o'qitishni kredit-modul tizimini amalga oshirish uchun o'qituvchi quyidagi ishlarni bosqichma-bosqich bajarishi lozim. O'zingiz o'qitishga mutassadi bo'lgan biologik fanning ishchi dasturida keltirilgan talabalar tomonidan egallanishi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarga aniqlik kiritish va ularni talabalar tomonidan o'zlashtirish darajasini aniqlash uchun foydalanilayotgan nazorat topshiriqlarini tahlil qilish. Biologik fanning ishchi dasturida keltirilgan talabalar tomonidan egallanishi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarga aniqlik kiritish.

2-amaliy mashg'ulot: Mavzu yuzasidan talabalarning o'zlashtirishi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma, malaka, tayanch va fanga doir xususiy kompetensiyalarini nazorat qilish va baholashni amalga oshirish.

Bioliyani o'qitishda foydalilanligan nostandart testlar mazmuni va mohiyatiga ko'ra quyidagi guruhlarga ajratiladi. Integrativ testlar, Adaptiv testlar, Mezonli-mo'jal olish testlari. Bioliyani o'qitishda foydalilanligan integrativ testlar integral mazmun, shakl, qiyinchilik darajasi bo'yicha o'sib boruvchi, bakalavriat yo'nalishi bitiruvchisining tayyorgarlik darajasi haqida umumlashgan yakuniy xulosa chiqarishga imkon beradigan test topshiriqlari sanaladi.

3-amaliy mashg'ulot: Blum taksonomiysi bo'yicha o'quv maqsadlarini shakllantirish va erishilgan darajani baholash tizimi o'quv fanlari bo'yicha murakkablik darajasi turlicha (reproduktiv, produktiv, qisman-izlanishli va kreativ) bo'lgan o'quv va test topshiriqlarini shakllantirish.

O'zingiz o'qitadigan kursning ishchi dasturini tahlil qiling. Unda talaba egallanishi nazarda tutilgan bilim, ko'nikma va malakalarni tahlil qiling. Talabalar tomonidan egallanishi lozim bo'lgan mazkur bilim, ko'nikma va

malakalarni Blum taksonomiyasiga muvofiq kurs yuzasidan o'quv maqsadlariga aylantiring.

4-amaliy mashg'ulot: Kredit birliklarini aniqlash va ularga mos holda talabalarning o'zlashtirgan bilim, ko'nikma, malaka, tayanch va fanga doir xususiy kompetensiyalarini nazorat qilish va baholash.

Biologik fanlarni o'qitishda Xalqaro baholash dasturlarining talablarini amalga oshirish. "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorga muvofiq Respublika xalq ta'limi tizimiga quyidagi dasturlar amaliyotga joriy etish.

5-amaliy mashg'ulot: Kredit-modul tizimidan foydalanishda lokal va xususiy metodik texnologiyalardan foydalanish. kredit-modul tizimida tashkil etiladigan ta'lim-tarbiya jarayonida foydalaniladigan lokal texnologiyalar

Ta'lim-tarbiya jarayoniga lokal darajada qo'llaniladigan pedagogik texnologiyalar jumlasiga "Insert", "Klaster", "Bumerang", "Aqliy hujum", "Kichik guruhlarda ishlash", "Keys stadi", "Atamalar zanjiri", "Atamalar varag'i" kiradi. Mazkur texnologiyalar mashg'ulotlarning bir qismi, ya'ni talabalarning o'tgan mavzu bo'yicha o'zlashtirgan bilimlarini aniqlash, talabalarning o'quv motivlarini faollashtirish yoki mavzuni umumlashtirish va xulosa yasashda foydalanish mumkin.

6-amaliy mashg'ulot: Ma'ruza mashg'ulotlarining kredit-modul tizimi talablari asosida kvalimetrik diagnostikasi.

Biologik fanlarni o'qitishda kredit-modul tizimining joriy etilishi, o'qituvchilardan pedagogik jarayonga yangicha yondashishni talab etadi. Professor-o'qituvchilarning kredit-modul tizimining talablari asosida pedagogik faoliyatini o'rganish, tahlil qilish, nazorat qilish va baholash mezonlarini ishlab chiqish.

7-amaliy mashg'ulot: Laboratoriya mashg'ulotlarni kredit-modul tizimi talablari asosida kvalimetrik diagnostikasi

Laboratoriya mashg'ulotining o'z vaqtida va o'z auditoriyasida boshlanishi, mavzu yuzasidan laboratoriya jihozlari va ko'rgazma vositalarining mavjudligi. Laboratoriya mashg'ulotining borishi, talabalarni bajariladigan ish tartibi, o'quv topshiriqlarining mazmuni bilan tanishtirish. Laboratoriya mashg'ulotining boshlanishida mavzuga oid muammoli vaziyatning vujudga keltirilishi, bugungi kunning dolzarb muammolariga bog'lanishi

8-amaliy mashg'ulot: Amaliy va seminar mashg'ulotlarni kredit-modul tizimi talablari asosida kvalimetrik diagnostikasi.

Amaliy mashg'ulotning o'z vaqtida va o'z auditoriyasida boshlanishi, mavzu yuzasidan ko'rgazma vositalarining mavjudligi. Amaliy mashg'ulotning borishi, talabalarni bajariladigan ish tartibi, o'quv topshiriqlarining mazmuni bilan tanishtirish o'quv maqsadlarini shakllantirishda talabalarning ishtiroti. Amaliy mashg'ulotining boshlanishida mavzuga oid muammoli vaziyatning vujudga keltirilishi, bugungi kunning dolzarb muammolariga bog'lanishi

O'QITISH SHAKLLARI

Mazkur modul bo'yicha quyidagi o'qitish shakllaridan foydalaniladi:


- ma'ruzalar, amaliy mashg'ulotlar (ma'lumotlar va texnologiyalarni anglab olish, aqliy qiziqishni rivojlantirish, nazariy bilimlarni mustahkamlash);
- davra suhbatlari (ko'rيلayotgan loyiha yechimlari bo'yicha taklif berish qobiliyatini oshirish, eshitish, idrok qilish va mantiqiy xulosalar chiqarish);
- bahs va munozaralar (loyihalar yechimi bo'yicha dalillar va asosli argumentlarni taqdim qilish, eshitish va muammolar yechimini topish qobiliyatini rivojlantirish).

II. MODULNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTREFAOL TA'LIM METODLARI

“Nima uchun?” texnologiyasi.

Nima uchun sxemasi mavjud muammoni keltirib chiqargan sabablarini aniqlashga yordam beruvchi sxemadir. Sabab-oqibat qonuniga asosan muammoni keltirib chiqaruvchi sabablarni aniqlamay turib muammoni hal etish qiyin. Muammoni yechimini topish uchun uni keltirib chiqargan sabablarni aniqlash va yo'qotish talab etiladi. Tinglovchilarda sabab-oqibat qonuniyati asosida fikr yuritishni tarbiyalash muhim. Ushbu sxema tinglovchilarda aynan ana shu xususiyatni rivojlantiradi. Tinglovchilarda tizimli, ijodiy, tahliliy mushohada qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi.


muammoni aniqlash, uni
hal etish, tahlil qilish va
rejalashtirish jarayonida
qo'llash mumkin



“Nima uchun”? sxemasiga asosan tinglovchilar faoliyatini tashkil etish ketma-ketligi


1-босқич

Тингловчиларни “Нима учун”? схемасини тузиш қоидалари билан таништириш




2-босқич

Якка тартибда (жуфтликда) муаммо шакллантирилади. Нима учун? сўроғи билан стрелка чизилади ва саволга жавоб ёзилади. Қайта-қайта “нима учун” деган савол бериб борилади. Муаммони келтириб чиқарган илдиз яширинган сабаби топилгунча давом эттирилади.



3-bosqich


Tinglovchilar kichik guruhlarga birlashtiriladi, o‘z semalarini taqqoslash va qo‘sishma kiriishga imkon yaratiladi. Umumiy sxema jamlanadi.



4-bosqich

Natijalar taqdimoti uyushtiriladi. Faoliyat natijalari baholanadi.

«Nima uchun?» texnologiyasining sxemadagi ko‘rinishi



“Nima uchun”? sxemasini tuzish qoidalari

1. Qanday piktogrammadan foydalanishni o‘zingiz hal etasiz.
2. Mulohazalarning sxematik ko‘rinishi qanday bo‘lishini o‘zingiz hal etasiz.
3. Har bir strelka fikr yo‘nalishini ko‘rsatishi lozim.

“VEER” texnologiyasi.

Bu texnologiya murakkab, ko‘p tarmoqli, mumkin qadar, muammo xarakteridagi mavzularni o‘rganishga qaratilgan.

Texnologiyaning mohiyati shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo‘yicha bir yo‘la axborot beriladi. Ayni paytda, ularning har biri alohida nuqtalardan muhokama etiladi. Masalan, ijobjiy va salbiy tomonlari, afzallik, fazilat va kamchiliklari, foyda va zararları belgilanadi.

Bu interaktiv texnologiya tanqidiy, tahliliy, aniq mantiqiy fikrlashni muvaffaqiyatli rivojlantirishga hamda o‘z g‘oyalari, fikrlarini yozma va og‘zaki

shaklda ixcham bayon etish, himoya qilishga imkoniyat yaratadi.

“VEER” texnologiyasi umumiy mavzuni ayrim tarmoqlarini muhokama qiluvchi kichik guruhlarning har bir qatnashuvchining, guruhning faol ishlashiga qaratilgan.

“VEER” texnologiyasi mavzuni o‘rganishning turli bosqichlarida qo‘llanilishi mumkin:

- boshida: o‘z bilimlarini erkin faollashtirish;
- mavzuni o‘rganish jarayonida; uning asosiyalarini anglab yetish;
- yakunlash bosqichida; olingen bilimlarni tartibga solish.

Asosiy tushunchalar quyidagilar:

Aspekt (nuqtai nazar) bilan predmet, hodisa, tushuncha tekshiriladi. Afzallik

- biror narsa bilan qiyoslangandagi ustunlik, imtiyoz. Fazilat-ijobiy sifat.

Nuqson-nomukammallik, qoidalarga, mezonlarga nomuvofiqlik.

Xulosa-muayyan bir fikrga, mantiqiy, qoidalar bo‘yicha dalildan natajaga kelish.

FSMU texnologiyasi.

- (F) - fikringizni bayon eting.
- (S) - sababini ko‘rsating.
- (M) - misol (dalil) keltiring.
- (U) - umumlashtiring.

Ushbu texnologiya munozarali masalalarni hal etishda, babs- munozaralar o‘tkazishda yoki o‘quv-seminar yakunida (tinglovchilarning o‘quv seminari haqidagi fikrlarini bilish maqsadida) yoki o‘quv rejasi asosida biron bo‘lim o‘rganib bo‘lingach qo‘llanilishi mumkin, chunki bu texnologiya tinglovchilarni o‘z fikrini himoya qilishga, erkin fikrlash va o‘z fikrini boshqalarga o‘tkazishga, ochiq holda bahslashishga, shu bilan bir qatorda tinglovchilarning, o‘quv jarayonida egallagan bilimlarini tahlil etishga, qay darajada egalaganliklarini baholashga hamda tinglovchilarni bahslashish madaniyatini o‘rgatadi.

Ushbu texnologiyaning asosiy maqsadi tinglovchilarga tarqatilgan oddiy qog‘ozga o‘z fikrlarini aniq va qisqa ifoda etib, tasdiqlovchi dallillar yoki inkor etuvchi fikrlarni bayon etishga yordam beradi.

Ushbu texnologiya bir necha bosqichda o‘tkaziladi:

1-bosqich.

-o‘qituvchi tinglovchilar bilan birga babs mavzusini yoki muhokama etilishi kerak bo‘lgan muammoni, yoki o‘rganilgan bo‘limni belgilab oladi;

-o‘qituvchi o‘quv mashg‘ulotida avval har bir tinglovchi yakka tartibda ishlashi, keyin esa kichik guruhlarda ish olib borilishi va nihoyat dars oxirida jamoa bo‘lib ishlanishi haqida tinglovchilarga ma’lumot beradi:

-mashg‘ulot davomida har bir talaba o‘z fikrini erkin holda to‘liq bayon etishi mumkin ekanligi eslatib o‘tiladi.

2- bosqich.

Har bir tinglovchiga FSMU texnologiyasining 4 bosqichi yozilgan qog‘ozlar

tarqatiladi:

F- fikringizni bayon eting.

S - fikringizni bayon etishga sabab ko'rsating.

M - ko'rsatilgan sababingizni isbotlab misol (dalil) keltiring.

U - fikringizni umumlashtiring.

Har bir tinglovchi yakka tartibda tarqatilgan qozozdagi FSMU ning 4 bosqichini o'z fikrlarini yozma bayon etgan holda to'latadi.

3 - bosqich.

-Har bir tinglovchi o'z qog'ozlarini to'latib bo'lgach, O'qituvchi ularni kichik guruhlarga bo'linishlarini iltimos qiladi yoki o'zi turli guruhlarga bo'lish usullaridan foydalangan holda tinglovchilarni kichik guruhlarga bo'lib yuboradi:

-o'qituvchi har bir guruhda FSMU texnologiyasining 4 bosqich yozilgan katta formatdagi qog'ozlarni tarqatadi:

-o'qituvchi kichik guruhlarga har birlari yozgan qog'ozlardan fikr va dallillarni katta formatdagi umumlashtirgan holda 4 bosqich bo'yicha yozishlarini taklif etadi.

4 - bosqich.

-Kichik guruhlarda avval har bir tinglovchi o'zi yozgan har bir bosqichdagи fikrlari bilan guruh a'zolarini tanishtirib o'tadi. Guruh a'zolarining barcha fikrlari o'rganilgach, kichik guruh a'zolari ularni umumlashtirishga kirishadi:

-guruh a'zolari FSMUning 4 bosqichini har biri bo'yicha umumlashtirib, uni himoya qilishga tayyorgarlik ko'radilar:

-fikrlarni umumlashtirish vaqtida har bir tinglovchi o'z fikrlarini himoya etishi, isbotlashi mumkin.

5 - bosqich.

-Kichik guruhlarda umumlashtirilgan fikrlarini himoya qiladilar: Guruh vakili har bir bosqichni alohida o'qiydi iloji boricha izoh bermagan holda. Ba'zi bo'limlarni isbotlash ya'ni guruhning aynan nima uchun shu fikrga kelganini aytib o'tishi mumkin.

6 - bosqich.

-o'qituvchi mashg'ulotga yakun yasaydi, bildirilgan fikrlarga o'z munosabatini bildiradi;

-quyidagi savollar bilan tinglovchilarga murojat qiladi:

-ushbu texnologiyadan nimalarni bilib oldingiz va nimalarga o'rgandingiz?

-ushbu texnologiyani o'quv jarayonida qo'llanilishi qanday samara berdi?

-ushbu texnologiyani qo'llanilishi tinglovchilarda qanday hislatlarni tarbiyalaydi, nimalarni shakllantiradi, ularning qanday fazilatlarini rivojlantiradi?

-ushbu texnologiyaning o'quv jarayonining qaysi bosqichida qo'llanilgani ma'qul va nima uchun?

-ushbu texnologiyani dars jarayonida qo'llanilishi tinglovchilarga nima beradi va nimaga o'rgatadi?

-ushbu texnologiyani yana qanday tartibda yoki qanday shaklda o'tkazish mumkin?

-ushbu treningda asosiy vazifa nimadan iborat va hokazolar.

III. NAZARIY MATERIALLAR

1-ma'ruza: O'zbekiston respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiysi va ta'lim-tarbiya jarayonini takomillashtirish yuzasidan belgilangan vazifalarni amalga oshirish yo'llari.

Reja:

1. O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiysi va oliy ta'lim tizimida tashkil etiladigan ta'lim-tarbiya jarayoniga qo'yiladigan talablar.
2. Oliy ta'lim tizimini rivojlantirishning strategik maqsadlari.
3. Oliy ta'lim tizimini rivojlantirishning ustuvor yo'naliishlari

O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida oliy ta'lim tizimida yuqori malakali kadrlar tayyorlash borasida qator kamchiliklar mavjudligi ko'rsatib o'tilgan. Jumladan, oliy ta'lim tizimida ta'lim sifatini ta'minlash sohasida:

- amaldagi malaka talablar, o'quv reja va dasturlari mazmun jihatidan bitiruvchilarda amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirilmagan, o'quv rejalarida nomutaxassislik fanlari ulushi yuqoriligidcha qolmoqda;
- o'quv adabiyotlarining aksariyat qismi zamon talablariga javob bermaydi, o'quv adabiyotlari sifatini yaxshilash, xorijiy adabiyotlardan qo'shimcha yoki muqobil o'quv adabiyotlari sifatida foydalanish ishlari yetarli darajada tashkil etilmagan;
- iqtidorli yoshlar bilan individual ishslash, va talabalarni saralab olish mexanizmlari mavjud emas, talabalarda tanqidiy fikrlash, axborotni mustaqil izlash va tahlil qilish ko'nikmalari shakllantirilmagan;
- pedagog xodimlarning malaka oshirish tizimi samarali tashkil etilmagan, jumladan malaka oshirish muassasalarida o'quv mashg'ulotlari o'tkazish uchun yuqori malakali professor-o'qituvchilar jalb qilinmagan, malaka oshirishga jalb etishda tinglovchilarning salohiyati inobatga olinmaydi;

Quyidagilar oliy ta'lim tizimini rivojlantirishning strategik maqsadlari hisoblanadi:

- oliy ta'lim bilan qamrov darajasini oshirish, xalqaro standartlar asosida yuqori malakali, kreativ va tizimli fikrlaydigan, mustaqil qaror qabul qila oladigan kadrlar tayyorlash, ularning intellektual qobiliyatlarini namoyon etishi va ma'naviy barkamol shaxs sifatida shakllanishi uchun zarur shart-sharoit yaratish;
- sohada sog'lom raqobat muhitini shakllantirish, uning jozibadorligini oshirish, jahon miqyosidagi raqobatbardoshligini ta'minlash.

Uzoq istiqboldagi maqsadli vazifalardan kelib chiqib, oliy ta'lim tizimini rivojlantirish quyidagi **ustuvor yo'naliishlar** asosida amalga oshiriladi:

- ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalar va zamonaviy usullarni joriy etish;
- oliy ta'lim muassasalarida ilmiy-tadqiqot ishlari va ta'lim sifati natijadorligini oshirish, yoshlarni ilmiy faoliyatga keng jalb etish, ilm-fanning innovatsion infratuzilmasini shakllantirish;
- ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy ishlar ta'sirchanligini oshirish;
- yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash jarayoniga kadrlar buyurtmachilarini faol jalb etish;
- oliy ta'lim muassasalarining moliyaviy mustaqilligi va barqarorligini ta'minlash, moddiy-texnik ta'minotini mustahkamlash;
- oliy ta'lim muassasalarini tizimli rivojlantirish va boshqaruva faoliyatini takomillashtirish;
- korrupsiyaga qarshi kurashish, shaffoflikni ta'minlashning ta'sirchan mexanizmlarini joriy etish;
- oliy ta'lim tizimining investitsiyaviy jozibadorligini oshirish, xalqaro miqyosda tanilishi va raqobatbardoshligini ta'minlash.
- ta'limning uzlusizligiga erishish maqsadida umumiy o'rta, o'rta maxsus va oliy ta'lim dasturlarining uyg'unligi va izchilligini ta'minlash;
- oliy ta'lim muassasalarining o'quv rejalarini kredit-modul tizimiga o'tkazish mexanizmlarini ishlab chiqish va ularni bosqichma-bosqich mazkur tizimga o'tkazish;
- individual ta'lim traektoriyalariga asoslangan, talabalarda kreativ fikrlash, amaliy ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan o'quv rejalar ishlab chiqish orqali talabalar qiziqishlari hamda kadrlar buyurtmachilari ehtiyojlariga muvofiq ta'lim dasturlarini shakllantirish, ularni tasdiqlash bo'yicha oliy ta'lim muassasalariga bosqichma-bosqich akademik mustaqillik berish;
- mustaqil ta'lim soatlari ulushini oshirish, talabalarda mustaqil ta'lim olish, tanqidiy va ijodiy fikrlash, tizimli tahlil qilish, tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish, o'quv jarayonida kompetensiyalarni kuchaytirishga qaratilgan metodika va texnologiyalarni joriy etish, o'quv jarayonini amaliy ko'nikmalarini shakllantirishga yo'naltirish, bu borada o'quv jarayoniga xalqaro ta'lim standartlariga asoslangan ilg'or pedagogik texnologiyalar, o'quv dasturlari va o'quv-uslubiy materiallarni keng joriy etish;
- talabalar bilimini baholash tizimi texnologiyalarini takomillashtirib borish va xolisonaligini ta'minlash, jumladan baholashning talabalar bilan bevosita aloqasiz shakllarini rivojlantirib borish;
- fanlarni o'zlashtirishda talabalar orasida sog'lom raqobatni rivojlantirish mexanizmlarini ishlab chiqish;
- o'quv rejalarida fanlar sonini nomutaxassislik fanlari hisobiga bosqichma-bosqich kamaytirish hamda tutashlikdagi fanlarni tanlov fanlari ro'yxatiga kiritish;

• gumanitar va pedagogik yo'nalishlarda kadrlar tayyorlash sifatiga e'tiborni kuchaytirish, pedagogik ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari bo'yicha o'quv reja va dasturlarini ilg'or xorijiy tajriba asosida qayta ko'rib chiqish va takomillashtirish, mazkur yo'nalishda tahsil olayotgan talabalarda ta'lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash ko'nikmalarini shakllantirish, pedagogik ta'lim infratuzilmasini yaxshilash, hududlardagi barcha umumta'lim maktablariga xorijiy tillarni o'zlashtirgan, yuqori malakali professional pedagog kadrlarni yetkazib berish;

• o'quv adabiyotlari sifatini yaxshilash, zamonaviy o'quv adabiyotlarini yaratish tartibini soddalashtirish, eng yangi xorijiy adabiyotlarni xarid qilish va tarjima qilish ishlarini jadallashtirish, xorijiy adabiyotlardan qo'shimcha yoki muqobil o'quv adabiyotlari sifatida foydalanishni kengaytirish, kutubxonalar fondlarini muntazam ravishda yangilab borish;

• tanlov asosida aniqlangan va o'quv adabiyotlariga mualliflik qilayotgan professor-o'qituvchilarning yillik o'quv yuklamasini taqsimlash mexanizmini takomillashtirish, bunda ularning umumiylilik yuklamalarida o'quv adabiyotlarini yaratish uchun ajratilgan vaqtini dars o'tish yuklamasi vaqtini hisobidan oshirishni nazarda tutish;

• fan sohalari bo'yicha professor-o'qituvchilarning kasbiy muloqot maydonchalarini yaratish, ta'lim sifatini ta'minlash jarayoniga talabalarni keng jalg etish hamda «tyutorlik» tashkiliy-metodik yordam tizimini joriy etish orqali talabalarning mustaqil ta'lim olish faoliyatini rivojlantirish;

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, quyidagi vazifalarni amalga oshirish talab etiladi:

1. O'quv rejada o'quv modullariga ajratilgan o'quv soatlardan nazariy o'quv materiallariga nisbatan talabalarning mustaqil ta'lim soatlari ulushini oshirish, talabalarning mustaqil ishi va ta'limini maqsadga muvofiq tashkil etish;

2. Ta'lim-tarbiya jarayonida shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalarni qo'llash orqali talabalarda mustaqil ta'lim olish, tanqidiy va ijodiy fikrlash, tizimli tahlil qilish, tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish;

3. Talabalarda tayanch va fanga doir xususiy kompetensiyalarni tarkib toptirish maqsadida o'quv jarayonida kompetensiyaviy yondashuvni kuchaytirish;

4. Talabalarda o'quv jarayonida amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirish, bu borada o'quv jarayoniga xalqaro ta'lim standartlariga asoslangan ilg'or pedagogik texnologiyalar, o'quv dasturlari va o'quv-uslubiy materiallarni ishlab chiqish;

5. Oliy ta'lim muassasalari o'quv rejasidan o'rinni olgan kurslarni kredit-modul tizimiga o'tkazish metodikasini ishlab chiqish va ularni bosqichmabosqich amaliyotga joriy etish;

6. Oliy ta'lim muassasalari o'quv rejasidan o'rinni olgan kurslarni kredit-modul tizimiga o'tkazish metodik va didaktik ta'minotini ishlab chiqish.



Ushbu modulning asosiy vazifasi professor-o‘qituvchilarga tanlangan o‘quv kursi bo‘yicha ta’lim tarbiya jarayonida talabalarda (ijodiy) kreativ fikrlash imkonini beradigan o‘quv topshiriqlarini tuzish, ma’ruza, laboratoriya, amaliy va seminar mashg‘ulotlarda talabalarda nazariy bilimlar bilan amaliy ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan o‘quv topshiriqlarni ishlab chiqish orqali talabalar qiziqishlari hamda ehtiyojlariga muvofiq individual ta’lim traektoriyalariga asoslangan modul kredit tizimni shakllantirish metodikasi ishlab chiqish.

O‘quv-metodik va didaktik ta’midotida mustaqil ta’lim ishlarining ulushini oshirish, talabalarda mustaqil ta’lim olish, tanqidiy va ijodiy fikrlash, tizimli tahlil qilish, o‘quv jarayonida talabalarda tayanch va fanga oid xususiy kompetensiyalarni tarkib toptirishga imkon beradigan standart va nostandard o‘quv topshiriqlari, Reytung tizimi nazoratlarini muntazam va shaffof o‘tkazish imkonini beradigan adaptiv testlarni Ispring dasturi vositasida amalga joriy etish metodikasini ishlab chiqish zarurati vujudga keldi.

Nazorat savollari

1. O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasidagi talablar asosida o‘z pedagogik faoliyatizingizda amalga oshiriladigan ishlar rejasini tuzing.

2. Oliy ta’lim tizimida tashkil etiladigan ta’lim-tarbiya jarayoniga qo‘yiladigan talablarni izohlang.

3. Mazkur talablar asosida Siz ma’sul bo‘lgan o‘quv kursining metodik va didaktik ta’midotiga qanday innovatsiyalar va o‘zgarishlar kiritish lozimligini qayd eting.

4. Oliy ta’lim tizimini rivojlantirishning strategik maqsadlarini izohlang.

5. Oliy ta’lim tizimini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari va o‘z pedagogik faoliyatizingizni amalga oshirishda ularning o‘rnini tushuntiring.

2-ma’ruza: Kredit-modul tizimining ta’rifi, tavsifi, talaba shaxsining rivojlanishi va kelgusi kasbiy faoliyatidagi ahamiyati.

Reja:

1. Kredit-modul tizimining umumiyligi ta’rifi va tavsifi.
2. Kredit-modul tizimi prinsiplari va ularni amalga oshirish yo‘llari.
3. Akademik kredit va akademik modul tushunchalari

Mamlakatda joriy yilning raqamli iqtisodiyot va innovatsiyalar yili deb belgilanishi jamiyat va ishlab chiqarishdagi barcha sohalarning, shu jumladan ijtimoiy sohada ustuvor sanalgan uzluksiz ta’lim tizimida tashkil etiladigan ta’lim-tarbiya jarayonini aniq maqsadlar asosida tashkil etish va ta’lim samaradorligiga erishishni taqoza etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida ta’lim-tarbiya jarayoniga qator vazifalar, jumladan, ta’lim

jarayoniga raqamli texnologiyalar va zamonaviy usullarni joriy etish, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va ta'lif texnologiyalarining mustahkam integratsiyasini ta'minlash, kredit-modul tizimi o'tish orqali ta'lif jarayonlarini raqamli texnologiyalar asosida individuallashtirish, vebinar, onlayn, «blended learning», «flipped classroom» texnologiyalarini amaliyatga keng joriy etish, ta'lif jarayonida elektron resurslar salmog'ini bosqichma-bosqich oshirib borish, elektron o'quv adabiyotlar yaratish, ularni mobil qurilmalarga yuklab olish maqsadida kutubxonalarda QR-kod yordamida elektron resurslar haqidagi axborotlarni joylashtirish tizimini yaratish ko'rsatilgan.

Yuqorida ko'rsatilgan vazifalar ichida eng asosiysi kredit-modul tizimi o'tish orqali ta'lif-tarbiya jarayonining samaradorligini orttirish sanaladi.

Ma'lumki, hozirgi kunda oliy ta'lif muassasalarida ta'lif-tarbiya jarayoni an'anaviy ta'lif tizimiga asosan tashkil etilmoqda.

An'anaviy ta'lif tizimining muayyan ijobiy tomonlari bo'lishi bilan bir qatorda kamchiliklari ham mavjud va tizimning samaradorligi past bo'lib, bugungi kun talablariga javob bermaydi.

Mazkur kamchiliklarni bartaraf etish va ta'lif samaradorligini orttirish maqsadida kredit-modul tizimi o'tish belgilangan.

Kredit-modul tizimining nima afzallikkari mavjud degan savolga javob topishga harakat qilamiz.

Oliy ta'lif muassasalarida talabalarning o'zlashtirgan bilim, ko'nikma, malaka, tayanch va fanga oid xususiy kompetensiyalarini Reyting tizimi nazoratlari vositasida yaxlit nazorat qilingan va baholangan.

Kredit-modul tizimida o'quv dasturidan o'rinni olgan ta'lif mazmuni modullarga ajratiladi va har bir modulga kredit birligi aniqlanadi. Talaba o'quv yili davomida o'quv kursi bo'yicha belgilangan kredit birliklarini to'plashi lozim bo'ladi.

Bu tizimning afzalligi shundaki, talaba har bir modul bo'yicha belgilangan kredit birligi to'plash orqali o'quv kursi didaktik maqsadlariga bosqichma-bosqich erishadi, erishilgan natijani tahlil qiladi va o'z o'quv faoliyatiga ongli yondashish orqali o'quv motivlarini faollashtiradi. Mazkur tizimda sub'ekt-ob'ekt emas, balki sub'ekt-sub'ekt munosabatlari vujudga keladi.

Kredit tizimida sinov birligi (kredit ECTS - European Credit Transfer System) haqida tushuncha. ECTS kredit-modul tizimida bir yillik kreditlar miqdori 60 tani tashkil etadi. Bir o'quv yili 2 semestrdan iborat ekanligini hisobga olsak, talaba o'qishi davomida har semestr 30 kredit to'plab borishi zarur. Bakalavr dasturi odatda 4 yil ekanligini hisobga olsak, talaba ushbu darajani qo'lga kiritishchun jami 240 kredit, magistratura dasturini tugallash uchun esa 120 kredit to'plashi kerak bo'ladi.

Kredit-modul tizimi oliy ta'lif tizimini modernizatsiyalash, jahon standartlariga moslashtirish imkonini berib, an'anaviy ta'lif tizimiga nisbatan ancha mukammal, zamonaviy, hamma uchun tushunarli, aniq o'chov birligiga ega bo'lgan tizim sanaladi.



ECTS kredit-modul tizimida talaba esa har bir semestr, o‘quv yili davomida muayyan miqdorda kreditlar to‘plab borishi va tegishli miqdordagi, ya’ni 240 kreditni to‘plagandan so‘ng unga bakalavr, bakalavrni tugatgandan so‘ng magistratura darajasini egallash uchun 120 kredit to‘plashi kerak bo‘ladi.

ECTS kredit-modul tizimida bir o‘quv yili uchun kreditlar miqdori 60 tani tashkil etadi. Bir o‘quv yili 2 semestrda iborat ekanligini hisobga olsak, talaba o‘qishi davomida har semestr 30 kredit to‘plab borishi zarur.

Professor-o‘qituvchilarning asosiy vazifasi o‘zi o‘qiydigan o‘quv modulining qaysi semestrda, talabalar qancha kredit to‘plashi, shu kreditni egallashi uchun talabalar tomonidan bajariladigan mustaqil ta’lim va nazariy mashg‘ulotlar yuklamalari, o‘quv va test topshiriqlarini aniqlashi zarur.

Kredit-modul tizimida o‘qish yuklamasi ECTS kredit-modul tizimida 1 kredit o‘rtacha 25-30 akademik soatlik o‘qish yuklamasiga teng.

Professor-o‘qituvchi o‘quv rejada o‘quv kursini o‘qitishga rejalashtirilgan soatlarni e’tiborga olgan holda tegishli kredit miqdorini belgilaydi. Talaba qo‘lga kiritishi uchun ma’lum miqdordagi o‘qish yuklamasini (“learning workloads”) bajarishi zarur. Professor-o‘qituvchi talabalarning o‘quv yuklamasini ma’ruza, laboratoriya, amaliy va seminar mashg‘ulotlarida bajaradigan o‘quv va test topshiriqlari, mustaqil ishlarning rejasiga muvofiq shakllantiradi.

Talabaning o‘qish yuklamasi bu muayyan fan bo‘yicha belgilangan o‘quv maqsadlariga erishishishiga qaratilgan barcha tizimli topshiriqlarni bajarish uchun belgilangan vaqt. 1 kredit o‘qish yuklamasi 25-30 soat oralig‘ida belgilangan. Odatda har bir OTM o‘zining ichki qoidalarida belgilaydi va bu qoidalar OTM veb sahifasida shaffof tarzda joylashtiriladi.

Agar Siz o‘qiydigan kursga 3 kredit ajratilgan bo‘lsa, talaba ushbu fan bo‘yicha belgilangan miqdordagikreditlarni qo‘lga kiritish uchun semestr davomida 75-90 soatlik o‘qish yuklamasini bajarishi kerak bo‘ladi ($25*3=75$; $30*3=90$). Shunday ekan kredit-modul tizimini joriy etgan OTMlarda talabalar har bir fan uchun belgilangan kreditlar miqdoriga qarab turib, o‘quv yilining boshida har bir o‘quv kursi uchun talabalar o‘qish va o‘rganishga qancha vaqt sarflash kerakligini, o‘quv topshiriqlarini silabus ko‘rinishida yoki talabaning shu kurs bo‘yicha mustaqil ish daftari shaklida shaffoflikning bir ko‘rinishi sifatida tavsiya etishi zarur. Kredit-modul tizimi prinsiplari va ularni amalga oshirish yo‘llari.

Oliy ta’lim tizimida kredit-modul tizimini amalga oshirish prinsiplari quyidagilar:

1. Talaba shaxsiga yo‘naltirilgan texnologiya asosida o‘quv kursi mazmunidan kelib chiqqan holda kredit - modul tizimining didaktik va metodik ta’minotini ishlab chiqishi lozim (student-centered education);

2. Ta’lim-tarbiya jarayoni davomida tizimli, muntazam va shaffoflikka asoslangan talabalarning o‘zlashtirgan bilim, ko‘nikma, malaka, tayanch va fanga doir kompetensiyalarni nazorat qilish va baholash Reyting tizimi topshiriqlarini shakllantirish va amaliyatga joriy etish(transparent education);

3. Kredit-modul tizimi talabalari asosida ta'lim-tarbiya jarayonining moslanuvchanligini kuchaytirish, ya'ni talabalarning o'zlashtirgan bilim, ko'nikma, malaka, tayanch va fanga doir kompetensiyalarni nazorat qilish va baholash Reyting tizimi topshiriqlarini murakkablik darajasi (reproduktiv, produktiv, qisman-izlanishli, kreativ) ni e'tiborga olgan holda talabalarning muayyan kredit to'plashiga imkon yaratish (improving flexibility);

4. Ta'lim-tarbiya jarayoni davomida talabalar mobilligini kuchaytirish, ya'ni talabalarning o'zlashtirgan bilim, ko'nikma, malaka, tayanch va fanga doir kompetensiyalarni nazorat qilish va baholash Reyting tizimi topshiriqlarini DTS (minimal- reproduktiv, produktiv daraja) va malaka (maksimal- qisman-izlanishli, kreativ) talablar asosida shakllantirgan holda talabalarning qiziqishi, ehtiyoji va hohishiga ko'ra muayyan kredit to'plashiga imkon yaratish (improving student mobility).

Quyida har bir tamoyil tafsifланади.

Talaba shaxsiga yo'naltirilgan ta'limni tashkil etish
Ta'lim tizimlarini odatda ikki toifaga bo'lish mumkin: o'qituvchiga yo'naltirilgan va talaba shaxsiga yo'naltirilgan ta'lim.

Ularni oddiy qilib quyidagicha tasvirlash mumkin: O'qituvchiga yo'naltirilgan ta'lim tizimida ta'lim-tarbiya jarayoniga o'qituvchi ta'limning me'yoriy hujjatlari o'quv dasturlariga, dars jarayonlariga qat'iy ravishda OTM, uni nazorat qiluvchi tashkilot va o'qituvchi pedagogik mahorati nuqtai nazaridan yondashiladi.

Bu jarayonda aksari hollarda o'qituvchining bilim olishning yagona manbai sifatida qaraladi, talabalar shu o'quv kursi davomida o'zlashtirishi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma, malaka, tayanch va fanga doir xususiy kompetensiyalarni qanday usulda o'rganishi kerakligi masalalarini belgilashda mehnat bozori vakillari va talabalarning qiziqishlari, extiyojlari, fikrlari ko'p ham e'tiborga olinmaydi. Ta'lim-tarbiya jarayoni sub'ekt-ob'ekt munosabatlar asosida boshqarish va tashkil etish ancha markazlashgan tarzda amalga oshiriladi. Talabalarning o'quv-bilish faoliyati passiv tinglovchi shaklida tashkil etiladi. Bu jarayonda talabalarda mustaqil fikrlesh, o'z fikrlarini ifoda etish, munozaraga kirishish, muammolarga tanqidiy yondashish, mustaqil qarorlar qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirish imkoniyati chekланади.

Talaba shaxsiga yo'naltirilgan ta'limni amalga oshirishda quyidagilarga e'tibor qaratish lozim:

1. Ta'lim-tarbiya jarayonida talabaning qiziqishi, fan asoslarini o'rganishga bo'lgan ehtiyoji, temperamenti va motivatsiyasini e'tiborga olgan tavofutlab yondashishni amalga oshirish;

2. O'quv modulining mazmuni e'tiborga olingan holda fanlar integratsiyasi va kasbiy yo'naltirish orqali talabalarning barkamolligi va raqobatbardoshligini ta'minlash;



3. Talabalarning mustaqil bilim olish kompetensiyalarini tarkib toptirish maqsadida mustaqil ta'lim topshiriqlarini induktiv va deduktiv mantiqiy (bottom up) yo'nalishda amalga oshirish yo'llarini belgilash;

4. O'quv modulining mazmuni va DTS me'yorlarini nazarda tutgan holda elektron-axborot resurslarni tayyorlash;

5. Ta'lim-tarbiya jarayonida talabaning o'quv kursi davomida o'zlashtirishi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma, malaka, tayanch va fanga doir xususiy kompetensiyalarni nazorat qilish va baholashning zamonaviy vositalari, jumladan, sun'iy intellektni aniqlash maqsadida adaptiv test va o'quv topshiriqlardan foydalanish orqali talabalarning o'z-o'zini nazorat qilish va baholashiga imkon yaratish;

6. O'qituvchi bu jarayonda muvofiqlashtiruvchi, maslahatchi, tashkilotchi, nazorat qilish va boshqarish funksiyalarini amalga oshiradi.

Oliy ta'lim tizimida kredit-modul tizimini amalga oshirishda bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lgan akademik kredit va akademik modul tushunchalarining mazmun-mohiyatini anglash zarur. Bu yerda professor-o'qituvchi o'z fanidan talaba to'plashi zarur bo'lgan kredit soni va uning topshiriqlarini shakllantirish, muntazam holda ma'ruza, laboratoriya, amaliy, seminar mashg'ulotlari va mustaqil ta'limni muvofiqlashtirishi zarur.

Akademik kredit - oliy ta'limning muayyan bosqichida ushbu ta'lim darajasini qo'lga kiritish maqsadida talaba tomonidan muntazam ravishda to'plab boriladigan ramziy o'lchov birligi. Bu birlik talaba ma'lum miqdordagi o'qish yuklamasini bajarganligi va muayyan o'qish natijalarini muvaffaqiyatli tarzda egallaganligini anglatadi

O'quv dasturi mantiqiy tugallangan va yakuniy xulosa yasash imkonini beradigan qism-modullarga ajratiladi, har bir modul bo'yicha talabaning o'zlashtirishi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma, malaka, tayanch va fanga doir xususiy kompetensiyalarni nazorat qilish va baholash uchun kredit nazorat topshiriqlari, ularning ma'ruza, laboratoriya, amaliy, seminar mashg'ulotlari va mustaqil ta'lim jarayonida to'plash yo'llarini aniqlaydi.

Akademik modul - yaxlit, muayyan o'quv natijalariga erishishga qaratilgan, talabaning o'zlashtirishi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma, malaka, tayanch va fanga doir xususiy kompetensiyalarni nazorat qilish va baholash Reyting tizimi mezonlariga ega bulgan tizimli, izchil o'qish va o'rganish harakatlari jamlanmasi. U odatda bir semestr davom etadi lekin ayrim hollarda bir necha soatdan iborat bo'lishi ham mumkin. ECTS tizimida har bir modul o'zida muayyan miqdordagi kreditlarni aks ettiradi.

O'quv moduli o'quv rejada ko'zda tutilgan pedagogik va ishlab chiqarish amaliyoti, bitiruv-loyiha ishi yoki magistrlik dissertatsiya ishi bo'lishi mumkin.

Nazorat savollari.

1. Biologik fanlarni o'qitishda kredit-modul tizimidan foydalanishning afzalliklari va kamchiliklari yuzasidan tahliliy fikr yuriting.

2. Kredit-modul tizimiga umumiy ta'rif bering va tavsiflang.
3. Biologik fanlarni o'qitishda kredit-modul tizimi prinsiplarini amalga oshirish yo'llari yuzasidan metodik tavsiyalar ishlab chiqing.
4. Biologik fanlarni o'qitishda foydalaniladigan akademik kredit va akademik modul tushunchalarini izohlang.
5. Biologik fanlarni o'qitishda kredit-modul tizimi va an'anaviy ta'lismi tizimini qiyoslang.

3-ma'ruza: Kredit - modul o'qitish tizimining o'ziga xos xususiyatlari, ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish.

Reja:

1. Kredit- modul o'qitish tizimining o'ziga xos xususiyatlari.
2. Kredit-modul o'qitish tizimida innovatsion texnologiyalardan foydalanish.

Kredit-modul tizimi, bu — o'qitish jarayonini maqsadga muvofiq tashkil etish jarayoni bo'lib, o'qitishning modul texnologiyalari jamlamasi va kredit o'lchovi asosida baholash modeli hisoblanadi.

Mazkur tizimni pedagogik jarayonga qo'llash o'qitish jarayoni shakllari: ma'ruza, laboratoriya, amaliy, seminar mashg'ulotlarini o'quv maqsadlari asosida uyg'unlashtirish, talabalarning o'zlashtirgan bilim, ko'nikma, malaka, tayanch va fanga oid xususiy kompetensiyalarni nazorat qilish va baholashda reyting tizimidan maqsadga muvofiq foydalanish lozim. Ushbu jarayonni professor-o'qituvchilar yaxlit, uzviy va izchillikda tashkil etiladigan serqirra hamda murakkab tizimli jarayon ekanligini tasavvur qilishi va loyihalashi zarur.

Kredit-modul tizimida an'anaviy o'qitishdan voz kechish, ya'ni talabalarni passiv tinglovchi sifatida o'quv ma'lumotlarni tayyor holida yetkazmasdan, balki talabalarni pedagogik jarayonning sub'ekti sifatida mustaqil bilim olish qobiliyatlarini rivojlantirish talab etiladi.

Biologik fanlarni o'qitishda professor-o'qituvchi o'zi o'qitishga mutassadi bo'lgan o'quv kursini shu kursga ajratilgan kredit birlik asosida reyting tizimi uchun talabalarning o'zlashtirgan bilim, ko'nikma, malaka, tayanch va fanga oid xususiy kompetensiyalarni nazorat qilish va baholash uchun o'quv topshiriqlari va nostandard test topshiriqlarini tuzishi lozim.

Biologik fanlarni o'qitishda kredit-modul tizimi quyidagi didaktik maqsad va vazifalarni amalga oshiradi:

— oliv ta'limni rivojlantirish Konsepsiyasida belgilangan maqsad va vazifalarga mos o'quv jarayonini tashkil etishni amalga oshiradi;

— o'quv rejadan o'rinni o'rgan har bir fan, kursning talabalarining kelgusidagi kasbiy faoliyatida tutgan o'rniga muvofiq kredit birligini qiymatini aniqlash;

— reyting tizimi uchun Blum o'quv maqsadlariga muvofiq talabalarining o'zlashtirgan bilim, ko'nikma, malaka, tayanch va fanga oid xususiy kompetensiyalarni nazorat qilish va baholash uchun o'quv topshiriqlari va nostandart test topshiriqlarini shakllantirish;

— o'quv fani bo'yicha bilim, ko'nikma, malaka, tayanch va fanga oid xususiy kompetensiyalarni talabalar tomonidan qiziqishi va ehtiyojlariga muvofiq to'liq o'zlashtirilishi uchun o'z o'quv rejalarini individual tarzda tuzishlariga imkon yaratish;

— o'qitish jarayoni shakllari: ma'ruza, laboratoriya, amaliy, seminar mashg'ulotlarini o'quv maqsadlari asosida uyg'unlashtirish, talabalarining mustaqil ta'limi va ishining nisbatini orttirish, mazkur jarayonni rejali va maqsadga muvofiq tashkil etish;

— Bo'lajak mutaxassislarga mehnat bozorida qo'yiladigan talablarni inobatga olgan holda o'qitish jarayonini tashkil etilishi va dasturlarni optimallashtirishning qulayligi va kooreksiyalash imkoniyati mavjudligi.

Yuqorida maqsad va vazifalar professor-o'qituvchilardan ma'ruza, laboratoriya, amaliy, seminar mashg'ulotlarini nafaqat o'qitishni innovatsion ta'lim texnologiyalari asosida olib borish, balki talabaning mustaqil ta'lim va ishiga yangicha yondashish, zamon talabidan kelib chiqib, mutaxassisning malaka talablaridan kelib chiqqan holda tabalar tomonidan bilim, ko'nikma, malaka, tayanch va fanga oid xususiy kompetensiyalar, kasbiy va vitagen tajribalarni egallash, ularda tabiiy-ilmiy savodxonlik, amaliy ko'nikmalarni shakllantirish natijasida inson kapitali yaratishni talab etadi.

Xorijiy tajribaga ko'ra, kredit-modul tizimida o'quv jarayoni har semestrda 2 — 4 tagacha moduldan iborat bo'ladi. Modulda jamlangan fanlar osondon murakkablik sari, nazariy-uslubiy fanlardan amaliy fanlarga qarab hamda mantiqiy jihatdan bir-birini o'zaro uzviy to'ldirish prinsipi asosida shakllantiriladi. Talaba mutaxassis bo'lib shakllanishi uchun nafaqat axborotlar, balki ularni qayta ishlash, amaliyatga joriy qila olish malakasiga ega bo'lishi talab etiladi.

Modulga asoslangan o'quv dasturlari maxsus sxema asosida ishlab chiqiladi va quyidagilarni o'z ichiga qamrab oladi:

- Biologik fanlarning o'quv maqsadi hamda vazifalari mutaxassisning kelgusidagi pedagogik faoliyatda tutgan o'rnnini to'liq yoritilishi;
- Biologik fanlar silabusida talabaning o'quv kursini boshlanishi va yakunlashida egallanishi lozim bo'ladigan malakasiga qo'yiladigan talablar;
- Biologik fanlar silabusida o'quv kurslarini modulga ajratish, modul tarkibiga kirgan har bir mavzuning qisqacha mazmuni, ya'ni ma'ruza mavzulari, seminar va amaliy mashg'ulotlarning rejasi, mustaqil ta'limni baholash uchun mo'ljallangan o'quv va test topshiriqlari;
- Biologik fanlarni o'qitish jarayonida foydalananiladigan texnologiyalar ning qisqacha bayoni, talabalar tomonidan bajariladigan o'quv topshiriqlari, bilimlarni baholashning turlari bo'lishi lozim.

Modul asosida o'qitish tizimida talabalar bilimi, ko'nikma, malaka, tayanch va fanga oid xususiy kompetensiyalarni nazorat qilish va baholashda reyting baholash tizimidan foydalaniлади. Unda talabaning barcha o'quv faoliyati, ya'ni auditoriya va auditoriyadan tashqari mashg'ulotlarda olgan, o'zlashtirgan bilimlari ball berish orqali baholanadi.

Kredit (credit) — talabaning alohida ta'lim yo'nalishi yoki dasturi (kurs) bo'yicha fanlarni o'qib o'rganishi va o'zlashtirishi uchun sarflangan o'quv yuklamasining (vaqtning) o'lchov birligidir. Kredit — talabaning me'yoriy hujjat bilan belgilangan, odatda bir hafta davomida auditoriyada va mustaqil ravishda ta'lim olishi uchun ajratilgan minimal vaqt o'lchovidir. Talabaga kredit ma'lum bir fandan belgilangan topshiriqlarni bajarib, yakuniy imtihondan muvaffaqiyatli o'tgandan so'ng beriladi.

Har bir talaba kelgusida tanlagan yo'nalishi va mutaxassisligi bo'yicha diplomga ega bo'lishi uchun kreditlarni yig'ib borishi lozim. To'plangan kredit talabaga butun umr davomida o'zining malakasini oshirib borish yoki qo'shimcha oliy ma'lumot olishiga xizmat qilib boraveradi. Iqtisodiy tilda aytganda, to'plangan kredit talabaning akademik "aktiv"ga aylanib boradi.

Xalqaro hamjamiyat ta'lim tizimida bir nechta turdag'i, jumladan, Amerika Qo'shma Shtatlari kredit tizimi Charlz Uilyam Eliot (USCS); Yevropa mamlakatlari kredit tizimi (ECTS); Osiyo va Tinch okeani kredit tizimi (UCTS); Buyuk Britaniya kredit tizimi (CATS) mavjud. Ular bir-biridan maqsad va mazmun-mohiyati bilan farq qilsa-da ishlash mexanizmida umumiylilik mavjud.

Mazkur kredit texnologiyasi ta'lim oluvchilarga ishchi o'quv rejaga kiritilgan tanlov fanlarini tanlash, bu orqali individual o'quv rejasini shakllantirishda bevosita ishtirok etish huquqini beradi. Ularga, nafaqat fanlarni, balki professor-o'qituvchilarni ham tanlash erkinligi beriladi. Talabalarga fanlarni



tanlash imkoniyatining berilishi ijobiy hol sanaladi. Bu o'quv jarayonlarini baholashning o'ziga xos qiymat ko'rsatkichi bo'lib ham hisoblanadi.

An'anaviy o'qitishdan farqli o'laroq, kredit tizimida majburiy fanlardan tashqari tanlov fanlari ham talabaning individual ish rejasiga kiritiladi. Talabalar o'qishdan haydalmaydi yoki kursdan-kursga qoldirilmaydi. qaysi fan (kurs)dan belgilangan kreditlarni to'play olmasa, faqat o'sha fanning o'zidan qayta imtihon topshiradi, xolos. Oliy ma'lumot to'g'risidagi diplom esa belgilangan kreditlar to'plagandan so'ng beriladi.

ECTS tizimi bo'yicha talabalarning bir yilda to'plashi lozim bo'lgan kredit miqdori 60 ni tashkil etadi. Bir o'quv yili ikki semestrda iborat bo'ladi deb olsak, talaba har semestrda 30 kredit to'plab borishi lozim. Bakalavriat dasturi 3-4 yillik bo'lsa, talaba bakalavr darajasini qo'lga kiritishi uchun jami 180 — 240 kredit, 1-2 yillik magistratura dasturini tugallashi uchun esa, 60 — 120 kredit to'plashi majburiyat hisoblanadi.

Har bir ta'lim muassasasi bakalavriyat bosqichida bir semestrda o'qish 15 hafta va attestatsiya uchun 6 (bir semestrda 3 hafta imtihonlar uchun ajratilgan) hafta ajratadi. Shunda 4 yilda o'qish haftalari soni 144 tani, attestatsiyalar 24 haftani hamda umumiylar ta'tillar bilan hisoblaganda jami 204 haftani tashkil etadi. Barcha ta'lim yo'nalishi va mutaxassisliklar o'quv rejalarida har bir bosqichda fanlar ikki qismga, ya'ni asosiy va tanlov fanlariga ajratilgan holda aks ettirilmoqda. ECTS talabidan kelib chiqib, talabaga har yili 60 kreditdan 4 yil ichida jami 240 kreditni to'plash majburiyatini yuklash rejalashtiriladi. Shunda talaba 4 yil davomida ma'ruza, amaliy hamda laboratoriya mashg'ulotlari va imtihon jarayonlarida ishtirok etishiga 2880 soat, mustaqil ta'limga 4320 soat, jami 7200 soat vaqt sarflashi lozim bo'ladi.

Faraz qilaylik, 1 kredit = 12 akademik soat + 18 soat mustaqil ta'limni tashkil etadi. Shu bois 1 kredit 30 soatga teng deb qaralib, talabaning haftalik auditoriya yuklamasi 20 soatga teng. Malakaviy amaliyot uchun ajratilgan kredit miqdori tegishli fan yoki fanlar hisobiga amalga oshirilishi ko'zda tutilgan.

Kredit-modul tizimining joriy etilishi o'qituvchi va talabaning hamkorlikda ishlashida muhim omil hisoblanadi. Modulli ta'linda pedagog tinglovchining o'zlashtirish jarayonini tashkil etadi, boshqaradi, maslahat beradi, tekshiradi. Talaba esa yo'naltirilgan ob'ekt tomon mustaqil harakat qiladi. Eng asosiysi talabalarning mustaqil ta'lim olishiga qaratiladi.

O'quv jarayonida mustaqil ta'lim olishning ahamiyati ortadi va bu kelajakda mutaxassislarining mustaqilligi, ijodiy tashabbuskorligi va faolligini oshirishga olib keladi. Kredit-modul tizimida universitet talabalari har doim o'qituvchi va

kursdoshlaridan yordam hamda maslahat olish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu esa o'zaro hamjihatlikni mustahkamlaydi va jamoada ishslash ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.


Kredit-modul o'qitish tizimiga o'tish oliy o'quv yurti professor-o'qituvchilariga bo'lgan majburiyat hamda talabni ham oshiradi. Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, modulli o'qitish tizimi bilan o'qituvchi nafaqat axborot beruvchi va nazorat qiluvchi funksiyalarini, balki maslahatchi hamda muvofiqlashtiruvchilik vazifalarini ham bajaradi. Pedagogik jarayonda o'qituvchining yetakchilik roli saqlab qolinadi.

Kredit-modul o'qitish tizimiga o'tish horijiy hamkorlar bilan hamkorlikda ishslash, talabalar almashinuvining samaradorligini orttiradi. Chunki bitta universitetda olingan kreditlar ikkinchisida hisobga olinadi va talabalar kredit yo'qotmasdan bir universitetdan boshqasiga o'tishi mumkin. Aynan ushbu tizim talabalarning ilg'or xorijiy universitetlarda o'qishini davom ettirishiga hamda murakkab byurokratik to'siqlarni olib tashlashga imkoniyat yaratadi.

Oliy ta'lif muassasalarida talabalarga o'quv kurslari va professor-o'qituvchilarini tanlash imkoniyatining berilishi ta'lif-tarbiya jarayonini tashkil etish va innovatsion va axborot-kommunikatsion texnologiyalardan foydalangan holda tashkil etishni taqoza etadi.

Shuningdek, talabalarning mustaqil ta'lifi va ishini maqsadga muvofiq tashkil etilishiga ahamiyat qaratilishi kerak.

KREDIT-MODUL TIZIMI TALABLARI ASOSIDA TA'LIM-TARBIYA JARAYONINING MODELI



Kredit-modul tizimi tashkil etiladigan ta'lim-tarbiya jarayoniga innovatsion yondashuvni talab etadi. Innovatsion yondashuv biologik fanlarni o'qitish shakllari: ma'ruza, amaliy, laboratoriya, seminar mashg'ulotlari va mustaqil ta'limni tashkil etishda lokal va xususiy metodik darajadagi texnologiyalardan foydalanish zaruratinini keltirib chiqaradi.

Oliy ta'lim muassasalarida biologik fanlardan tashkil etiladigan ta'lim-tarbiya jarayonida lokal darajada qo'llaniladigan pedagogik texnologiyalar jumladan "Insert", "Klaster", "Bumerang", "Aqliy hujum", "Kichik guruhlarda ishlash", "Keys stadi", "Atamalar zanjiri", "Atamalar varag'i" foydalanish tavsiya etiladi.

Mazkur texnologiyalar mashg'ulotlarning bir qismi, ya'ni talabalarning o'tgan mavzu bo'yicha o'zlashtirgan bilimlarini aniqlash, talabalarning o'quv motivlarini faollashtirish yoki mavzuni umumlashtirish va xulosa yasashda foydalanish mumkin.

Oliy o'quv yurtida o'qitiladigan barcha fanlar kabi biologik fanlarni o'qitish va ta'lif samaradorligini orttirishda pedagogik texnologiyalarning o'rni muxim sanaladi.

Didaktik adabiyotlarning tahlili, ta'lif-tarbiya jarayonida pedagogik texnologiyalar uch xil: umumi didaktik, xususiy metodik va lokal darajada qo'llanishini ko'rsatdi.

Ma'lumki, umumi didaktik daraja – pedagogik texnologiyalarning konseptual asoslari, ta'lif-tarbiya jarayoniga qo'llash prinsiplari, o'ziga xos xususiyatlari, talabalarning bilish faoliyatini tashkil etish yo'llari yoritiladi. Ushbu daraja asosan, professor-o'qituvchilarning pedagogik tafakkurini rivojlantirishda qo'llaniladi, ya'ni pedagogik kadrlarni ta'lif-tarbiya jarayonida pedagogik texnologiyalardan foydalanish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarni egallashlariga zamin tayyorlaydi.

Biologik fanlarni o'qitishda pedagogik texnologiyalar ikki xil: xususiy metodik va lokal darajada qo'llaniladi:

1. Biologik fanlar kursi mazmunining o'ziga xos xususiyatlari asosida xususiy metodik darajada qo'llaniladigan pedagogik texnologiyalar aniqlanadi va mazkur texnologiyalar kursning maqsadi, vazifalarini amalga oshirishga xizmat qiladi. Xususiy metodik darajada qo'llaniladigan pedagogik texnologiyalar asosan yangi mavzuni o'rganishda foydalaniladi. Xususiy metodik darajada qo'llaniladigan pedagogik texnologiyalar jumlasiga didaktik o'yin, muammoli ta'lif, modulli ta'lif, hamkorlikda o'qitish, loyihalash texnologiyalari kiradi.

2. Biologik fanlarni o'qitish jarayonida mashg'ulotning muayyan bir qismida talabalarning bilish faoliyatini faollashtirish maqsadida lokal (modul) darajadagi texnologiyalardan foydalaniladi.

Biologik fanlarni o'qitish jarayoniga kiritilgan har qanday o'zgarish talabalarning bilish faoliyatining o'zgarishiga olib keladi. Talabalar pedagogik texnologiyalarning talablariga moslashishi uchun, ya'ni muayyan ko'nikmalarni egallashlari uchun ta'lif-tarbiya jarayonida dastlab pedagogik texnologiyalardan lokal darajada foydalanish kerak.

Lokal darajada qo'llanilgan pedagogik texnologiyalar o'z samarasini bergandan so'ng, xususiy metodik darajada foydalanishga o'tish maqsadga muvofiq.



Oliy ta'linda tashkil etiladigan ta'lim-tarbiya jarayonida pedagogik texnologiyalar axborot texnologiyalari bilan uyg'unlashtirish dolzarb muammo sanaladi. Shu sababli axborot texnologiyalaridan foydalanish uchun uning didaktik funksiyalarini aniqlash zaruruti vujudga keldi.

Ma'lumki, axborot texnologiyalari ta'lim-tarbiya jarayonida pedagogik texnologiyalar bilan uyg'unlashtirilgan holda qo'llanilganda ko'zlangan samarani beradi. Mazkur jarayonda zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini uyg'unlashtirishda axborot texnologiyalarining axborot, talabalarning bilish faoliyatini tashkil etish va boshqarish, ko'rgazmalilik, talabalarning bilimlarini nazorat qilish va baholash, talabalarning bilish faoliyatini faollashtirish va qiziqishini orttirish kabi funksiyalarini asos qilib olindi.

Axborot texnologiyalarining yuqorida qayd etilgan funksiyalarini zamonaviy pedagogik texnologiyalarga asoslangan mashg'ulotlarda amalga oshirish imkoniyatlari jadval tarzida berildi.

Biologik fanlarni o'qitishda pedagogik va axborot texnologiyalarni bilan uyg'unlashtirish imkoniyatlari

Pedagogik texnologiyalarning nomi va ularning turlari	Axborot texnologiyalarining funksiyalari				
	Axborot manbai	Bilish faoliyatini tashkil etish	Ko'rgazmali lik	Nazorat qilish va baholash	Qiziqishini orttirish
Didaktik o'yin texnologiyasi:					
Konferensiya	+	-	+	+	+
Taqdimot	-	-	+	+	+
Ijodiy o'yin	+	+	+	+	+
O'yin mashq	-	+	+	+	+
Modulli ta'lim texnologiyasi:					
Yakka tartibda ishlashga mo'ljallangan;	+	+	+	+	+
Ikki talaba hamkorlikda ishlashiga mo'ljallangan;	+	+	+	+	+

Kichik guruhlarda ishlashga mo'ljal-langan modul das-turlari.	+	+	+	+	+
Hamkorlikda o'qitish texnologiyasi:					
Komandada o'qitish metodi	+	+	+	+	+
«arra» yoki «zigzag» metodi	+	-	+	+	+
Kichik guruhlarda o'qitish metodi	+	+	+	+	+
Muammoli ta'lif texnologiyasi					
Aqliy hujum	+	-	+	+	+
Keys	+	-	+	+	+

Jadvaldan ko'rinish turibdiki, biologik fanlarni o'qitishda didaktik o'yin texnologiyasiga asoslangan konferensiya mashg'ulotlarida talabalarning bilish faoliyati o'yin syujet va qoidasiga binoan tashkil etilishi va boshqarilishi sababli, axborot texnologiyalarining axborot, ko'rgazmalilik, talabalarning bilimlarini nazorat qilish va baholash, talabalarning bilish faoliyatini faollashtirish va qiziqishini orttirish kabi funksiyalarini amalga oshirish mumkin.

Shuningdek, didaktik o'yin texnologiyasiga mansub ijodiy o'yin, hamkorlikda o'qitish texnologiyasining kichik guruhlarda o'qitish, komandada o'qitish metodlari va modulli ta'lif texnologiyasining barcha dasturlaridan foydalanilgan mashg'ulotlarda axborot texnologiyalarining yuqorida qayd etilgan funksiyalarini to'liq amalga oshirish imkoniyati mavjudligi, didaktik o'yin texnologiyasiga mansub konferensiya, taqdimotga asoslangan mashg'ulotlarda, shuningdek, hamkorlikda o'qitish texnologiyasining «arra» metodi, muammoli ta'lif texnologiyasining «aqliy hujum»idan foydalanilgan mashg'ulotlarda talabalarning bilish faoliyatini tashkil etish va boshqarish, o'yin mashqlarda axborot manbai funksiyalarini amalga oshirish imkoniyati yo'qligi ma'lum bo'ldi.

O'qituvchi ta'lif-tarbiya jarayonida pedagogik texnologiyalar va o'qitish metodlaridan o'z o'rnida va samarali foydalanish uchun muayyan metodik bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishi lozim.

O'qituvchi mashg'ulotda o'rganiladigan mavzu mazmuniga muvofiq holda yuqorida qayd etilgan pedagogik texnologiyalardan lokal yoki xususiy metodik darajada foydalanishni aniqlashi, mashg'ulot davomida talabalarning bilish

faoliyatini tashkil etish va boshqarish yo'llarini texnologik xaritalar asosida belgilashi, mashg'ulotning didaktik maqsadlarini e'tiborga olgan holda talabalarga qo'yiladigan o'quv maqsadlarini shakllantirishi, olingan natijalarni tahlil qilishi va ta'lim-tarbiya jarayoniga olingan natijaga muvofiq muayyan o'zgartirishlar kiritishi zarur.

Mashg'ulotlarni tashkil etishda o'qituvchi didaktikada ishlab chiqillan ta'lim mazmuni, o'qitish metodlari va vositalarining uzviyligi prinsipiga amal qilishi, fanlar bo'yicha tuziladigan o'quv-metodik majmuada va mavzuli rejada pedagogik texnologiyalarning qaysi turidan foydalanishini o'quv yili boshidan belgilashi maqsadga muvofiq.

Nazorat savollari.

1. Biologik fanlarni o'qitishda kredit-modul tizimidan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari yuzasidan tahliliy fikr yuriting.
2. Biologiyani o'qitishda foydalaniladigan kredit-modul tizimiga asoslangan modelni izohlang.
3. Biologik fanlarni o'qitishda kredit-modul tizimida foydalaniladigan lokal darajadagi texnologiyalarni tavsiflang.
4. Biologik fanlarni o'qitishda kredit-modul tizimida foydalaniladigan xususiy metodik darajadagi texnologiyalarni tavsiflang.

4-ma'ruza: Kredit-modul tizimida xalqaro baholash dasturlarini amalga qo'llash.

Reja:

1. Kredit-modul tizimida Xalqaro baholash dasturlarini amalga oshirish yo'llari.
2. Xalqaro baholash dasturlarining turlari va ularning o'ziga xos xususiyatlari

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 8 dekabr 2018 yilda qabul qilingan 997-sonli "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi

xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorini amalga oshirish, oliv ta’lim tizimida talabalarining pedagogik faoliyatga tayyorlash, zamon talablariga moslashtirishda Xalqaro baholash dasturlari talablarini amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Biologik fanlarni o‘qitishda Xalqaro baholash dasturlarining talablarini amalga oshirishga e’tibor qaratish lozim.

“Xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorga muvofiq Respublika xalq ta’limi tizimiga quyidagi dasturlar amaliyotga joriy etilmoqda.

XALQARO BAHOLASH DASTURLARINING TURLARI VA MOHIYATI

4-DARAJA	PEDAGOGIK KADRLAR UCHUN TALIS - TEACHING AND LEARNING INTERNATIONAL SURVEY-TURLI MAMLAKATLARDA TAShKIL ETILADIGAN PEDAGOGIK JARAYONLARNING SIFATINI XALQARO QIYOSIY TAHLILIGA ASOSLANGAN TADQIQOT
3-DARAJA	1-7 SINF O‘QUVCHILARI UCHUN PISA - PROGRAMME FOR INTERNATIONAL STUDENT ASSESSMENT-15 YOSHLI O‘QUVChILARINING O‘QISH, MATEMATIKA VA TABIIY YO‘NALISHDAGI FANLARDAN SAVODXONLIK DARAJASINI BAHOLASHGA MO‘LJALLANGAN
2-DARAJA	1-4 SINF O‘QUVChILARI UChUN TIMSS - THE TRENDS IN INTERNATIONAL MATHEMATICS AND SCIENCE STUDY O‘QUVChILARNING MATEMATIKA VA TABIIY FANLARNI O‘ZLASHTIRISH SIFATINI XALQARO MONITORINGLASH VA BAHOLASH TIZIMI
1-DARAJA	1-4 SINF O‘QUVCHILARI UChUN PIRLS - PROGRESS IN INTERNATIONAL READING AND LITERACY STUDY O‘QUVCHILARNING MATNNI O‘QISH VA TUShUNISH DARAJASINI BAHOLASHGA MO‘LJALLANGAN.

Qarorda qayd etilgan xalqaro baholash dasturlari bo‘yicha olib boriladigan **xalqaro tadqiqotlardan** biri Progress in International Reading and Literacy

Study (PIRLS) sanaladi. Mazkur baholash dasturi boshlang‘ich matabning 4-sinf o‘quvchilarining matnni o‘qish va tushunish darajasini baholash uchun tatbiq etiladi.

PIRLS tadqiqotlarida jahondagi 50 dan ortiq davlatlar ishtirok etib kelmoqda. Mazkur xalqaro tadqiqotning maqsadi turli xil ta’lim tizimidan iborat bo‘lgan davlatlardagi boshlang‘ich matab o‘quvchilarining matnni o‘qish va qabul qilish bo‘yicha tayyorgarligi hamda o‘quvchilarning har xil yutuqlarga erishishga sabab bo‘luvchi ta’lim tizimidagi o‘ziga xos xususiyatlarni aniqlash va baholashdan iborat. Albatta bunday tadqiqot xalq ta’limi sohasidagi ishchilar, olimlar, metodistlar, o‘qituvchilar, ota-onalar va jamoat vakillari uchun katta ahamiyatga egadir.

—Savodxonlik so‘zi o‘quvchilarning kelajakda o‘z rejalarini amalga oshirishda, ya’ni bilim olishni davom ettirish, mehnat faoliyatiga tayyorgarlik ko‘rish, ijtimoiy hayot va mehnatda ishtirok etishda asosiy vositasi sifatida savodxonlarcha o‘qish ko‘nikmasini egallashdagi muvaffaqiyatini anglatadi.

Tushunchaning mohiyatini anglatuvchi belgilari anglash, tahlil qilish, fikrlash, mushohada yuritish, hayotga tatbiq etishdan iborat.

—Yozma matn deganda bosma, qo‘lda yozilgan, displayda tasvirlangan, tabiiy til ishlatilgan matnlar nazarda tutiladi. Bunday matnlar diagramma, rasmlar, karta, jadvallar, grafika ko‘rinishidagi vizual tasvirlardan iborat bo‘lishi mumkin. Filmlar, teletasvirlar, multiplikatsiyalar, so‘zsiz rasmlarni kiritish bundan mustasno, chunki ular idrok etishning boshqacha yo‘lini talab qiladi. Vizual tasvirlar kiritilganda matnlarni yaxlit (bunday tasvirlarsiz) va yaxlit bo‘lмаган (tasvirlar bilan) matnlarga bo‘lish mumkin.

Shu bilan birga, vizual tasvirlar (vizual matnlar) alohida mustaqil tarzda berilishi ham mumkin.

Matnlarning turlari

Matnlarni mukammal darajada toifalarga ajratib bo‘lmaydi. Tadqiqot maqsadlari uchun matnlarning quyidagi umumiy xususiyatlari juda muhim deb topilgan:

- bayonning ravonligi va izchilligi;
- ularning realligi;
- faktlarni tahlil qilmay tavsiflanishi (ilmiy, amaliy va boshqa matnlar) va to‘qimaligi;
- badiyligi (badiiy publisistik va boshqa matnlar) ularning yaxlit va noyaxlit xususiyati.

Tadqiqotda matnlarning barcha turlaridan jumladan, hech bir kategoriya mos kelmaydigan matnlardan foydalananildi.

O‘quvchilarning har xil turdagи matnlarni o‘qish qobiliyatidagi farqlarni aniqlash tadqiqotning maqsad vazifasiga kirmaydi. Tadqiqotdan maqsad o‘quvchilarga o‘qib tushunishi uchun hayotda ko‘proq ishlatiladigan matnlarni taklif qilish bilan ular uchun umumiy va ahamiyatli bo‘lgan natijalarni aniqlashdir.



Tadqiqotga asos qilib olingan matnlarning umumiyligini qisqacha tasnifi
Yaxlit matnlar:

- Tasvirlash (bayon) badiiy va texnikaviy topshiriqlar 13%
- Hikoya qilib berish (hikoya, hisobot, reportaj) 22%
- Tushuntirish (tushuntirib beradigan, insho, ta'riflash, izohlash, qisqa xulosa (rezyume), sharhlash (interpretatsiya) 13%
- Dalillash (kommentariy, ilmiy asoslash) 13%
- Instruksiya – qo'llanma (ishni bajarish uchun ko'rsatma, qoidalar, ustavlar, qonunlar) 5%

Yaxlit bo'lmagan matnlar:

- Grafiklar – 11%
- Diagrammalar – 3%
- Jadvallar – 11%
- Kartalar – 3%
- Hujjat namunalari – (soliq hujjatlari, tashrif qog'ozlari, anketalar) – 3%
- Axborot qog'ozlari va e'lonlar 2%

Savodxonlikni baholashda quyidagi besh jihatni hisobga olinadi:

- 1) Matn mazmunining umumiyligini orientatsiyasi va uning mantiqiy butunligini tushunish (20% topshiriqlar).
- 2) Ma'lumotlarni aniqlash (20%)
- 3) Matnni sharhlash, izohlash (30%)
- 4) Matn mazmunini tahlil qilish, mushohada yuritish (15%)
- 5) Matnning uslubi ustida fikr yuritish (15%)

O'qish savodxonligining barcha jihatlari bir-biri bilan o'zaro bog'liq.

Ikkinchi jihatining muvaffaqiyatli ado etilishi birinchisining to'g'ri bajarilishiga bog'liq. Matnni to'liq tushunish o'quvchilarni har bir jihat bo'yicha chuqur bilimga egalik darajasini ko'zda tutadi.

Matn mazmunini nimaga qaratilganligini aniqlash va uning ma'no butunligini tushunish uchun bosh mavzuni umumiyligini maqsadini yoki matndan ko'zlangan maqsad nimaligini aniqlash lozim. Buning uchun o'quvchining o'ziga matnga sarlavha o'ylab topish, matnning umumiyligini ma'nosini anglatuvchi tezis tuzish, matnda ko'rsatilgan yo'l-yo'riqlar tartibini tushuntirish, grafik yoki jadvallarning asosiy tarkibiy qismlari nimalardan iboratligini aniqlash, karta yoki rasmning maqsadini aniqlash kabi vazifalar beriladi.

Umuman matnni tushungan-tushunmaganini aniqlashga qaratilgan topshiriqlar o'quvchilarga matnning bir qismi va savol ko'rinishidagi umumiyligini o'rtasidagi moslikni, matn qismi va muallif tomonidan berilgan o'ziga xos izoh o'rtasidagi moslikni aniqlash uchun berilishi mumkin.

Matn g'oyasining berilgan ta'riflar orasidan umumiyrog'i, asosiyrog'ini tanlashni taklif qilish o'quvchining asosiy g'oyani ikkinchi darajasidan ajrata olish mahoratini ko'rsatadi.

Topshiriqlarni bajarish uchun o'quvchi matnning tuzilishi, janr xususiyatlari haqidagi bilimga, matndagi istehzo, humor so'z ifodalangan ma'no nozikliklarini payqashi, muallif fikrini anglashi va tasvirlanganvoqeа hodisaga muallif bergan bahoni farqlay olish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak.

Matn uslubini anglashni ko'rsatadigan topshiriqlar ish faoliyatining aynan tanqidiy tahlil, tasvirning muallif o'yagan g'oyaga mosligi yoki matnning uslubiy sharh sifatida o'z maqsadiga mosligini baholash va boshqa usullarini kuchaytiradi.

—Savodxonlik atamasi aynan o'quvchilarining olgan bilimlarini kundalik hayotga tadbiq eta olish mahoratini ta'kidlash uchun qo'llaniladi.

Masalan, funksional o'qish (xizmatga, ishga oid) deganda o'quvchining ma'lumot olishi va uni baholash mahorati, diagrammalarni o'qish, matndagi bog'liqliklarni (aloqani) topish, izohlash, sharhlash, xulosa chiqarish mahorati nazarda tutiladi.

Xulosa qilib aytganda, PIRLS - Progress in International Reading and Literacy Study - boshlang'ich 4-sinf o'quvchilarining matnni o'qish va tushunish darajasini baholashga mo'ljallangan. Mazkur xalqaro dastur boshlang'ich sinflarda tashkil etiladigan ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarining o'qilgan matnni tushunishi, uni sharhlashi, mustaqil hayotda to'g'ri qarorlar qabul qilishi orqali ta'limning keyingi bosqichida o'qishni muvaffaqiyatli davom ettirishga zamin tayyorlaydi.

Jahon hamjamiatida o'z o'rnni egallayotgan mamlakatimiz siyosiy, huquqiy, iqtisodiy, fan, texnika, texnologiyalar va ijtimoiy rivojlanishning barcha sohalarida qo'lga kiritayotgan yutuqlari bilan dunyo xalqlarining e'tiborini tortmoqda va e'tirof etilmoqda. Ijtimoiy sohada ustuvor yo'nalish sanalgan ta'lim tizimini ham o'z navbatida muayyan darajada modernizatsiyalash talab etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan 8 dekabr 2018 yilda qabul qilingan 997-sonli "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori ta'lim tizimini modernizatsiyalash, ta'lim sifati va samaradorligini orttirishni nazarda tutadi.

Mazkur qarorda uzlusiz ta'lim tizimida ta'lim sifatini baholashni bugungi kun talablariga moslashtirish, o'quvchilarining o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini rivojlantirish, xalqaro baholash dasturlarini pedagogik amaliyotda qo'llash innovatsion metod va texnologiyalarini ishlab chiqish, jahoning rivojlangan mamlakatlaridagi ta'lim muassasalari bilan ta'lim sifatini baholash sohasida xalqaro aloqalarni o'rnatish, xalqaro loyihalarni ishlab chiqish va amalga oshirish, xalqaro ilmiy anjumanlar va simpoziumlarni tashkil etish va o'tkazishda ishtiroy etish, ta'lim sifatini baholash sohasida fundamental va amaliy tadqiqotlar o'tkazish, mazkur tadqiqotlarni ilmiy va uslubiy jihatdan qo'llab-quvvatlash, umumiyo'rta ta'lim muassasalarining xalqaro tadqiqotlarda muvaffaqiyatli ishtiroy etishini ta'minlash, olingan natijalarni boshqa davlatlar natijalari bilan qiyosiy taqqoslash,

xalqaro baholash dasturlarini ta'lim jarayoniga joriy etish bo'yicha tizimli monitoring olib borish, ushbu sohadagi ilg'or tajribani ommalashtirish va uning asosida ta'lim muassasalarini uchun tavsiyalar va qo'llanmalar ishlab chiqish, o'qitishning innovatsion usullaridan foydalangan holda o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlar bo'yicha pedagog kadrlarning malakasini oshirish bo'yicha o'quv-uslubiy tavsiyalar tayyorlash kabi vazifalar belgilangan.

Mazkur vazifalarni amalga oshirish ta'lim xizmatlari sifatini orttirish, ta'lim-tarbiya jarayonini modernizatsiyalash, ta'lim sifati ko'rsatkichi bo'yicha yuqori darajani egallash maqsadida o'qituvchining pedagogik va o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatini faollashtirishni talab etadi.

O'zbekiston Respublikasidagi ta'lim muassasalarining xalqaro tadqiqotlarda ishtiroy etishi, strategik jihatdan juda ko'p va keng ko'lamdagi dolzARB muammolarni hal etish zaruratini keltirib chiqaradi.

TIMSS - The Trends in International Mathematics and Science Study-matematika va tabiiy fanlarni o'zlashtirish sifatini Xalqaro monitoringlash va baholash tizimi IEA o'qitish natijalarini baholashning xalqaro assotsiatsiyasi tomonidan tashkil etilgan. Bu tadqiqot o'quvchilarning matematik va tabiiy fanlar bo'yicha boshlang'ich maktabning 4 sinfi va tayanch maktabning 8 sinf o'quvchilarining o'zlashtirish darajasini dunyoning turli mamlakatlarida qiyosiy o'rghanishni maqsad qilib qo'ygan va olingan natijalarga muvofiq har bir mamlakatning ta'lim tizimining o'ziga xos xususiyatlari va yutuqlarini e'tirof etadi.

TIMSS xalqaro baholash tizimining asosiy maqsadi har to'rt yilda boshlang'ich maktabning 4 sinfi va tayanch maktabning 8 sinf o'quvchilarining matematik va tabiiy fanlar bo'yicha o'zlashtirish darajasini nafaqat bilim, ko'nikma va malakalarini, balki shu fanlarni o'zlashtirishga bo'lgan qiziqishi va motivatsiyasining ortish darajasini tadqiq etadi. Tadqiqotning e'tiborga molik tomoni o'quvchilarning 4 yil davomida 4 sinf o'quvchilari 8 sinfda tahsil olayotgan davrida takroran tadqiq etilishidan olingan natijalar o'quvchilarning keyingi yuqori sinflarda o'qishni muvaffaqiyatli davom ettirishi prognoz qilinadi.

Xalqaro baholash dasturi PISA - Programme for International Student Assesment – Respublikamizning 15 yoshli o'quvchilarining o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholashga mo'ljallangan bo'lib, u o'quvchilarning matematik va tabiiy fanlardan o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarini hayoti va muammoli vaziyatlarda muvaffaqiyatli qo'llash darajasini tadqiq etishni nazarda tutadi. Quyida PISA - Programme for International Student Assesment Xalqaro baholash dasturi mezonlari berilmoqda. Mazkur mezon o'quvchilarning tabiiy-ilmiy savodxonligini 6 darajada 1000 balli tizimda baholanadi.

Mazkur mezonlar B. Blum o'quv maqsadlari taksonomiyasiga mos ishlab chiqildi.

**PISA - PROGRAMME FOR INTERNATIONAL STUDENT
ASSESSMENT MEZONLARI BOSQICHLARI**

Daraja	Daraja-nning pastki chegara-si	Ushbu darajani egallagan o'quvchilar tomonidan tabiiy-ilmiy savodxonlik bo'yicha namoyish etadigan bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalar
1 daraja	335	<p>1 darajani egallagan o'quvchilar:</p> <p>Oddiy ilmiy hodisalarini tushuntirishda kundalik mazmunga ega tayanch bilimlardan foydalanishi;</p> <p>Ikkitadan ortiq bo'limgan ob'ektlar berilgan ko'rsatmaga muvofiq tadqiqot elementlarini o'tkazishi;</p> <p>Tasviriy va vizual ma'lumotlardagi past darajadagi ko'nikma talab etiladigan oddiy sabab oqibat yoki korrelyatsion bog'lanishlarni aniqlashi, sharhlashi;</p> <p>Tanish vaziyatdagi shaxsiy, mahalliy va global kontekstga taaluqli bo'lgan muammoni ilmiy tushuntirish uchun berilgan javoblarni tanlashi kerak.</p>

**BLUM TAKSONOMIYASINING BILISH O'QUV MAQSADIGA
ERISHGANLIKNI ANIQLAYDI.**

Daraja	Daraja-nning pastki chegara-si	Ushbu darajani egallagan o'quvchilar tomonidan tabiiy-ilmiy savodxonlik bo'yicha namoyish etadigan bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalar
--------	--------------------------------------	-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------



2 daraja	410	<p>2 darajani egallagan o'quvchilar:</p> <p>Kundalik mazmundagi va tayanch usullarga tayangan holda ma'lumotlarni ilmiy tushuntirish va sharhlash, oddiy tajriba orqali hal etiladigan muammolarni bilishi;</p> <p>Oddiy ma'lumotlar to'plamidan tabiiy ilmiy bilimlariga tayangan holda adekvat holdagi xulosa chiqara olishi;</p> <p>Tabiiy ilmiy metodlar vositasida o'r ganiladigan savollarni tanish orqali tayanch bilishga doir ko'nikmalarini namoyish qilishi kerak.</p>
BLUM TAKSONOMIYASINING BILISH VA TUSHUNISH O'QUV MAQSADIGA ERISHGANLIKNI ANIQLAYDI.		
Daraja	Daraja-ning pastki chegara-si	<p>Ushbu darajani egallagan o'quvchilar tomonidan tabiiy-ilmiy savodxonlik bo'yicha namoyish etadigan bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalar</p>
3 daraja		
3 daraja	484	<p>3darajani egallagan o'quvchilar:</p> <p>Tanish vaziyatdagi ob'ektlarning tuzilishini tushuntirish va aniqlashda uncha murakkab bo'lmagan bilimlarga tayanishi;</p> <p>Kalit so'zlarda foydalangan holda yaxshi tanish bo'lmagan yoki birmuncha murakkab vaziyatlarni tushuntirishi;</p> <p>Bilimlarning ba'zi elementlariga tayangan holda muayyan masalalarni qamrab olgan oddiy tajribalarni o'tkazishi;</p> <p>Ilmiy va ilmiy asoslanmagan savollar o'rtasidagi farqni aniqlay olishi va ilmiy xulosalash uchun dalillar keltirishi kerak.</p>
BLUM TAKSONOMIYASINING BILISH, TUSHUNISH VA AMALDA QO'LLASH O'QUV MAQSADIGA ERISHGANLIKNI ANIQLAYDI.		

Daraja	Daraja-ning pastki chegara-si	Ushbu darajani egallagan o'quvchilar tomonidan tabiiy-ilmiy savodxonlik bo'yicha namoyish etadigan bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalar
4 daraja	559	<p>4 darajani egallagan o'quvchilar:</p> <p>Yetarli darajadagi murakkab yoki yangi vaziyat va jarayonlarni tushuntirish uchun yetarli darajadagi murakkab yoki abstrakt bilimlardan foydalanishi;</p> <p>Ikki va undan ortiq mustaqil ob'ektlar ustida muayyan masalalarni qamrab olgan tajribalarni o'tkazishi, bilish metodlari va usullariga tayangan holda tajriba o'tkazish rejasini asoslashi;</p> <p>Uncha murakkab bo'limgan yoki tanish bo'lgan ma'lumotlarni sharhlashi, ma'lumotlarni tahlil qilish natijasida kelib chiqadigan xulosa yasay olishi va o'z xulosalarini asoslashi lozim.</p>
BLUM TAKSONOMIYASINING BILISH, TUSHUNISH, AMALDA QO'LLASH VA TAHLIL O'QUV MAQSADIGA ERISHGANLIKNI ANIQLAYDI.		
Daraja	Daraja-ning pastki chegara-si	Ushbu darajani egallagan o'quvchilar tomonidan tabiiy-ilmiy savodxonlik bo'yicha namoyish etadigan bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalar



5 daraja	633	<p>5 darajani egallagan o'quvchilar:</p> <p>Mazmunida bir nechta sabab-oqibat bog'lanishlar jamlangan o'quvchilarga notanish, og'irlik darajasi murakkab bo'lgan, majmuali, hodisa, voqeа va jarayonlar to'g'risidagi topshiriqni tabiiy-ilmiy g'oya, qonuniyat va tushunchalardan foydalanib abstrakt holda tushuntirishi;</p> <p>Eksperiment o'tkazishning turli usullarini sharh va baholash uchun ilmiy bilishga oid murakkab bilimlarni qo'llashi va o'z tanlovini asoslashi, axborotni sharhlash va farazlarni shakllantirishda nazariy bilimlarni qo'llashi;</p> <p>Berilgan topshiriq yuzasidan tadqiqot o'tkazishning turli usullarini ilmiy nuqtai nazardan baholash va faktlarni sharhlashda ma'lumotlarning cheklanganligini aniqlash, axborotdagi ilmiy dalillarning xato va noaniqliklarni aniqlashi lozim.</p>
----------	-----	-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------

BLUM TAKSONOMIYASINING BILISH, TUSHUNISH, AMALDA QO'LLASH, TAHLIL VA SINTEZ O'QUV MAQSADIGA ERISHGANLIKNI ANIQLAYDI.

Daraja	Daraja-ning pastki chegara-si	Ushbu darajani egallagan o'quvchilar tomonidan tabiiy-ilmiy savodxonlik bo'yicha namoyish etadigan bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalar
--------	-------------------------------	-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------

<p>6 darja</p> <p>708-1000 ball</p>	<p>6 darjani egallagan o'quvchilar:</p> <p>Mazmunan nisbiy bo'lgan yangi hodisa, voqeа va jarayonlar to'g'risida gipotezani shakllantirish yoki bashoratlashda fizika, biologiya, geografiya va astronomiya sohalarida o'zaro aloqador bo'lgan tabiiy-ilmiy g'oya, qonuniyat va tushunchalardan mazmuni, protsedura va ilmiy bilish metodlariga asoslanishi;</p> <p>Faktlar va ilmiy dalillarni sharhlashda mavzuga doir va doir bo'lmanan axborotlarni farqlay olishi, maktab dasturidan tashqari o'zlashtirgan bilimlarini mustaqil qo'llay olishi va mazkur bilimlarga tayanishi;</p> <p>Ilmiy faktlar va nazariyalarga asoslangan fikrlarni boshqa manbalarga asoslangan fikrlardan ajrata olishi;</p> <p>Murakkab eksperiment va tadqiqotlarni o'tkazish, kompyuterda modellashtirilgan tizimning muqobil variantini taklif etgan holda baholashi va o'z tanlovini asoslashi muqobil lozim.</p>
-------------------------------------	------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------

BLUM TAKSONOMIYASINING BILISH, TUSHUNISH, AMALDA QO'LLASH, TAHLIL, SINTEZ VA XULOSA O'QUV MAQSADIGA ERISHGANLIKNI ANIQLAYDI.

Tadqiqotning predmeti o'quvchilarda umumiyligi, tayanch va fanga doir xususiy kompetensiyalarning shakllanganlik darajasini fanlar integratsiyasi va hayotda uchraydigan muammoli vaziyatlarni hal etishga qaratilgan megakompetensiyaga asoslangan o'quv va test topshiriqlari vositasida aniqlash sanaladi.

Tadqiqotning asosiy ob'ekti esa, dunyodagi turli mamlakatlarning ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiya jarayoni umumiy xususiyatga egaligi e'tiborga olingan holda o'smir yoshdagagi o'quvchilarning ijtimoiy muhitga moslashishi, turli manbalar vositasida o'quvchilarning mustaqil bilim olish faoliyatining rivojlanganlik darajasini o'rghanishni nazarda tutadi.

TALIS - Teaching and Learning International Survey – nimalarni tadqiq etadi?

TALIS – turli mamlakatlarda tashkil etiladigan pedagogik jarayonlarning xalqaro qiyosiy tahliliga asoslangan tadqiqot bo'lib, Xalqaro iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti tomonidan ta'sis etilgan. Mazkur dastur quyidagi vazifalarni hal etishni nazarda tutadi:

- Maktabda pedagogik faoliyat yuritayotgan o'qituvchilar va ta'limga muassasalarini rahbarlarini ta'lim-tarbiya jarayonini tahlil etishga yo'naltirish, ta'limga siyosatining asosiy aspektlari bo'yicha ta'limga sifati ko'rsatkichlarini aniqlash mezonlarini ishlab chiqish;
- Xalqaro konsorsium, o'qituvchilar assosiatsiyasi, mamlakatlararo hamkorlikni yo'lga qo'yish;
- Anketa savollariga yozilgan javoblarni tahlil etish, ta'limga sifati ko'rsatkichlariga bevosita ta'sir ko'rsatadigan omillarni aniqlash, foydalanimayotgan resurslarni belgilash, ular yuzasidan taqdimot, ko'rsatma va hisobotlar tayyorlash;
- Xalqaro va milliy ta'limga tizimini rivojlantirish yuzasidan axborot tanqisligining oldini olish, ma'lumotlar bazasi va dasturiy ta'minotini tayyorlash, ta'limga tizimi amaliyotida o'qitish sharoitlari va sifati, o'qitish jarayoni samaradorligiga o'qituvchining kasbiy pedagogik tayyorgarlik darajasining ta'siri yuzasidan mezonlar ishlab chiqish.

Mazkur halqaro baholash dasturlari Respublikamiz ta'limga tizimini mazmunan yangilash, innovatsion ta'limga muhitini yaratish, ta'limga sifatini orttirishni talab etadi va quyidagi vazifalarni amalga oshirish zaruratini keltirib chiqaradi:

- Pedagogik kadr tayyorlaydigan oliy ta'limga muassasalarining bakalavriat va magistratura bosqichi o'quv rejasiga xalqaro va milliy ta'limga tizimini rivojlantirish paradigmalari bilan tanishtirish, o'qitishni xalqaro baholash dasturlari talablarini amalga oshirishga zamin tayyorlaydigan o'quv kurslarini kiritish;
- Oliy ta'limga muassasalarining bakalavriat va magistratura bosqichi talabalari, ilmiy izlanuvchilarni xalq ta'limi tizimida ta'limga sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarning muammolari yuzasidan ilmiy izlanishlarga maqsadli jalb etish;
- Xalqaro baholash dasturlari PIRLS TIMSS va PISA talablari asosida o'qish, o'zbek tili va adabiyoti, matematika va tabiiy o'quv fanlari bo'yicha o'quv va nostandard adaptiv topshiriqlarini shakllantirish, o'quvchilarning mustaqil ish daftarlarini bosma shaklda va modulli o'qitish tizimiga asoslangan elektron variantini tayyorlash axborot texnologiyalari vositasida baholash mexanizmini ishlab chiqish;
- Xalqaro baholash tizimi TALIS (Teaching and Learning International Survey) talablari asosida pedagogik kadrlarning kasbiy kompetentligini aniqlash uchun kvalimetrik diagnostika anketa so'rovnomasini tayyorlash va on-lain tizimi vositasida aniqlash;
- Pedagogik kadrlar tomonidan o'zining kasbiy kompetentligini mustaqil nazorat qilish va o'z-o'zini baholash imkonini beradigan kvalimetrik diagnostika topshiriqlaridan iborat metodik va elektron ta'limga resurslarini ishlab chiqish zarur;

Uzluksiz ta'lismi oldiga qo'yilgan muhim vazifalardan biri ta'limgardagi innovatsion muhitni yaratish sanaladi.

Avvalo, innovatsiya so'zining ma'nosini tahlil qilish lozim.

Innovatsiya-inglizcha so'zdan olingan bo'lib, in-kiritish, novatsiya yangilik degan ma'noni beradi.

O'qitishda innovatsion muhitni yaratish o'qituvchidan ko'p qirrali izlanish va amaliy faoliyatni talab etadi.

Respublikamizda uzluksiz ta'limgardagi joriy etish jarayonida ta'limgardagi mazmuni yangilandi, o'quv dasturlari va o'quv fanlari bo'yicha DTS modernizatsiyalandi. Ushbu jarayon ta'limgardagi jarayonining boshqa tarkibiy qismlari: o'qitish metodlari, vositalari va shakllarini innovatsiya kiritish orqali modernizatsiyashni talab etmoqda.

Zamon bilan hamnafas pedagogik faoliyat yuritayotgan moderator o'qituvchilar yuqorida qayd etilgan talablarga monand holda o'qitishda interfaol metodlar, pedagogik va axborot-kommunikatsion texnologiyalardan foydalanish bo'yicha dastlabki tajribalarni egallamoqda.

Talabalarning *Blum taksonomiyasi bo'yicha* bilish o'quv maqsadiga erishganligini nazorat qilishda ular tomonidan muayyan mavzu bo'yicha ma'lumot va axborotlarni o'zlashtirganlik darajasini aniqlash maqsadga muvofiq. Buning uchun talaba mavzu bo'yicha ob'ektlarni aniqlashi, ularga ta'rif berishi, ma'lumotlarni qayta ishlashlari, o'z fikrini bayon etishi, muayyan jarayon, ob'ekt yoki voqeanning mohiyatini tushuntirishi, mazkur jarayon, ob'ekt yoki voqeanning o'ziga xos xususiyatlarini ajratib ko'rsatishi kerak bo'ladi.

Ushbu fikrlarni standart o'quv va test topshirig'i bilan amalga oshirib bo'lmaydi, bilish o'quv maqsadiga erishilganlik darajasini aniqlashda quyidagi **rasmi va ko'p javobli nostonstandart testlardan foydalanish tavsiya etiladi.**

Nazorat savollari.

1. Kredit-modul tizimidan foydalanilganda Xalqaro baholash dasturlarini amalga oshirish yo'llari yuzasidan tahliliy fikr yuriting.

2. PIRLS - Progress in International Reading and Literacy Study - boshlang'ich 4-sinf o'quvchilarining matnni o'qish va tushunish darajasini baholashga mo'ljallangan dasturning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlang.

3. TIMSS - The Trends in International Mathematics and Science Study-matematika va tabiiy fanlarni o'zlashtirish sifatini Xalqaro monitoringlash va baholashga mo'ljallangan dasturning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlang.

4. PISA - Programme for International Student Assessment Xalqaro baholash dasturining o'ziga xos xususiyatlarini aniqlang.

5. TALIS - Teaching and Learning International Survey – Xalqaro baholash dasturining o'ziga xos xususiyatlarini aniqlang.

5-ma'ruza: Xalqaro baholash dasturlari talablarini ma'ruza, laboratoriya, amaliy va seminar mashg'ulotlarning mazmunan va identiv o'quv maqsadlariga muvofiq uzviyilagini ta'minlash.

Reja:

- 1. Biologiya ma'ruza mashg'ulotida Xalqaro baholash dasturlari talablarini amalga oshirish yo'llari.**
- 2. Biologiya laboratoriya mashg'ulotida Xalqaro baholash dasturlari talablarini amalga oshirish yo'llari.**
- 3. Biologiya amaliy mashg'ulotida Xalqaro baholash dasturlari talablarini amalga oshirish yo'llari.**
- 4. Mazkur mashg'ulotlarida identiv o'quv maqsadlariga muvofiq uzviyilagini ta'minlash.**

Kredit-modul tizimi qo'llanilgan holda biologik fanlarni o'qitishda foydalilaniladigan ma'ruzaning mazmuni, mohiyati va funksiyalarini aniqlash muhim sanaladi.

Ma'ruza – u yoki bu ilmiy masalani to'g'ri, mantiqiy izchillikda va aniq izohlab berish sanaladi.

Ma'ruza o'qituvchi shaxsining barcha boyligi: ongi, hissiyoti, irodasi, tuyg'usi, e'tiqodi orqali talabalar ichki dunyosi bilan muloqotda bo'lishining eng samarali, jonli shaklidir. Bunda o'qitishning yo'naltiruv, axborot berish, metodologik va tarbiyalash funksiyalarini ro'yobga chiqarishga yordam beradi.

Ma'ruzaning yo'naltiruvchi funksiyasida talabalarning diqqati o'quv materialining asosiy qoidalari, uni o'rganishdagi hamda bo'lg'usi kasbiy faoliyatidagi roli va ahamiyati, uni o'zlashtirish metodlariga jalg qilinadi.

Ma'ruzaning axborot berish funksiyasi asosiy ilmiy faktlar, qoidalari, xulosalarning mohiyatini ochishda o'qituvchi tomonidan amalga oshiriladi.

Ma'ruzaning metodologik funksiyasini qo'llash tadqiqot metodlarini qiyoslash, chog'ishtirishga, ilmiy izlanishning tamoyillari va yondashuvlarini aniqlashga yordam beradi.

Ma'ruzaning tarbiyaviy funksiyasi ma'ruza jarayonida o'quv materialiga hissiy baho berish munosabatlarini uyg'otish, qiziqishlarini o'stirish, mantiqiy fikrlash va isbotlashni oydinlashtirish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Biologik fanlarni o'qitishda foydalilaniladigan ma'ruzada o'rganilishi belgilangan mavzuning o'quv dasturida tutgan o'rni, maqsadi, vazifalariga ko'ra: kirish, muammoli, mavzuli, umumlashtiruvchi ma'ruzalarga bo'linadi

Shunga ko'ra unda foydalaniladigan pedagogik texnologiyalar turlicha bo'ladi.

An'anaviy texnologiyaga asoslangan ma'ruza hozirgi paytgacha qisqa vaqtida katta hajmdagi ilmiy-nazariy ma'lumotlarni keng auditoriyadagi ko'p sonli talabalarga yetkazish imkoniyatini mavjudligi bilan o'z qimmatini yo'qotmagan.

Mazkur mashg'ulot turining asosiy kamchiligi talabalarga axborotning tayyor holida yetkazilishi, talabalarning bilish faoliyatini passiv tinglovchi sifatida tashkil etilishi sanaladi.

Lekin, oliv o'quv yurtlarida o'qitiladigan Biologik fanlarni o'qitishda ma'ruza juda qo'l keladi, faqat yuqorida qayd etilgan kamchiliklarga barham berish uchun ma'ruzaning borishiga muayyan o'zgartirishlar kiritish tavsiya etiladi.

Mazkur o'zgartirish ma'ruzada talabalarning bilish va o'qituvchining pedagogik faoliyatini maqsadga muvofiq tashkil etilishi bilan bog'liq.

An'anaviy ta'limga asoslangan ma'ruza bilan pedagogik texnologiyalarga asoslangan ma'ruzaning borishi, talabalarning bilish va o'qituvchining pedagogik faoliyatini qiyosiy tavsiflashda ushbu o'zgartirishlarni quyidagicha tasavvur qilish mumkin.

Jadvaldan ko'rinish turibdiki, ma'ruzada hamkorlikda o'qitish texnologiyasining kichik guruhlarda o'qitish metodidan foydalanilganda mashg'ulotning muayyan qismi ya'ni, qiziqarli analogiyalar, faktlardan foydalanish, fanlararo bog'lanishni, o'rganiladigan mavzu mazmunining kelgusi kasbiy faoliyatda tutgan o'rni ko'rsatish orqali talabalarning o'quv motivlarini rivojlantirish, yangi mavzuni o'rganishda mavzu mazmunining muayyan qismi reja asosida tayyor axborot shaklida yetkazish va talabalarning bilish faoliyatini kichik guruhlarda ishslash metodi asosida tashkil etish, mavzu yuzasidan yakun yasashda kichik guruhlarning ishtirokini ta'minlash orqali o'zgartirishlar kiritish nazarda tutildi.

Ushbu texnologiyaning mazkur metodidan talabalar uchun mavzuning muayyan qismini mustaqil o'zlashtirishlari, ularning kichik guruhlarda ishlashi orqali hamkorlikda kirishish, ular o'rtasida o'zaro muloqotni amalga oshirish, bilimlarni ongli o'zlashtirish va pedagogik texnologiya talablari asosida muayyan tajribalarga ega bo'lishlari nazarda tutilgan holda foydalaniladi.

O'rganiladigan mavzuning mazmunida ilmiy va faktik materiallarning salmog'ini e'tiborga olingan holda talabalarning kichik guruhlarda ishslash faoliyatini rejorashtirish zarur.

Agar mashg'ulot mazmunida faktik materiallar umumiy mazmunning 25% tashkil etsa, talabalarning kichik guruhlarda ishslash faoliyati 1 marta, teng yarmini tashkil etgan holda 2 marta foydalanish va bunda ma'ruzaning borishiga muayyan o'zgartirishlar kiritilgan holda, mavzu mazmunidagi tushuncha va atamalar, ilmiy-nazariy masalalarni chuqur o'rganish maqsadga muvofiq.

Ma'ruzani yuqoridagi tavsiyaga muvofiq tashkil etilishi talabalar tomonidan bilimlarni mustaqil o'zlashtirish, mavzu mazmunidagi asosiy g'oyani ajratish, o'z fikrini bayon etish, mustaqil fikr yuritish ko'nikmalarini tarkib toptirish imkonini beradi.

Ma'ruzada talabalarning kichik guruhlarda mustaqil ishlarining tashkil etilishi ularning bilish faoliyatini tashkil etishda muayyan o'zgartirishlar kiritilishiga zamin tayyorlaydi, shuningdek, talabalarни ob'ekt maqomidan ajralib, sub'ekt maqomiga o'tishga zamin tayyorlanadi.

Yuqoridagi fikrlardan ko'rinish turibdiki, o'qituvchi o'rganiladigan mavzu mazmunidan kelib chiqqan holda, talabalarning kichik guruhlarda ishslash faoliyatini tashkil etish lozim bo'lgan o'quv topshiriqlarini tuzishi va undan o'z o'rnida samarali foydalanish yo'llarini belgilashi zarur.

**AN'ANAVIY TA'LIMGA ASOSLANGAN MA'RUZA BILAN
HAMKORLIKDA O'QITISH TEXNOLOGIYASINI KICHIK
GURUHLARDA ISHLASH METODIGA ASOSLANGAN
MA'RUZANING QIYOSIY TAVSIFI**

Pedagogik texnologiya	Tashkiliy qism	Talabalarning o'quv motivlarini rivojlan-tirish	Yangi mavzuni o'rganish	Yakun yasash va xulosalash	Mustaqil ish topshiriq'ini berish
An'anavy ta'lim	Davomatni aniqlash, avvalgi mavzuni esga tushirish	Mavzuning alaniyatlari tushuntirish, fanlararo bog'lanish	Mavzu mazmuni reja asosida tayyor axborot shaklida yetkaziladi, talabalar faoliyati passiv tinglovochi holatida tashkil etiladi	O'qituvchi tononidan amalga oshiriladi.	Ko'rsatma shaklida
Hankorlikda o'qitish (kichik guruhlarda ishlash) Mavzu mazmunning 25% i	Davomatni aniqlash, avvalgi mavzuni esga tushirish, ma'ruzaning maqsadi va kichik guruhlar tuzilgan topshiriqlarining maqsadi va bajarish tartibini tushintirish imkonи bo'lganda foydalaniladi	Qiziqarli analogiyalar, faktlar, fanlararo bog'lanish, o'rganiladigan mavzu mazmunning kelgusi faoliyatda o'mi	Mavzu mazmuning muayyan qismi tashkil quruhlar uchun berilgan topshiriq asosida o'rganiladi. Talabalarning bilish faoliyati kichik guruhlarda ishlash metodi asosida tashkil etiladi.	Kichik ishtirolida o'qituvchi tononidan amalga oshiriladi.	Ko'rsatma shaklida
Hankorlikda o'qitish (kichik guruhlarda ishlash) Mavzu mazmunning 50% i	Davomatni aniqlash, avvalgi mavzuni esga tushirish, ma'ruzaning maqsadi va kichik guruhlar tuzilgan topshiriqlarining maqsadi va bajarish tartibini tushintirish imkonи bo'lganda foydalaniladi	Qiziqarli analogiyalar, faktlar, fanlararo bog'lanish, o'rganiladigan mavzu mazmunning kelgusi faoliyatda o'mi	Mavzu mazmuning muayyan qismi tashkil quruhlar uchun berilgan topshiriq asosida o'rganiladi.	Kichik guruhlarning erishgan yutuqlarini etirof etish Yakun yasashda kichik guruhlarning ishtirolida o'qituvchi tononidan amalga oshiriladi.	Mustaqil ish topshiriqlarini tavofutlab berish

Biologik fanlarni o'qitish jarayonida tashkil etiladigan ma'ruzada modulli ta'lism texnologiyasini qo'llash muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur texnologiyadan foydalanish uchun o'qituvchi quyidagi tayyorgarlik ishlarini olib borgan bo'lishi shart:

1. O'rganiladigan mavzuning ta'limiylar, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlari asosida talabalarga qo'yiladigan o'quv maqsadlarini belgilash;
2. O'rganiladigan mavzuni mantiqiy tugallangan fikrli modullarga ajratish, har bir modulning xususiy maqsadlarini aniqlash va ularning ierxargik darajasini tuzish;
3. Talabalarining har bir modulning xususiy maqsadlariga erishish yo'llarini nazarda tutgan holda o'quv topshiriqlarini tuzish va unga ajratilgan vaqt me'yorlarini belgilash;
4. Modullarning ketma-ketligi asosida modullarning xususiy maqsadlari, o'quv topshiriqlarni yaxlit tarzda o'zida mujassamlashtirgan modul dasturini loyihalash;
5. Ma'ruza matni va modul dasturini mashg'ulotdan bir hafta avval talabalarga tarqatish;
6. Modul dasturining uch xil turi bo'lishini nazarda tutgan holda talabalarining bilish faoliyatini tashkil etish shaklini aniqlash;

Izoh:

- Agar o'rganiladigan mavzu mazmuni faktik materiallardan iborat bo'lib, talabalar tomonidan o'zlashtirishida qiyinchilik yuzaga kelmasa, u holda modul dasturining individual ishlash modul dasturidan foydalaniladi;
- Agar o'rganiladigan mavzu mazmuni faktik materiallar bilan bir qatorda ilmiy-nazariy masalalardan iborat bo'lib, talabalar tomonidan o'zlashtirishida qiyinchilikni yuzaga keltirgan holda modul dasturining ikki talaba hamkorlikda ishlashiga mo'ljallangan modul dasturidan foydalaniladi;
- Agar o'rganiladigan mavzu mazmuni ilmiy-nazariy masalalar, tushunchalar va atamalarni o'zida mujassamlashtirgan bo'lsa, talabalar tomonidan o'zlashtirishida qiyinchilikni yuzaga kelishi tabiiy bo'lgan holda modul dasturining talabalarining kichik guruhlarda hamkorlikda ishlashiga mo'ljallangan modul dasturidan foydalaniladi;

Hozirgi kunda oliy ta'lim muassasalariga uch xil tayyorgarlikka ega talabalar qabul qilinayotganligi, ularda o'quv mehnati va amaliy ko'nikmalarning egallaganlik darjasini turlicha bo'lganligini inobatga olib modulli ta'lism texnologiyasidan foydalanishda modul dasturining talabalarining kichik

guruhlarda hamkorlikda ishlashiga mo‘ljallangan modul dasturi yuqori samara bermoqda.

Mazkur modul dasturi asosida ishlaganda talabalarning kichik guruhlari o‘rtasida raqobat, guruh sardori guruh a’zolari bilan qo‘sishimcha ishslash, mashg‘ulotgacha modul dasturidan o‘rin olgan savol-topshiriqlar yuzasidan tayyorgarlik ko‘rish imkoniyati vujudga keladi.

O‘quv topshiriqlarining jamoa orqali qo‘yilishi, guruh a’zolarining guruh muvaffaqiyatiga hissa qo‘sishga intilishi ta’lim-tarbiya jarayonining harakatlantiruvchi kuchi sanaladi.

Guruhning erishgan natijalarining tahlil va e’tirof etilishi talabalar o‘quv motivlarini faollashtiradigan omil sanaladi.

Talabalarning egallagan bilim, ko‘nikma va malakalarini o‘z-o‘zini, o‘zaro va o‘qituvchi tomonidan nazorat qilinishi ta’lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Modulli ta’lim texnologiyasi o‘qitish jarayonida yangi mavzuni o‘rganishda xususiy metodik darajada qo‘llaniladi va lokal darajada qo‘llaniladigan aqliy hujum, insert, klaster, bumerang, atamalar zanjiri, blis, o‘yin mashqlar bilan uyg‘unlashtiriladi.

Bitta mashg‘ulotda yangi mavzuni o‘rganish jarayonida pedagogik texnologiyalardan xususiy metodik darajada va mashg‘ulotning talabalarning o‘quv motivlarini rivojlantirish, yangi va o‘tgan mavzu bo‘yicha talabalarning o‘zlashtirgan bilimlarini aniqlashda lokal darajada qo‘llaniladigan aqliy hujum, insert, klaster, bumerang, atamalar zanjiri, blis, o‘yin mashqlar bilan uyg‘unlashtirish o‘qituvchidan muayyan metodik tayyorgarlik va mashg‘ulotning didaktik maqsadlarini e’tiborga olgan holda o‘quv topshiriqlarini tuzish va o‘z o‘rnida samarali foydalanishni taqoza etadi.

Shu sababli, ushbu texnologiyalarni uyg‘unlashtirish, an’anaviy ta’limga asoslangan ma’ruza bilan modulli ta’lim va lokal darajadagi pedagogik texnologiyalardan foydalaniladigan ma’ruzaning borishi, talabalarning bilish va o‘qituvchining pedagogik faoliyatini qiyosiy tavsiflashda ushbu o‘zgartirishlarni quyidagicha tasavvur qilish mumkin.



**An'anaviy ta'limga asoslangan ma'ruza bilan modulli ta'lim
texnologiyasiga asoslangan ma'ruzaning qiyosiy tavsifi**

Pedagogik texnologiya	Tashkiliy qism	Talabalarning motivlarini rivojlanitirish	o'quv o'rganish	Yangi mavzuni o'rganish	Yakun xulosalash	yasash va	Mustaqil ish topshiringini berish
An'anaviy ta'lim	Davomatni aniqlash, avvalgi mavzuni esga tushinish	Mavzuning tushuntirish, bog'lanish	ahamiyatini fanlararo	Mavzu mazmuni reja asosida tayyor axborot shaklida yetkaziladi, talabalar faoliyatini passiv tinglovlchi holatida tashkil etiladi	O'qituvchi tomonidan amalga oshiriladi.	Ko'rsatma shaklida	Ko'rsatma shaklida
Modulli ta'lim texnologiyasi	Davomatni aniqlash, “Atamalar varag'i” dan foydalananish, tushuncha va atamalarning izohini anglash ma’ruzining maqsadi va guruhlar o’quv topshiriqlarining maqsadi va bajarish tartibini tushintirish	Qiziqarli faktlar, bog'lanish, o'ganiladigan mavzu mazmunning kelgusi kasbiy faoliyatda tutgan o'mi “Aqliy hujum” o'tkazish	analogiyalar, fanlararo, mavzunu esga tushinish	Reja bo'yicha 1-modul asosida shaklida yetkaziladi 2-modul kichik guruhlarda ishlash uchun berilgan topshiriq asosida o'ganiladi. Mavzu mazmunning 2-va 3-modullar tayyor axborot shaklida yetkaziladi	Kichik guruhlar o'rtasida munozaralarini o'tkazish Kichik erishgan e'tirof etish Mavzuni visitasida yakunlash	guruhlar guruhlarning yutuqlarini e'tirof etish Klaster umumiy	Mustaqil ish topshiriqlarini tavofutlab berish
Modulli ta'lim texnologiyasi	Davomatni aniqlash, “Atamalar varag'i” dan foydalananish, tushuncha va atamalarning izohini anglash ma’ruzining maqsadi va guruhlar o’quv topshiriqlarining maqsadi va bajarish tartibini tushintirish	Qiziqarli faktlar, bog'lanish, o'ganiladigan mavzu mazmunning kelgusi kasbiy faoliyatda tutgan o'mi “Aqliy hujum” o'tkazish	analogiyalar, fanlararo, mavzunu esga tushinish	Reja bo'yicha 1-modul asosida shaklida yetkaziladi 2-modul va 3-modullar kichik guruhlarda ishlash uchun berilgan topshiriq asosida o'ganiladi. Mavzu mazmunning 4-modullar tayyor axborot shaklida yetkaziladi	Kichik o'rtasida munozaralarini o'tkazish Kichik erishgan e'tirof etish Mavzuni visitasida yakunlash	guruhlar guruhlarning yutuqlarini e'tirof etish Klaster va diagrammasi umumiy	Mustaqil ish topshiriqlarini tavofutlab berish
Modulli ta'lim texnologiyasi	Davomatni aniqlash, “Atamalar varag'i” dan foydalananish, tushuncha va atamalarning izohini anglash ma’ruzining maqsadi va guruhlar o’quv topshiriqlarining maqsadi va bajarish tartibini tushintirish	Qiziqarli faktlar, bog'lanish, o'ganiladigan mavzu mazmunning kelgusi kasbiy faoliyatda tutgan o'mi “Aqliy hujum” o'tkazish	analogiyalar, fanlararo, mavzunu esga tushinish	Reja bo'yicha 1-modul asosida shaklida yetkaziladi 2-modul, 3-modul va 4-modullar kichik guruhlarda ishlash uchun berilgan topshiriq asosida o'ganiladi.	Kichik o'rtasida munozaralarini o'tkazish Kichik erishgan e'tirof etish Mavzuni visitasida yakunlash	guruhlar guruhlarning yutuqlarini e'tirof etish Klaster va diagrammasi umumiy	Mustaqil ish topshiriqlarini tavofutlab berish

Modulli ta'lim texnologiyasi qo'llanilgan mashg'ulotning o'ziga xos xususiyati

Bosqichlar	1-bosqich Tashkiliy qism.	2-bosqich Yangi o'rGANISH	3-bosqich Modul dasturi ishlash	4-bosqich Modul dasturini yakunlash.	5-bosqich Nazorat qilish va baholash.	6-bosqich Erishilgan natijani tahlii qilish
O'QITUVCHINI NG PEDAGO- GIK FAOLIYATI	Talabalarning musta- qil o'quv-bilish fao- liyatini tashkil etadi. Modul dasturining di- daktik maqsadi va o'quv topshiriqlari bilan tanishtiradi.	Talabalarning mo- dul dasturi yordamida musta- qil ishlarini tashkil etadi. Muammoli vaziyatlarni vujudga kelтирди, tegishli hollarda yordam uyushtiradi.	Modul dashuridan o'rin olgan har bir modul o'quv bahsi, savol-javob, munozara, aqliy hujum o'tkazadi.	Talabalarning erishgan yutuqlarini e'tirof etish Mavzuni o'quv bahsi, savol-javob, munozara, aqliy hujum o'tkazadi.	Mashg'ulot yuzasidan test topshi- riqlari yordamida o'qituvchi nazoratini amalga oshirish. yakunlash.	Talabalar erishgan natijasiga muvofiq holda ularga mus- taqil va ijoi- diy topshi- riq tavsiya etish.
TALABANING O'QUV-BILISH FAOLIYATI	Modul dasturining di- daktik maqsadi, mo- dullar, ularning xusu- ciy didaktik maqsadla- ri, mashg'ulot davo- bajariladigan o'quv topshiriqlari, topshiriqlar yuzasidan berilgan ko'rsatma- larni anglaydi	Modul dasturi asosida o'z o'quv bilish faoliyatini tashkil O'quv materialini mustaqil o'zlash- tiradi, o'quv top- shiriqlarini baja- radi, savollarga javob topadi.	Modul dasturi vaziyatlardan faoliyatini etadi. O'quv materialini mustaqil o'zlash- tiradi, o'quv top- shiriqlarini baja- radi, savollarga javob topadi.	Muammoli vaziyatlardan chiqishning optimal vari- antlarini tak- lif etadi. O'quv bahsi, munozara va aqliy hujum- da etadi.	Modul dasturi- ning didaktik maqsadiga muvofiq o'z o'quv faoliya- tini qiladi. O'zini baholaydi.	Test topshi- riqlari aso- sida o'z bili- mini nazo- rat qiladi kamchilik- lar ni aniq- lash va barham berish

Jadval asosida keltirilgan fikrlardan ko'rinish turibdiki, biologik fanlardan tashkil etiladigan ma'ruza mashg'ulotlarida modulli ta'lim texnologiyasidan foydalanilganda talabalarning bilish faoliyatining faollashishi mazkur mashg'ulot samaradorligini orttirishga zamin tayyorlaydi.

Biologik fanlardan tashkil etiladigan ma'ruza mashg'ulotida talabalarni passiv tinglovchi holatidan faol fikrlashga o'rgatish, ta'lim-tarbiya jarayonining ob'ektidan to'laqonli sub'ektiga aylantirish imkoniyati vujudga keladi.

Ushbu jarayondan ko'zlangan maqsad talabalarni:

- O'z o'quv-bilish faoliyatini o'rganilayotgan mavzuning didaktik maqsadiga muvofiq tashkil etishga o'rgatish;
- Asosiy g'oyani ajratish, mantiqiy fikr yuritish, fikrini bayon etish va asoslash ko'nikmalarini rivojlantirish, muloqotga kirishishga erishish;
- Har bir shaxsning intellektual rivojlanishiga imkon yaratish va ular o'rta-sida hamkorlik, o'zaro yordam uyushtirish;
- O'z o'quv faoliyatini tanqidiy tahlil qilish va taqqoslash, o'z-o'zini nazorat va baholashga o'rgatish;
- O'z o'quv faoliyatidagi kamchiliklarga barham berish yo'llarini aniqlash va o'z ustida ishslash;
- Talabaning ilmiy dunyoqarash, tafakkurni kengaytirish, kasbiy tayyorgarlik darajasini orttirish sanaladi.

Ma'ruza mashg'ulotida yangi mavzuni o'rganish jarayonida xususiy metodik darajada qo'llanishi mumkin bo'lgan texnologiyalar jumlasiga didaktik o'yin texnologiyasi ham kiradi.

Didaktik o'yin texnologiyasi ma'ruza mashg'ulotlarida talabalarning bilish faoliyatini o'yin faoliyati bilan uyg'unlashtirishni talab etadi.

modulli ta'lim, muammoli ta'lim, hamkorlikda o'qitish, loyihalash texnologiyalari kiradi va mazkur pedagogik texnologiyalar talabalarning o'quv – bilish faoliyatining o'zgarishiga ya'ni, maqsadga muvofiq faollashishiga olib keladi.

Biologik fanlar o'qitishda ma'ruza bilan bir qatorda amaliy va seminar mashg'ulotlaridan foydalaniladi, ularning tasnifi o'zaro bog'langan va o'zaro shartlangan ikki faoliyatga tayanadi:

- o'quv jarayonini boshqarish va tashkil etish bo'yicha o'qituvchilarining pedagogik faoliyati;
- talabalarning o'quv va bilish faoliyati.

Oliy o'quv yurtlarida ta'lim-tarbiya jarayoni, xususan, amaliy va seminar mashg'ulotlardagi o'quv jarayonini boshqarish va tashkil etish bo'yicha

o'qituvchilarning pedagogik faoliyati ob'ekt-sub'ekt munosabatlari asosida talabalarning o'quv va bilish faoliyati ham shunga mos holda tashkil etilishi ma'lum bo'ldi.

Shuni qayd etish kerakki, ta'lim-tarbiya jarayonida ma'ruza bilan bir qatorda amaliy va seminar mashg'ulotlari ham ta'limi, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi, undovchi, uyushtiruvchi va nazorat kabi funksiyalarini bajaradi.

Amaliy va seminar mashg'ulotlarni an'anaviy tarzda tashkil etilganda mazkur mashg'ulotlarning funksiyalarini to'liq amalga oshirish imkoniyati vujudga kelmaydi.

Shu sababli amaliy va seminar mashg'ulotlarni talaba shaxsiga yo'naltirilgan texnologiyalar asosida tashkil etish, sub'ekt-sub'ekt munosabatlariga o'tkazish davr talabi sanaladi.

"Amaliy mashg'ulot" atamasi pedagogikaga oid adabiyotlarda ham keng, ham tor ma'noda izohlanadi. "Amaliy mashg'ulot" atamasi keng ma'noda mashq, seminar (ularning barcha turlari) va laboratoriya mashg'ulotlarini umumlashtiradi.

Tor ma'noda talabalarning o'zlashtirgan nazariy bilimlarini amaliyotga qo'llash, ko'nikmalarni malaka darajasi yetkazishda qo'llaniladi.

Amaliy mashg'ulotlarda talabalar o'qituvchining ko'rsatmasiga binoan amaliy ish topshiriqlarini yakka tartibda yoki kichik guruhlarda bajarishi orqali o'quv maqsadlariga erishadilar.

Ma'ruzadan farqli tomonlaridan biri o'quv jarayoni qatnashchilarining birgalikdagi harakatlarida o'ziga xos xarakterda bo'lishidir. Agar ma'ruzada ilmiy bilimlar asosi bayon qilinadigan bo'lsa, amaliy mashg'ulotlarda bilimlar chuqurlashtiriladi, kengaytiriladi va aniqlashtiriladi. Eng muhim, amaliy mashg'ulotlar talabalar bilimini mustahkamlash, amaliyotga qo'llash va nazorat qilishga ham xizmat qiladi.

Biologik fanlardan amaliy mashg'ulotlarini o'tkazishda quyidagi didaktik tamoyillarga amal qilinadi:

- amaliy mashg'ulotlar mazmunidagi topshiriqlarni rejalashtira olish va o'tkaza olish;
- amaliy mashg'ulotlardan ko'zlangan maqsadni aniq belgilab olish;
- fan va ishlab chiqarish integratsiyasini amalga oshirish, talabalarning fan bo'yicha o'zlashtirgan bilimlarini chuqurlashtirish, mustahkamlash orqali kasbiy tayyorgarligini orttirish;
- talabada ta'lim-tarbiya jarayonidan ko'zlangan natijani mustaqil ravishda qo'lga kiritish imkoniyatini ta'minlash;
- amaliy mashg'ulotlari nafaqat muayyan mavzu bo'yicha bilimlarni umumlashtirish, balki ta'lim-tarbiyaning uzviyligini ta'minlash zarur.

Seminar mashg'ulotlari quyidagi vazifalarni yechishga qaratilgan bo'ladi:

- ma'ruzada bayon qilingan nazariy qoidalarni mustahkamlash;
- fan bo'yicha bilimlarni kengaytirish va chuqurlashtirish;

- talabalarning ilmiy-tadqiqot, bilish qobiliyatlarini o'stirish;
- nazariy o'qitish jarayonida egallagan bilimlarining amaliyotda qo'llashi.

Pedagogika nazariyasi va amaliyotida seminar mashg'ulotlarining uch turi farqlanadi: seminar oldi mashg'uloti, seminar va maxsus seminar.

Seminar oldi mashg'ulotlari, asosan, talabalarni mustaqil ishning o'ziga xos xususiyatlari bilan tanishtirish maqsadida o'tkaziladi. Unda adabiyotlar, ma'lumotnoma-adabiyotlar va boshqa manbalar bilan ishslash usullari o'rgatiladi, talabalarni boshlang'ich shaklda ilmiy-tadqiqot ishlariga o'tishga hozirlaydi. Seminar oldi mashg'ulotlari seminar mashg'ulotlarining tayyorgarlik shakli hisoblanadi va odatda birinchi kurslarda o'tkaziladi.

Seminar oldi mashg'ulotlarida o'qituvchi yetakchilik qiladi, chunki talabalar muayyan ixtisoslik bo'yicha o'quv ishlariga kam e'tibor beradilar, shuning uchun ham yetarli darajada tashabbus ko'rsata olmaydilar.

Seminar mashg'ulotlarida seminar oldi mashg'ulotlariga nisbatan o'ta muhim vazifalar hal qilinadi. Masalan, ayrim seminarlar tematik bog'langan muayyan muntazam kursni chuqur o'rganishni maqsad qilib qo'yadi. Boshqalari esa biror mavzuni yoki kursning alohida va nihoyatda muhim va umumiyo bo'lgan mavzularini metodologik jihatdan ishlab chiqishga bag'ishlangan bo'ladi.

Maxsus seminarlar ma'ruza mavzulariga aloqador bo'lmaydi va biror fanning dasturi mazmuniga kirmaydi. Odatda fanning xususiy masalalarini chuqur o'rganish maqsadida ko'llaniladi.

Biologik fanlar o'qitishda seminar mashg'ulotlaridan foydalanish ta'limgarbiya jarayonining samaradorligini orttirishga xizmat qiladi.

Laboratoriya mashg'ulotlari. Laboratoriya mashg'ulotlarining asosiy tavsifi shundaki, unda talabalar mustaqil ravishda vazifa bajaradilar yoki eksperiment o'tkazadilar.

Ilmiy-texnik taraqqiyot sharoitida laboratoriya ishlari talabaga nazariy bilimlarni qo'llash mexanizmini chuqur va ko'rgazmali o'rganish imkonini beradi. Laboratoriya mashg'ulotlari talabada tadqiqot o'tkazish ko'nikmalarini shakllantiradi, fan va texnikaga ijodiy yondashishni ta'minlaydi, eksperimentning umumiyo metodikasini egallahsga imkon beradi.

Mashg'ulotlarning ta'limiylar, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlari asosida mashg'ulotning har bir bosqichi uchun reproduktiv o'quv topshiriqlari, ularning didaktik maqsadlarini aniqlash va shakllantirish

Mashg'ulotlarda ta'larning quyidagi uchta asosiy maqsadga erishtiruvchi vositalarini ta'minlash lozim: ta'limiylar, tarbiyaviy rivojlantiruvchi maqsadlar.

Ta'limiylar har bir mashg'ulotning ta'lim vazifalarini aniq belgilash, mashg'ulotni axborotlar bilan boyitish, ijtimoiy va shaxsiy ehtiyojlarni hisobga olish bilan mazmunini optimallashtirish, idrok etish eng yangi texnologiyalarini kiritish, turli xildagi ta'lim shakli, metodlari va ko'rinishlaridan foydalanish, mashg'ulot tuzilishini shakllantirishga ijodiy yondashish mashg'ulotni mahorat bilan o'tkazishni ta'minlash kabilalar kiradi.

Mashg‘ulotga nisbatan qo‘yiladigan tarbiyaviy talablar o‘quv materialining tarbiyaviy imkoniyatlarini aniqlash, talabalarni umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, tirishqoqlik, tartiblilik, mas’uliyatlilik, intizomlilik, mustaqillik, qobiliyatlilik, e’tiborlilik, halollikni shakllantirish.

Barcha mashg‘ulotlarda doim amalga oshirilib boriladigan rivojlantiruvchi talablarga talabalarda o‘quv-o‘rganish faoliyati ijobjiy sifatlari, qiziqish, ijodiy tashabbuskorlik va faollik shakllantirish hamda rivojlantirish, talabalarning idrok etish imkoniyatlari darajasini o‘rganish kabilar kiradi.

Oliy o‘quv yurtlarida tashkil etiladigan seminar mashg‘ulotlarida yuqorida qayd etilgan texnologiyalar bilan bir qatorda hamkorlikda o‘qitish texnologiyasining “arra” metodi, didaktik o‘yin texnologiyasining o‘yin mashqlaridan foydalanish tavsiya etiladi.

Seminar mashg‘ulotlarida talabalar fan o‘qituvchisi tavsiya etgan reja asosida o‘quv materialini axborot manbalaridan foydalanilgan holda mustaqil o‘rganadilar. Bunday mashg‘ulotlar talabalarning bilish faoliyatini faollashtirish, bilimlarni mustaqil egallashlari, kengaytirish, chuqurlashtirish va mustahkamlashda katta imkoniyatlarga ega. Bu jarayonda professor-o‘qituvchining vazifasi talabalarning seminar mashg‘ulotlariga tayyorgarligi, mustaqil bilim olish faoliyatini tashkil eting va boshqarish sanaladi. Seminar mashg‘ulotini o‘tkazishda ikki xil yondashuv mavjud. Birinchi xil yondashuv ma’ruza—seminar tizimi bo‘lib, unda o‘qituvchi o‘quv materialini ko‘rgazmali vositalardan foydalangan holda maruza shaklida bayon yetadi. Shundan so‘ng, talabalar o‘quv topshiriqlari asosida o‘quv materiallarini qayta mustaqil holda ishlab chiqib, uni aniqlashtiradilar va mashg‘ulot davomida muhokama qiladilar. Bu xildagi yondoshuvni mavzu tushunchalar va atamalarga boy bo‘lgan paytda qo‘llash maqsadga muvofiq.

Ikkinchi xildagi yondoshuvda seminar mashg‘ulotlaridan mustaqil ish shaklida foydalaniladi, ya’ni talabalar hali o‘zlariga noma’lum bo‘lgan o‘quv materiali asosida mustaqil tayyorgarlik ko‘radilar. Bunday yondoshuvdan o‘quv materiali ancha yengil talabalar ularni mustaqil o‘zlashtirish imkoniyati bo‘lganda qo‘llaniladi. Bunday seminar mashg‘ulotining didaktik maqsadi talabalar avval o‘zlashtirgan bilimlarini yangi vaziyatlarda qo‘llab bilimlarni o‘zlashtirishga erishishdir.

Seminar mashg‘ulotining borishini takomillashtirish, o‘qitish samaradorligini orttirish, talabalarning bilish faoliyatini faollashtirish maqsadida, mazkur mashg‘ulotlarda pedagogik texnologiyalardan foydalanish maqsadga muvofiq.

Biologik fanlardan o‘tkaziladigan seminar mashg‘ulotida pedagogik texnologiyalardan foydalanishda quyidagi vazifalarni muvaffaqiyatli hal etish mumkin:

- Kursni o‘qitish uchun tashkil etiladigan ta’lim-tarbiya jarayonining umumiy, yaxlit loyixasini ishlab chiqish;
- ta’lim-tarbiya jarayonida xal etilishi lozim bo‘lgan aniq maqsad va vazifalarni belgilash;
- ta’lim-tarbiya jarayonini samaradorligini ta’minlashga yordam beruvchi eng samarali usul hamda texnik vositalarni tanlash;
- ta’lim jarayonida ta’lim oluvchining erkin, mustaqil faoliyat ko‘rsatishi uchun muayyan shart-sharoitlar, ya’ni o‘quv topshiriqlarini tuzish, ularda mustaqil ishslash ko‘nikmalarini malaka darajasiga yetkazish;
- ta’lim oluvchi faoliyatini nazorat qilish hamda baholashda o‘z-o‘zini baholashni tashkil etish;

Yuqoridagi fikrlardan ko‘rinadiki seminar mashg‘ulotida pedagogik texnologiyalarni ta’lim jarayoniga tadbiq eting ta’lim oluvchilarni mustaqil, ijodiy fikrlashlarini rivojlantirishda alohida ahamiyatga ega.

Professor-o‘qituvchilar seminar mashg‘ulotlarni tashkil qilayotganda seminar mashg‘ulotning ananaviy tuzilishini zamonaviy ta’lim texnologiyalarning elementlarini qo‘llash orqali o‘zgartirishi, yangi pedagogik texnologiyalar asosida yaratilgan interfaol usullarga yondoshgan holda ta’lim jarayonini tashkil etingi va uni amalga oshirish orqali ta’limm oluvchilarning mustaqil fikrlash samaradorligiga erishishi mumkin.

Ta’lim-tarbiya jarayonida talabalarning o‘quv-bilish faoliyatini faollashtirishga zamin tayyorlaydigan texnologiyalaridan biri - hamkorlikda o‘qitish texnologiyasi sanaladi.

Hamkorlikda o‘qitish texnologiyasining asosiy g‘oyasi talabalar tomonidan o‘quv topshiriqlarni faqat birgalikda bajarish emas, balki talabalarni hamkorlikda o‘qishga o‘rganish, ular o‘rtasida o‘zaro hamkorlik, o‘zaro yordam va fikr almashinuvni vujudga keltirishdir.

Biologik fanlardan seminar mashg‘ulotlarda hamkorlikda o‘qitish texnologiyasining: komandada o‘qitish, birgalikda o‘qimiymiz, kichik guruhlarda ijodiy izlanishni tashkil eting va “zig-zag” yoki “arra” kabi metodlaridan foydalanish tavsiya etiladi.

Ushbu metodlardan foydalanishda amaliy va seminar mashg‘ulotlarining mazmuniga mos holda didaktik maqsadni amalga oshirish nazarda tutilgan holda talabalarning mustaqil ish topshiriqlarini tuzish, talabalarni kichik guruhlarga ajratib ularning faoliyatini mazkur topshiriqlarni hamkorlikda bajarishga yo‘llash, guruhlar o‘rtasida tom ma’nodagi raqobatni vujudga keltirish orqali mashg‘ulotdan ko‘zlangan natijaga erishish yo‘llarini belgilash zarur.

Seminar mashg‘ulotlarida hamkorlikda o‘qitish texnologiyasidan foydalanish har bir talabani kundalik qizg‘in aqliy mehnatga, ijodiy va mustaqil fikr yuritishga o‘rgatish, ularda mustaqillikni tarbiyalash, har bir talabada shaxsiy qadr – qimmat tuyg‘usini vujudga keltirish, o‘z qobiliyati va bilimiga bo‘lgan ishonchni mustahkamlash, tahsil olishda masuliyat hissini shakllantirishga imkon yaratadi. Hamkorlikda o‘qitish texnologiyasi talabalarni komandada, kichik guruhlarda o‘qitishni nazarda tutadi. Shu sababli talabalar har bir talabaning tahsil olishdagi muvaffaqiyati guruh muvaffaqiyatiga olib kelishni anglagan holda muntazam va sidqidildan aqliy mehnat qilishga, seminar topshiriqlarini to‘liq va sifatli bajarishga, seminar materialini puxta o‘zlashtirishga, kursdoshlariga hamkor bo‘lib, o‘zaro yordam uyushtirishga zamin yaratadi.

Hamkorlikda o‘qitish texnologiyasining komandada o‘qitish metodidan amaliy va seminar mashg‘ulotlarida foydalanishda o‘qituvchi talabalarni teng sonli komandalarga ajratadi. Hamma komanda bir xil o‘quv topshiriqlarini komanda azolari bilan hamkorlikda bajarib, mavzudan ko‘zda tutilgan bilim, ko‘nikma va malakalarini o‘zlashtiradilar.

Mazkur metoddan foydalanib tashkil etilgan seminar mashg‘uloti quyidagi tuzilishga ega bo‘ladi:

Mashg‘ulotning borishi:

I. Tashkiliy qism.

II. Talabalarni mashg‘ulot mavzusi, maqsadi, borishi bilan tanishtirish.

III. Yangi mavzuni yoritish:

a) Talabalarni komandaga ajratib bir necha kichik guruhlarni tashkil eting hamda har bir komanda azolari tomonidan belgilangan seminar topshiriqlarini mustaqil ravishda sifatli bajarishga erishish;

b) Seminar materiallarini yaxlit holda qayta ishlab chiqishni amalga oshirish.

IV. Yangi mavzu yuzasidan komandalar o‘rtasida savol – javob, bahs uyushtirish.

V. Yangi mavzuni qayta ishlash va yakunlash.

Amaliy va seminar mashg‘ulotlarida hamkorlikda o‘qitish texnologiyasining „arra” yoki „zig-zag” metodidan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu metodda talabalardan 6– 8 kishidan iborat kichik guruhlar tashkil etiladi. Mashg‘ulot davomida o‘rganiladigan mavzu mantiqan tugallangan qismlarga ajratiladi. Mavzuning har bir qismi bo‘yicha o‘quv topshiriqlari tuziladi. Kichik guruhdagi talabalar mazkur topshiriqlarning bittasini bajaradi va mavzuning shu qismi bo‘yicha „mutaxassis”ga aylanadi. So‘ngra guruhlar qayta tashkil etiladi. Bu guruh „mutaxassislar uchrashuvi” guruhida har bir mutaxassis mavzuning o‘zi

egallagan qismi bo'yicha bilimlarini arra tishi ketma – ket kelgani kabi galma – galdan bayon etib hamkorlarini o'qitadi. Shu tariqa mazkur guruhdan o'quv materiali mantiqiy ketma-ketlikda qayta ishlab chiqiladi. Talaba larning o'zlashtirgan bilimlari shu guruhda nazorat qilinadi va baholanadi. Har bir guruhning to'plagan umumiy ballariga muvofiq holda g'olib guruh aniqlanadi.

Mazkur seminar mashg'uloti quyidagicha tashkil etiladi:

Mashg'ulotning borishi :

I. Tashkiliy qism.

II. Talabalarni mashg'ulot mavzusi, maqsadi, borishi bilan tanishtirish va ularning faoliyatini seminar topshiriqlarini bajarishga yo'llash.

III. Yangi mavzuni yoritish:

a), „mutaxassislar” guruhi tomonidan belgilangan topshiriqlarni sifatli bajarishga erishish;

b) „mutaxassislar uchrashuvi” guruxini tashkil eting va mazkur guruhlarda „mutaxassislar” yordamida seminar materiallarini yaxlit holda qayta ishlab chiqishni amalga oshirish.

IV. Yangi mavzu yuzasidan komandalar o'rtaida savol – javob, bahs uyushtirish.

V. Yangi mavzuni qayta ishlash va yakunlash.

Amaliy va seminar mashg'ulotlarida modulli ta'lif texnologiyasini qo'llash muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur texnologiyadan foydalanish uchun o'qituvchi quyidagi tayyorgarlik ishlarini olib borgan bo'lishi shart:

1. Mavzuning ta'limiylarini, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlari asosida talabalarga qo'yiladigan o'quv maqsadlarini belgilash;

2. O'rganiladigan mavzuni mantiqiy tugallangan fikrli modullarga ajratish, har bir modulning xususiy maqsadlarini aniqlash va ularning ierxargik darajasini tuzish;

3. Talabalarning har bir modulning xususiy maqsadlariga erishish yo'llarini nazarda tutgan holda o'quv topshiriqlarini tuzish va unga ajratilgan vaqt me'yorlarini belgilash;

4. Modullarning ketma-ketligi asosida modullarning xususiy maqsadlari, o'quv topshiriqlarni yaxlit tarzda o'zida mujassamlashtirgan modul dasturini loyihalash;

5. Amaliy va seminar mashg'ulotlari asosida tuzilgan modul dasturini mashg'ulotdan bir hafta avval talabalarga tarqatish;

6. Modul dasturining uch xil turi: individual, ikki talaba hamkorlikda, kichik guruhlarda hamkorlikda ishlangiga modul dasturi bo'lishini nazarda tutgan holda talabalarning bilish faoliyatini tashkil eting shaklini aniqlash;

Hozirgi kunda oliy ta'lim muassasalariga uch xil tayyorgarlikka ega talabalar qabul qilinayotganligi, ularda o'quv mehnati va amaliy ko'nikmalarining egallaganlik darajasi turlicha bo'lganligini inobatga olib modulli ta'lim texnologiyasidan foydalanishda modul dasturining talabalarning kichik guruhlarda hamkorlikda ishlangiga mo'ljallangan modul dasturi yuqori samara bermoqda.

Mazkur modul dasturi asosida ishlaganda talabalarning kichik guruhlari o'rtasida raqobat, guruh sardori guruh a'zolari bilan qo'shimcha ishlang, mashg'ulotgacha modul dasturidan o'rinni olgan savol-topshiriqlar yuzasidan tayyorgarlik ko'rish imkoniyati vujudga keladi.

O'quv topshiriqlarining jamoa orqali qo'yilishi, guruh a'zolarining guruh muvaffaqiyatiga hissa qo'shishga intilishi ta'lim-tarbiya jarayonining harakatlantiruvchi kuchi sanaladi.

Guruhning erishgan natijalarining tahlil va e'tirof etilishi talabalar o'quv motivlarini faollashtiradigan omil sanaladi.

Talabalarning egallagan bilim, ko'nikma va malakalarini o'z-o'zini, o'zaro va o'qituvchi tomonidan nazorat qilinishi ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Modulli ta'lim texnologiyasi amaliy va seminar mashg'ulotlar jarayonida yangi mavzuni o'rganishda xususiy metodik darajada qo'llaniladi va lokal darajada qo'llaniladigan aqliy hujum, insert, klaster, bumerang, atamalar zanjiri, blis, o'zin mashqlar bilan uyg'unlashtiriladi.

Amaliy va seminar mashg'ulotlarda didaktik o'zin texnologiyasidan foydalanish muhim o'rinni tutadi. O'qitishda boshqa pedagogik texnologiyalar kabi didaktik o'zin texnologiyasidan foydalanish maqsadga muvofiq.

Didaktik o'zin texnologiyasining asosiy xususiyati talabalarning o'qubilish faoliyati o'zin faoliyati bilan uyg'unlashtirish sanaladi.

Biologik fanlardan tashkil etiladigan amaliy va seminar mashg'ulotlarda didaktik o'zin texnologiyasidan foydalanishni ko'zda tutishdan asosiy maqsad talabalarning muammolarni hal etishda muayyan rollarni bajarish, egallagan lavozimiga mos holda fikr yuritish ko'nikmalarini rivojlantirish orqali kasbiy tayyorgarligini orttirish sanaladi.

Mazkur texnologiyaning konferensiya, taqdimot, ijodiy o'zin, o'zin mashqlardan foydalanish yuqori samara beradi. Ushbu mashg'ulotlarda talabalarning

bilim olish faoliyati o‘yin faoliyati bilan uyg‘unlashtiriladi, shu sababli talabalarning bilish faoliyatini tashkil etish va boshqarishning o‘ziga xos xususiyatlari mavjud.

Amaliy va seminar mashg‘ulotlar mavzusi jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar, faktik materiallarni o‘rganishga bag‘ishlangan bo‘lsa, u holda didaktik o‘yin texnologiyasining konferensiya shaklidan foydalanish tavsiya etiladi.

Ushbu mashg‘ulotdan bir hafta oldin o‘qituvchi talabalarni “Olimlar” guruhiga ajratadi. Talabalar belgilangan muammo bo‘yicha izlanishlar olib borib ma’ruza tayyorlashadi. Mashg‘ulot davomida “Olimlar” guruhi navbat bilan o‘z ma’ruzalarini ko‘rgazmali vositalar yordamida taqdim etadi:

- 1-guruh, “Olimlar” guruhi
- 2-guruh, “Olimlar” guruhi
- 3-guruh “Olimlar” guruhi
- 4-guruh “Olimlar” guruhi

O‘qituvchi har bir guruh ma’ruzasidan so‘ng, o‘quv bahsi, munozara o‘tkazadi.

Biologik fanlar kursi mazmunan sintetik, ya’ni turli fanlardan to‘plangan materiallar asosida vujudga kelganligi sababli, didaktik o‘yin texnologiyasining taqdimot metodidan amaliy va seminar mashg‘ulotlarda foydalanish qo‘l keladi.

Taqdimotdan amaliy va seminar mashg‘ulotlarda foydalanish mazkur jarayonni takomillashtirish, samaradorligini orttirishga xizmat qiladi.

Masalan, “Organik olam evolyusiyasining dalillari” mavzusi o‘rganiladigan mashg‘ulotdan bir hafta oldin o‘qituvchi talabalarni “Olimlar” guruhiga ajratadi. Talabalar belgilangan muammo bo‘yicha izlanishlar olib borib ma’ruza tayyorlashadi. Mashg‘ulot davomida “Olimlar” guruhi navbat bilan o‘z ma’ruzalarini ko‘rgazmali vositalar yordamida taqdim etadi:

- 1-guruh, “Solishtirma anatomlar” guruhi
- 2-guruh, “Paleontologlar” guruhi
- 3-guruh “Embriologlar” guruhi
- 4-guruh “Biogeograflar” guruhi

Har bir guruh o‘zlariga topshirilgan muammo yuzasidan izlanish olib boradi va izlanish natijalarini taqdim etadi.

Didaktik o‘yin texnologiyasining ijodiy o‘yin metodidan foydalanilgan mashg‘ulotning mazmuni avvalgi mashg‘ulotlardagi savol-topshiriqlardan ijodiy xarakterdaligi bilan farqlanadi.



Ushbu amaliy va seminar mashg‘ulotlar turidan mavzu mazmunidagi muammolarni talabalar avval o‘zlashtirgan bilim, ko‘nikma va malakalarni yangi va kutilmagan vaziyatlarda ijodiy qo‘llash va izlanishi orqali hal etish mumkin bo‘lganda foydalanish tavsiya etiladi.

Nazorat savollari.

1. Kredit-modul tizimidan foydalanilganda Xalqaro baholash dasturlarini amalga oshirish yo‘llari yuzasidan tahliliy fikr yuriting.
2. PIRLS - Progress in International Reading and Literacy Study - boshlang‘ich 4-sinf o‘quvchilarining matnni o‘qish va tushunish darajasini baholashga mo‘ljallangan dasturning o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlang.
3. TIMSS - The Trends in International Mathematics and Science Study-matematika va tabiiy fanlarni o‘zlashtirish sifatini Xalqaro monitoringlash va baholashga mo‘ljallangan dastarning o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlang.
4. PISA - Programme for International Student Assesment Xalqaro baholash dasturining o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlang.
5. TALIS - Teaching and Learning International Survey – Xalqaro baholash dasturining o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlang.
6. O‘zingiz mutassadi bo‘lgan o‘quv kursidan tashkil etiladigan ma’ruza mashg‘ulotida Xalqaro baholash dasturlari talablarini amalga oshirish yo‘llarini ishlab chiqing.
7. Biologiyadan laboratoriya mashg‘ulotida Xalqaro baholash dasturlari talablarini amalga oshirish yo‘llarini belgilang.
8. Amaliy mashg‘ulotlarda Xalqaro baholash dasturlari talablariga muvofiq talabalarning bilimi, ko‘nikma, malaka, tayanch va xususiy kompetensiyalarni nazorat qilish va baholash uchun o‘quv va test topshiriqlarini tuzing.
9. Pedagogik faoliyattingizda kurs mashg‘ulotlarida identiv o‘quv maqsadlariga muvofiq uzviyligini ta’minlash yo‘llarini izohlang.

IV. AMALIY MASHG'ULOT MATERIALLARI

1-amaliy mashg'ulot: Biologiyani o'qitishda modul mazmuni yuzasidan talabalarining o'zlashtirishi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma, malaka, tayanch va fanga doir xususiy kompetensiyalarni aniqlash.

Biologik fanlarni o'qitishni kredit-modul tizimini amalga oshirish uchun o'qituvchi quyidagi ishlarni bosqichma-bosqich bajarishi lozim:

- O'zingiz o'qitishga mutassadi bo'lgan biologik fanning ishchi dasturida keltirilgan talabalar tomonidan egallanishi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarga aniqlik kiritish va ularni talabalar tomonidan o'zlashtirish darajasini aniqlash uchun foydalanilayotgan nazorat topshiriqlarini tahlil qilish;
 - Biologik fanning ishchi dasturida keltirilgan talabalar tomonidan egallanishi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarga aniqlik kiritish;
 - o'rganilayotgan kurs mazmunini modullarga ajratish va modul davomida talabalar tomonidan egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarni aniqlash;
 - modul tarkibidagi har bir mavzu mazmunini tahlil qilish va talabalar tomonidan egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarni aniqlash;
 - mavzu mazmunini tahlil qilish va modul (reja)larga ajratish, mavzuning har bir modulini talabalar tomonidan o'zlashtirishi uchun o'quv topshiriqlarini tuzish;
 - modul mazmuni bo'yicha talabalar tomonidan bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarni egallanganlik darajasini aniqlash uchun nazorat topshiriqlarini tuzish;
- Biologik fanlarni o'qitishda modulli yondoshuvni amalga oshirish quyidagi didaktik maqsadlarga erishishga imkon beradi:
1. Biologik fanlarni modullarga ajratish Blum taksonomiysi bo'yicha identiv o'quv maqsadlarning shakllantirish, ta'lim-tarbiya jarayonidan ko'zlangan natijalarga bosqichma-bosqich erishish;
 2. Blum taksonomiysi bo'yicha belgilangan o'quv maqsadlariga erishish uchun modulni o'rganishda foydalaniladigan innovatsion va axborot texnologiyalarni aniqlash;
 3. Modul mazmuniga bog'liq holda taqdimot va nazorat topshiriqlarini maqsadga muvofiq tayyorlash;
 4. Moduldan o'rinni olgan mavzular o'rganiladigan mashg'ulotlarni innovatsion va axborot-kommunikatsion texnologiyalardan foydalangan holda loyihalash;
 5. Ma'ruza, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarda talabalar tomonidan bajariladigan o'quv va nazorat topshiriqlaridan foydalanib kurs silabusi, o'quv-

metodik majmua, metodik va didaktik ta'minotini talab darajasida ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish.

Mazkur biologik fanlarnio qitishda modulli yondoshuvni amalga oshirish bosqichlarini quyidagicha tasavvur qilish mumkin.

OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA BIOLOGIK FANLARNI KREDIT-MODUL TIZIMIGA O'TISH BOSQICHLARI

TAVVORGARLI K BOSQICHLI	4- BOSQICH	MODUL MAZMUNI TALABALAR TOMONIDAN BILIM, KO'NIKMA, MALAKA VA KOMPETENSIYALARNI EGALLANGANLIK DARAJASINI ANIQLASH UCHUN NAZORAT TOPSHIRIQLARINI TUZISH
	3- BOSQICH	MAVZU MAZMUNINI T AHLIL QILISH VA MODUL (REJA)LARGA AJRATISH, MAVZUNING HAR BIR MODULINI TALABALAR TOMONIDAN O'ZLASHTIRISHI UCHUN O'QUV TOPSHIRIQLARINI TUZISH
	2- BOSQICH	MODUL TARKIBIDAGI HAR BIR MAVZU MAZMUNINI TAHLIL QILISH VA TALABALAR TOMONIDAN EGALLASHI LOZIM BO'LGAN BILIM, KO'NIKMA, MALAKA VA KOMPETENSIYALARNI ANIQLASH
		O'RGANILAYOTGAN KURS MAZMUNINI MODULLARGA AJRATISH VA MODUL DAVOMIDA TALABALAR TOMONIDAN EGALLASHI LOZIM BO'LGAN BILIM, KO'NIKMA, MALAKA VA KOMPETENSIYALARNI ANIQLASH

TINGLOVCHINING O'Z-O'ZINI NAZORAT QILISHIGA MO'LJALLANGAN O'QUV DASTURI

- **O'quv dasturining didaktik maqsadi:** Siz mazkur dastur yordamida kichik guruhlarda mustaqil ishlab, o'zingiz o'qitadigan biologik fanning ishchi



dasturini tahlil qilishingiz, talabalar tomonidan egallanishi lozim bo‘lgan bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarga aniqlik kiritishingiz va ularni talabalar tomonidan o‘zlashtirish darajasini aniqlash uchun foydalanayotgan nazorat topshiriqlarini tahlil qilishingiz, mavjud kamchiliklarni aniqlashingiz, kurs mazmunini modullarga ajratib, har bir mavzu mazmunini tahlil qilish va talabalar tomonidan egallashi lozim bo‘lgan bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarni aniqlashingiz, modul mazmunini talabalar tomonidan o‘zlashtirishi uchun o‘quv topshiriqlari va bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarni egallanganlik darajasini aniqlash uchun standart va nostandart nazorat topshiriqlarini tuzishingiz, metodik bilim, ko‘nikma va malakalaringiz, kasbiy mahoratingizni, nutq va muloqot madaniyatingizni rivojlantirishingiz zarur.

q/s	AMALIY MASHG‘ULOT BO‘YICHA O‘QUV TOPSHIRIQLARI	KO‘RSAT- MALAR	BALL
1.	<p>Maqsad: Biologik fanlarni o‘qitishda modulli yondoshuvni amalga oshirishning tayyorgarlik bosqichida amalga oshiriladigan ishlarni o‘rganish. Berilgan ma’lumotlarni diqqat bilan o‘qib chiqing va quyidagi topshiriqlarni bajaring:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. O‘zingiz o‘qitishga mutassadi bo‘lgan biologik fanning ishchi dasturini tahlil qiling. 2. Unda keltirilgan talabalar tomonidan egallanishi lozim bo‘lgan bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarga aniqlik kriting. 3. Kurs bo‘yicha talabalar tomonidan o‘zlashtirish darajasini aniqlash uchun foydalanilayotgan nazorat topshiriqlarini tahlil qiling. 4. Mazkur jarayonda yo‘l qo‘yilayotgan kamchiliklarni aniqlang va ularni bartaraf etish yo‘llarini belgilang. 	Kichik guruh a’zolari bilan hamkorlikda ishlang	0,5-ball
2.	<p>Maqsad: Biologik kurs mazmunini modullarga ajratish va modul davomida talabalar tomonidan egallashi lozim bo‘lgan bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarni aniqlashni o‘rganish.</p> <p>Quyidagi topshiriqlarni bajaring:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1.O‘rganiladigan kurs mazmuni (boblar)ni modullarga ajrating. 2.Har bir modul davomida talabalar tomonidan egallashi lozim bo‘lgan bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarni aniqlang; 	Kichik guruh a’zolari bilan hamkorlikda ishlang	0,5-ball

	<p>3. Mazkur bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarni aniqlash uchun foydalanilgan topshiriqlarni tahlil qiling.</p> <p>4. Bu jarayonda yo'l qo'yilayotgan kamchiliklarni aniqlang.</p>		
3.	<p>Maqsad: O'quv kursi modullari mazmuni bo'yicha talabalar tomonidan bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarni egallanganlik darajasini aniqlash uchun nazorat topshiriqlarini tuzishni o'rghanish.</p> <p>Quyidagi topshiriqlarni bajaring:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. O'quv kursi modullari mazmunini tahlil qiling. 2. Mazkur modul bo'yicha talabalar tomonidan bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarni aniqlang. 3. Talabalar tomonidan mazkur modul mazmunidagi bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarni egallanganlik darajasini aniqlash uchun nazorat topshiriqlarini tuzing. 4. Mazkur jarayonda yo'l qo'yilgan kamchiliklarni aniqlang va fikringizni bildiring. 	Kichik guruh a'zolari bilan hamkorlikda ishlang	1-ball
5.	<p>O'quv dasturini yakunlash.</p> <p>Maqsad: O'z faoliyatini tahlil qilish, o'z-o'zini baholash.</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. O'quv dasturining didaktik maqsadini o'qib chiqing. Ko'zlangan maqsadga qay darajada erishdingiz? 2. O'quv topshirig'idagi modullardan ko'zda tutilgan didaktik maqsadlarni takrorlang. Ularni bajarishda qanday qiyinchiliklarni yengishga erishdingiz? 3. Ushbu o'quv dasturi sizning pedagogik faoliyatizingizda qanday o'zgarishlar bo'lishiga zamin tayyorlaydi deb o'ylaysiz? 4. Mustaqil ishslash jarayonidagi faoliyatizingizni 3 ball bilan baholang. 5. Mashg'ulot davomidagi o'z faoliyatizingizdan qoniqish hosil qilgan bo'lsangiz tanlagen mavzuungiz bo'yicha qiyinchilik darajalari turlichaga bo'lgan nazorat topshiriqlarini tuzing. 	To'plagan ballaringizni jamlang va keyingi qatorga yozing	

	6. Mashg'ulot davomidagi o'z faoliyatingizdan qoniqish hosil qilmagan bo'lsangiz matn va o'quv dasturi ustida takroran ishlang.		
	Tinglovchining mashg'ulot davomida to'plagan ballari	Jami 5 ball	ball

2-amaliy mashg'ulot: Mavzu yuzasidan talabalarning o'zlashtirishi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma, malaka, tayanch va fanga doir xususiy kompetensiyalarni nazorat qilish va baholashni amalga oshirish.

Biologiyani o'qitishda foydalaniladigan nostandard testlar mazmuni va mohiyatiga ko'ra quyidagi guruhlarga ajratiladi:

1. Integrativ testlar;
2. Adaptiv testlar;
3. Mezonli-mo'ljal olish testlari.

Biologiyani o'qitishda foydalaniladigan integrativ testlar integral mazmun, shakl, qiyinchilik darajasi bo'yicha o'sib boruvchi, bakalavriat yo'nalishi bitiruvchisining tayyorgarlik darajasi haqida umumlashgan yakuniy xulosa chiqarishga imkon beradigan test topshiriqlari sanaladi.

Biologiyadan foydalaniladigan adaptiv testlar quyidagi xususiyatlari bilan xarakterlanadi:

- Adaptiv talabalarga nisbatan individual yondoshish imkonini beradi, ya'ni test topshiriqlarining qiyinchilik darajasiga ko'ra talabalar tanlash huquqini beradi.
- Adaptiv testlar avtomatlashtirilgan, My test dasturiga kiritilib, talabalarning o'zlashtirgan bilim, ko'nikmalarini mustahkamlash, mashq qilish, o'z-o'zini nazorat amalga oshirish orqali ta'lim makoniga moslashtirish imkonini beradi.
- Adaptiv testlarning asosiy guruhini piramidalni adaptiv testlar tashkil etadi, ya'ni talabalarning tanlashiga ko'ra faqat o'rtacha og'irlikdagi, aralash, qiyin darajali test topshiriqlardan foydalanishga imkon yaratadi.

Adaptiv testlar ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishning modul-kredit paradigmasida muvaffaqiyatli qo'llanishi mumkin. Buning uchun pedagog bitta mavzu, bob, bo'lim, kurs mazmuni bo'yicha turli qiyinchilik darajadagi bir necha variantli test topshiriqlarini tuzish va amalda qo'llash mahoratiga ega bo'lishi lozim.

Mazkur test topshiriqlarini tuzish uchun avvalo o'quv kursi mazmuni DTS asosida tahlil etiladi, bilim, ko'nikma va malakalar aniqlanadi, ularni aniqlash uchun topshiriqlar majmuasi tuziladi, mazkur topshiriqlar test topshiriqlariga aylantiriladi va sinov o'tkaziladi, pirovar natijada talabalarning shu kursni o'zlashtirish ehtimolliga yuzasidan xulosa tayyorlanadi.

Adaptiv test topshiriqlari orqali talabalarning bilimlaridagi bo'shliqlar aniqlanadi va ularni bartaraf etish yo'llari aniqlanadi.

Yuqorida qayd etilgan nostandard test topshiriqlarini ta'lim-tarbiya jarayonida maqsadga muvofiq foydalanish jarayoni talabalarning o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarini haqqoniy va odilona nazorat qilish va baholash imkonini beradi.

Adaptiv nostandard test topshiriqlarini tayyorlashda mazmun va shakl asosiy o'rinni egallaydi.

Shu sababli, test topshiriqlari mazmunini tanlash prinsiplari haqida fikr yuritish lozim.

1-prinsip. Test topshiriqlari mazmuni sinov maqsadiga mosligi prinsipi.

Mazkur prinsip talabalarning o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarini nazorat qilish va baholash Reyting tizimining nazorat turlarida test topshiriqlarining mazmuni maqsadga muvofiq tanlanishini talab etadi.

2-prinsip. Nazorat va baholanayotgan bilimlarning muhimligi prinsipi.

Muhimlik prinsipi test topshirig'i savollariga o'quv dasturidagi eng muhim qonun, teorema, tushuncha va ko'nikmalarni kiritishni talab etadi. Bu jarayonda ikkinchi darajali ma'lumotlar, raqamlar va faktik materiallar test topshiriqlariga kiritish tavsiya etilmaydi.

3-prinsip. Mazmun va shakl birligi prinsipi. Mazkur prinsip test topshiriqlarining mazmuni va shakli bir-biriga mos, yaxlitlikni tashkil etishini talab etadi.

Test topshiriqlarining mazmunini tanlashda bilimlarning turlari va ularning o'ziga xosligini e'tiborga olish va mos ravishda shaklni tanlash lozim.

4-prinsip. Test topshiriqlarining mazmunan to'g'riliqi prinsipi.

Test topshiriqlariga o'quv kursi mazmunidagi ob'ektiv va haqiqiy bilimlar kiritilishi maqsadga muvofiq. Mazmundagi bahs va munozaraga olib keladigan masalalar test topshiriqlariga kiritilmasligi lozim. Bu holat talabalarning o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarini haqqoniy va odilona nazorat qilish va baholash imkonini bermaydi.

5-prinsip. Test topshiriqlari mazmunida o'quv kursi mazmunining qayta taqdim etilishi prinsipi.

Mazkur prinsip test topshiriqlarini tayyorlashda o'quv kursi mazmunini to'liq va yetarli darajada qamrab olinishini nazarda tutadi. O'quv kursi bo'yicha tashkil etiladigan ta'lim-tarbiya jarayonida mavzulararo, boblararo, bo'limlararo va fanlararo bog'lanishlarga yetarli darajada e'tibor qaratilgan, mazmunan bu jarayon o'quv materialida o'z aksini tushunchalar o'rtasidagi bog'lanishlar shaklida topgan bo'lsa, bunda hamma mavzular bo'yicha emas, balki tanlangan asosiy mavzular va boblar bo'yicha test topshiriqlari tayyorlanadi.

6-prinsip. Test topshiriqlari mazmunining fanning hozirgi zamon holatiga mosligi prinsipi.

Mazkur prinsip test topshiriqlari mazmunini jamiyatimizda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy qarashlar, huquqiy me'yorlar,



fanning o‘quv kursi ta’lim mazmuniga kiritilgan fan yangiliklariga moslashni talab etadi.

Shuni qayd etish kerakki, o‘quv kursi mazmuni talabalar tomonidan shu kursga oid ilmiy bilimlarni o‘zlashtirish jarayonida o‘ziga xos va mos proeksiyani hosil qiladi.

Yuqorida qayd etilgan fikrlardan ko‘rinib turibdiki, test topshiriqlarining mazmuni ham zamonaviy, ham talabalar tomonidan ilmiy bilimlarni o‘zlashtirish bosqichlariga mos bo‘lishi lozim.

7-prinsip. Test topshiriqlari mazmunining majmuali va muvozanatlashgan bo‘lishi prinsipi.

Mazkur prinsip test topshiriqlari mazmunini tanlashda maqsadga muvofiqlikni keltirib chiqaradi, ya’ni Reyting tizimining oraliq va yakuniy nazorat uchun tuzilayotgan test topshiriqlarining mazmuni uning turi va qo‘llanishini e’tiborga olingan holda bob, bo‘lim yoki kurs mazmunini to‘liq qamrab olishini taqoza etadi.

Shuningdek, yakuniy nazorat uchun tuzilayotgan test topshiriqlari o‘zida kursning nazariy masalalari, tushunchalar, qonunlar va qonuniyatlar, gipotezalar, faktik materiallar, masala va mashqlarni mujassamlashtirishi lozim.

8-prinsip. Test topshiriqlari mazmunining tizimliligi prinsipi.

Mazkur prinsipga asosan, test topshiriqlarining mazmunini tanlashda, mazmun talabalarning o‘zlashtirgan bilim, ko‘nikma va malakalarini nazorat qilishda tizimlilik talablariga javob berishi lozim. Undan tashqari test topshiriqlarining tizimli mazmuni, bir-biri bilan uzviy bog‘langan bilimlarning umumiy strukturasini aks ettirishi zarur.

Demak, har bir test topshirig‘i umumiy bilimlar tizimidan uning muayyan qismini nazorat qilishiga e’tibor qaratish lozim.

9-prinsip. Test topshirig‘i mazmunining variativligi prinsipi.

Test topshirig‘i birinchi marta amaliyatga joriy etilganda, ularning mazmuni talabalarga ma’lum bo‘lib qoladi va test javoblari xaqidagi axborotning chetga chiqib ketish hollarining oldini olish uchun, mazkur prinsip test savollari va javoblarini ko‘p variantli qilish, ularni almashtirib, yangilab turishni taqoza etadi. Bu holatda test topshiriqlarining mazmuni va uni bajarish qiyinchilik darajasini saqlash talab etiladi.

O‘quv topshiriqlari

O‘FE	MODULLAR TOPSHIRIQLARI	BO‘YICHA	O‘QUV	METODIK KO‘RSATMA	BALL
1.	Maqsad: Talabalarning o‘zlashtirgan bilim, ko‘nikma malakalari va kompetensiyalarini nazorat qilish va baholashda standart va nostandart test topshiriqlarini tuzishni o‘rganish.		Kichik guruh a’zolari bilan hamkorlikda ishlang		2-ball

	<p>1-modul bo'yicha berilgan materiallarni diqqat bilan o'qib chiqing va quyidagi savollarga javob toping.</p> <ol style="list-style-type: none"> Standart va nostandard test topshiriqlarining o'xshashligi va farqini e'tiborga olgan holda Venn diagrammasini tuzing. Nostandard test topshiriqlarining turlarini aniqlang va ulardan pedagogik faoliyatingizda foydalanish yo'llarini belgilang. Nostandard test topshiriqlarini o'rganing va o'zingiz o'qiydigan kurs mazmunidan muayyan mavzu bo'yicha test topshiriqlarini shakllantiring. Siz qanday o'zgartirishlar kiritishni taklif etasiz? 		
2.	<p>Maqsad: Tinglovchilar tomonidan talabalarining o'zlashtirgan bilim, ko'nikma malakalari va kompetensiyalarini nazorat qilish va baholash maqsadida shakllantirilgan nostandard test topshiriqlarini tahlil qilish.</p> <ol style="list-style-type: none"> Sizga tavsiya etilgan nostandard test topshiriqlarini namuna sifatida qabul qilib, o'zingiz o'qiydigan kurs bo'yicha 15 ta test topshirig'ini tuzing. Kurs bo'yicha shakllantirilgan nostandard topshiriqlarini taqdimotga tayyorlang. O'zingiz tuzgan test topshiriqlarining afzalligi, kamchiligi va uni tuzishda uchragan qiyinchiliklar yuzasidan fikr bildiring. 		3-ball
3.	<p>Modul dasturini yakunlash.</p> <p>Maqsad: O'z faoliyatini tahlil qilish, o'z-o'zini baholash.</p> <ol style="list-style-type: none"> Modul dasturining didaktik maqsadini o'qib chiqing. Ko'zlangan maqsadga qay darajada erishdingiz? O'quv topshirig'idagi modullardan ko'zda tutilgan didaktik maqsadlarni takrorlang. Ularni bajarishda qanday qiyinchiliklarni yengishga erishdingiz? Ushbu modul dasturi sizning pedagogik faoliyatingizda qanday o'zgarishlar bo'lishiga zamin tayyorlaydi deb o'ylaysiz? 	To'plagan ballaringizni jamlang va keyingi qatorga yozing	

	4. Mustaqil ishlash jarayonidagi faoliyatningizni 5 ball bilan baholang. 5. Amaliy mashg'ulot davomidagi o'z faoliyatningizdan qoniqish hosil qilmagan bo'lsangiz matn va modul dasturi ustida takroran ishlang.		
	Tinglovchining mashg'ulot davomida to'plagan ballari	jami	ball

3-amaliy mashg'ulot: Blum taksonomiysi bo'yicha o'quv maqsadlarini shakllantirish va erishilgan darajani baholash tizimi o'quv fanlari bo'yicha murakkablik darjasini turlicha (reproduktiv, produktiv, qisman-izlanishli va kreativ) bo'lgan o'quv va test topshiriqlarini shakllantirish.

AMALIY MASHG'ULOTNI BAJARISH ALGORITMLARI:

- O'zingiz o'qitadigan kursning ishchi dasturini tahlil qiling. Unda talaba egallanishi nazarda tutilgan bilim, ko'nikma va malakalarni tahlil qiling.
- Talabalar tomonidan egallanishi lozim bo'lgan mazkur bilim, ko'nikma va malakalarni Blum taksonomiyasiga muvofiq kurs yuzasidan o'quv maqsadlariga aylantiring.

.....kursi bo'yicha o'quv maqsadlari

1-jadval

<i>O'quv maqsadlari</i>	<i>O'quv maqsadlarining mazmuni</i>
<i>Bilish</i>	<i>aniqlashi;</i> <i>ta'riflashi;</i> <i>qayta ishlashi;</i> <i>aytib berishi;</i> <i>mohiyatini tushuntirishi;</i> <i>o'ziga xos xususiyatlarini ajratib ko'rsatishi;</i>
<i>Tushunish</i>	<i>Umumlashtirish;</i> <i>Qayta ishlash;</i> <i>Asosiy g'oyani qayta ishlash;</i> <i>Misollar keltirish;</i> <i>Himoya qilish;</i>
<i>Amaliyotga qo'llash</i>	<i>Moslashtirish;</i> <i>Qayta ishlash;</i> <i>Loyihalash;</i> <i>Modellashtirish;</i>

	<i>Qayta aytib berish;</i>
<i>Tahlil</i>	<i>Taqqoslash</i> <i>Qismlarga ajratish</i> <i>Ajratib ko'rsatish</i> <i>Qiyoslash</i>
<i>Sintez</i>	<i>Guruhlarga ajratish</i> <i>Umumlashtirish</i> <i>Rekonstruksiya</i>
<i>Xulosalash</i>	<i>Baholash</i> <i>Tanqidiy fikr yuritish</i> <i>Fikrga qarshi fikr bildirish</i> <i>Qo'llab-quvvatlash</i> <i>Inkor etish</i>

3. Kurs mazmunidagi modullar davomida talabalar tomonidan egallanishi lozim bo'lgan mazkur bilim, ko'nikma va malakalarni Blum taksonomiyasiga muvofiq modul uchun o'quv maqsadlariga aylantiring.

.....kursdan 1-modul bo'yicha o'quv maqsadlari
2-jadval

<i>O'quv maqsadlari</i>	<i>O'quv maqsadlarining mazmuni</i>
<i>Bilish</i>	<i>aniqlashi;</i> <i>ta'riflashi;</i> <i>qayta ishlashi;</i> <i>aytib berishi;</i> <i>mohiyatini tushuntirishi;</i> <i>6. o'ziga xos xususiyatlarini ajratib ko'rsatishi;</i>
<i>Tushunish</i>	<i>Umumlashtirish;</i> <i>Qayta ishlash;</i> <i>Asosiy g'oyani qayta ishlash;</i> <i>Misollar keltirish;</i> <i>Himoya qilish;</i>
<i>Amaliyotga qo'llash</i>	<i>Moslashdirish;</i> <i>Qayta ishlash;</i> <i>Loyihalash;</i> <i>Modellashtirish;</i> <i>Qayta aytib berish;</i>

<i>Tahlil</i>	<i>Taqqoslash</i> <i>Qismlarga ajratish</i> <i>Ajratib ko 'rsatish</i> <i>Qiyoslash</i>
<i>Sintez</i>	<i>Guruhlarga ajratish</i> <i>Umumlashtirish</i> <i>Rekonstruksiya</i>
<i>Xulosalash</i>	<i>Baholash</i> <i>Tanqidiy fikr yuritish</i> <i>Fikrga qarshi fikr bildirish</i> <i>Qo 'llab-quvvatlash</i> <i>Inkor etish</i>

4. Modul bo'yicha belgilangan o'quv maqsadlarini mavzularning mazmunini e'tiborga olgan holda mashg'ulotning o'quv maqsadlarini aniqlang.

.....kursdan 1-modul tarkibidagi

mavzu bo'yicha o'quv maqsadlari

3-jadval

<i>O'quv maqsadlari</i>	<i>O'quv maqsadlarining mazmuni</i>	<i>Mashg'ulotdagi nazorat turi</i>	<i>Reyting tizimidagi test topshirig'i turi</i>
<i>Bilish</i>	1. aniqlashi; 2. ta'riflashi; 3. qayta ishlashi; 4. aytib berishi; 5. mohiyatini tushuntirishi; 6. o'ziga xos xususiyatlarini ajratib ko 'rsatishi;	<i>Test topshirig'i</i> <i>Og'zaki javob</i> <i>Klaster tuzish</i> <i>Og'zaki javob</i> <i>Og'zaki javob</i> <i>Klaster tuzish</i>	Reproduktiv Produktiv Qisman-izlanishli Kreativ daraja
<i>Tushunish</i>	<i>Umumlashtirish;</i> <i>Qayta ishlash;</i> <i>Asosiy g'oyani qayta ishlash;</i> <i>Misollar keltirish;</i> <i>Himoya qilish;</i>	<i>Klaster tuzish</i> <i>Klaster tuzish</i> <i>Venn diagramma</i> <i>Masalalar yechish</i> <i>Venn diagrammasi</i>	Produktiv Qisman-izlanishli Kreativ daraja

<i>Amaliyotga qo'llash</i>	<i>Moslashtirish;</i> <i>Qayta ishlash;</i> <i>Loyihalash;</i> <i>Modellashtirish;</i> <i>Qayta aytib berish;</i>	<i>Og'zaki javob</i> <i>Klaster tuzish</i> <i>Klaster tuzish</i> <i>Klaster tuzish</i> <i>Og'zaki javob</i>	Reproduktiv Produktiv Qisman-izlanishli Kreativ daraja
<i>Tahlil</i>	<i>Taqqoslash</i> <i>Qismlarga ajratish</i> <i>Ajratib ko'rsatish</i> <i>Qiyoslash</i>	<i>Venn diagrammasi</i> <i>Klaster tuzish</i> <i>Klaster tuzish</i> <i>Venn diagrammasini tuzish</i>	Qisman-izlanishli Kreativ daraja
<i>Sintez</i>	<i>Guruhlarga ajratish</i> <i>Umumlashtirish</i> <i>Rekonstruksiya</i>	<i>Klaster tuzish</i> <i>Venn diagrammasini tuzish</i> <i>Klaster tuzish</i>	Qisman-izlanishli Kreativ daraja
<i>Xulosalash</i>	<i>Baholash</i> <i>Tanqidiy fikr yuritish</i> <i>Fikrga qarshi fikr bildirish</i> <i>Qo'llab-quvvatlash</i> <i>Inkor etish</i>	<i>Og'zaki javob</i> <i>Og'zaki javob</i> <i>Og'zaki javob</i> <i>Og'zaki javob</i> <i>Og'zaki javob</i>	Reproduktiv Produktiv Qisman-izlanishli Kreativ daraja

5. Mashg'ulot yakunida quyidagi jadvalga mos identiv o'quv maqsadlari shakllantirilishi lozim.

Mavzu:

4 jadval

Mashg'ulotining maqsadi:	
---------------------------------	--

Mashg'ulot davomida quyidagi yakuniy natijaga erishish nazarda tutilmoqda:

Talabalar bilishi kerak:

Talabalar tushunishi kerak:

Talabalar qo'llay olishi kerak:

Talabalar tahlil qila olishi kerak:
Talabalar sintezlay olishi kerak:
Talabalar baholay olishi kerak:

6. Mashg‘ulot uchun belgilangan identiv o‘quv maqsadlariga talabalarning erishilganlik darajasini aniqlash uchun nazorat topshiriqlarini shakllantiring.

4-amaliy mashg‘ulot: Kredit birliklarini aniqlash va ularga mos holda talabalarning o‘zlashtirgan bilim, ko‘nikma, malaka, tayanch va fanga doir xususiy kompetensiyalarni nazorat qilish va baholash

Tinglovchilar o‘zлari o‘qitadigan fanlari bo‘yicha taqdimot tayyorlaydi. Seminar-trening shaklida o‘tkaziladi.

Biologik fanlarni o‘qitishda Xalqaro baholash dasturlarining talablarini amalga oshirishga e’tibor qaratish lozim.

“Xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorga muvofiq Respublika xalq ta’limi tizimiga quyidagi dasturlar amaliyotga joriy etilmoqda.

XALQARO BAHOLASH DASTURLARINING TURLARI VA MOHIYATI

4-DARAJA	PEDAGOGIK KADRLAR UCHUN TALIS - TEACHING AND LEARNING INTERNATIONAL SURVEY-TURLI MAMLAKATLARDA TASHKIL ETILADIGAN PEDAGOGIK JARAYONLARNING SIFATINI XALQARO QIYOSIY TAHLILIGA ASOSLANGAN TADQIQOT
3-DARAJA	1-7 SINF O‘QUVChILARI UCHUN PISA - PROGRAMME FOR INTERNATIONAL STUDENT ASSESSMENT-15 YOSHLI O‘QUVCHILARINING O‘QISH, MATEMATIKA VA TABIIY YO‘NALISHDAGI FANLARDAN SAVODXONLIK DARAJASINI BAHOLASHGA MO‘LJALLANGAN

2-DARAJA	1-4 SINF O'QUVCHILARI UChUN TIMSS - THE TRENDS IN INTERNATIONAL MATHEMATICS AND SCIENCE STUDY O'QUVChILARNING MATEMATIKA VA TABIIY FANLARNI O'ZLASHTIRISH SIFATINI XALQARO MONITORINGLASH VA BAHOLASH TIZIMI
1-DARAJA	1-4 SINF O'QUVCHILARI UCHUN PIRLS - PROGRESS IN INTERNATIONAL READING AND LITERACY STUDY O'QUVCHILARNING MATNNI O'QISH VA TUSHUNISH DARAJASINI BAHOLASHGA MO'LJALLANGAN.

Qarorda qayd etilgan xalqaro baholash dasturlari bo'yicha olib boriladigan **xalqaro tadqiqotlardan** biri Progress in International Reading and Literacy Study (PIRLS) sanaladi. Mazkur baholash dasturi boshlang'ich matabning 4-sinf o'quvchilarining matnni o'qish va tushunish darajasini baholash uchun tatbiq etiladi.

Tadqiqotning asosiy ob'ekti esa, dunyodagi turli mamlakatlarning ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiya jarayoni umumiylashtirishga egaligi e'tiborga olingan holda o'smir yoshdagi o'quvchilarining ijtimoiy muhitga moslashishi, turli manbalar vositasida o'quvchilarining mustaqil bilim olish faoliyatining rivojlanganligi darajasini o'rganishni nazarda tutadi.

TALIS - Teaching and Learning International Survey – nimalarni tadqiq etadi?

TALIS – turli mamlakatlarda tashkil etiladigan pedagogik jarayonlarning xalqaro qiyosiy tahliliga asoslangan tadqiqot bo'lib, Xalqaro iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti tomonidan ta'sis etilgan. Mazkur dastur quyidagi vazifalarni hal etishni nazarda tutadi:

- Maktabda pedagogik faoliyat yuritayotgan o'qituvchilar va ta'lim muassasalarini rahbarlarini ta'lim-tarbiya jarayonini tahlil etishga yo'naltirish, ta'lim siyosatining asosiy aspektlari bo'yicha ta'lim sifati ko'rsatkichlarini aniqlash mezonlarini ishlab chiqish;
- Xalqaro konsorsium, o'qituvchilar assosiatsiyasi, mamlakatlararo hamkorlikni yo'lga qo'yish;
- Anketa savollariga yozilgan javoblarni tahlil etish, ta'lim sifati ko'rsatkichlariga bevosita ta'sir ko'rsatadigan omillarni aniqlash, foydalanimayotgan resurslarni belgilash, ular yuzasidan taqdimot, ko'rsatma va hisobotlar tayyorlash;
- Xalqaro va milliy ta'lim tizimini rivojlantirish yuzasidan axborot tanqisligining oldini olish, ma'lumotlar bazasi va dasturiy ta'minotini tayyorlash, ta'lim tizimi amaliyotida o'qitish sharoitlari va sifati, o'qitish jarayoni samaradorligiga o'qituvchining kasbiy pedagogik tayyorgarlik darajasining ta'siri yuzasidan mezonlar ishlab chiqish.

Mazkur halqaro baholash dasturlari Respublikamiz ta'lim tizimini mazmunan yangilash, innovatsion ta'lim muhitini yaratish, ta'lim sifatini orttirishni talab etadi va quyidagi vazifalarni amalga oshirish zaruratini keltirib chiqaradi:

- Pedagogik kadr tayyorlaydigan oliy ta'lim muassasalarining bakalavriat va magistratura bosqichi o'quv rejasiga xalqaro va milliy ta'lim tizimini rivojlantirish paradigmalari bilan tanishtirish, o'qitishni xalqaro baholash dasturlari talablarini amalga oshirishga zamin tayyorlaydigan o'quv kurslarini kiritish;
- Oliy ta'lim muassasalarining bakalavriat va magistratura bosqichi talabalari, ilmiy izlanuvchilarni xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarning muammolari yuzasidan ilmiy izlanishlarga maqsadli jalb etish;
- Xalqaro baholash dasturlari PIRLS TIMSS va PISA talablari asosida o'qish, o'zbek tili va adabiyoti, matematika va tabiiy o'quv fanlari bo'yicha o'quv va nostandard adaptiv topshiriqlarini shakllantirish, o'quvchilarning mustaqil ish daftarlarini bosma shaklda va modulli o'qitish tizimiga asoslangan elektron variantini tayyorlash axborot texnologiyalari vositasida baholash mexanizmini ishlab chiqish;
- Xalqaro baholash tizimi TALIS (Teaching and Learning International Survey) talablari asosida pedagog kadrlarning kasbiy kompetentligini aniqlash uchun kvalimetrik diagnostika anketa so'rovnomasini tayyorlash va on-lain tizimi vositasida aniqlash;
- Pedagog kadrlar tomonidan o'zining kasbiy kompetentligini mustaqil nazorat qilish va o'z-o'zini baholash imkonini beradigan kvalimetrik diagnostika topshiriqlaridan iborat metodik va elektron ta'lim resurslarini ishlab chiqish zarur;

Uzluksiz ta'lim tizimi oldiga qo'yilgan muhim vazifalardan biri ta'lim-tarbiya jarayonida innovatsion muhitni yaratish sanaladi.

Avvalo, innovatsiya so'zining ma'nosini tahlil qilish lozim.

Innovatsiya-inglizcha so'zdan olingan bo'lib, in-kiritish, novatsiya yangilik degan ma'noni beradi.

O'qitishda innovatsion muhitni yaratish o'qituvchidan ko'p qirrali izlanish va amaliy faoliyatni talab etadi.

Respublikamizda uzluksiz ta'limni joriy etish jarayonida ta'lim mazmuni yangilandi, o'quv dasturlari va o'quv fanlari bo'yicha DTS modernizatsiyalandi. Ushbu jarayon ta'lim-tarbiya jarayonining boshqa tarkibiy qismlari: o'qitish metodlari, vositalari va shakllarini innovatsiya kiritish orqali modernizatsiyalashni talab etmoqda.

Zamon bilan hamnafas pedagogik faoliyat yuritayotgan moderator o'qituvchilar yuqorida qayd etilgan talablarga monand holda o'qitishda interfaol metodlar, pedagogik va axborot-kommunikatsion texnologiyalardan foydalanish bo'yicha dastlabki tajribalarni egallamoqda.

Talabalarning *Blum taksonomiyasi bo'yicha* bilish o'quv maqsadiga erishganligini nazorat qilishda ular tomonidan muayyan mavzu bo'yicha ma'lumot va axborotlarni o'zlashtirganlik darajasini aniqlash maqsadga muvofiq. Buning uchun talaba mavzu bo'yicha ob'ektlarni aniqlashi, ularga ta'rif berishi, ma'lumotlarni qayta ishlashlari, o'z fikrini bayon etishi, muayyan jarayon, ob'ekt yoki voqeaning mohiyatini tushuntirishi, mazkur jarayon, ob'ekt yoki voqeaning o'ziga xos xususiyatlarini ajratib ko'rsatishi kerak bo'ladi.

Ushbu fikrlarni standart o'quv va test topshirig'i bilan amalgalash oshirib bo'lmaydi, bilish o'quv maqsadiga erishilganlik darajasini aniqlashda quyidagi **rasmli va ko'p javobli nostandard testlardan foydalanish tavsiya etiladi.**


5-amaliy mashg'ulot: Kredit-modul tizimidan foydalanishda lokal va xususiy metodik texnologiyalardan foydalanish. kredit-modul tizimida tashkil etiladigan ta'lim-tarbiya jarayonida foydalaniladigan lokal texnologiyalar

Ta'lim-tarbiya jarayoniga lokal darajada qo'llaniladigan pedagogik texnologiyalar jumlasiga "Insert", "Klaster", "Bumerang", "Aqliy hujum", "Kichik guruhlarda ishslash", "Keys stadi", "Atamalar zanjiri", "Atamalar varag'i" va h.k kiradi.

Mazkur texnologiyalar mashg'ulotlarning bir qismi, ya'ni talabalarning o'tgan mavzu bo'yicha o'zlashtirgan bilimlarini aniqlash, talabalarning o'quv motivlarini faollashtirish yoki mavzuni umumlashtirish va xulosa yasashda foydalanish mumkin.



MA'RUZA TIPLARI VA TEXNOLOGIYaLARI



MA'RUZA MASHG'ULOTIDA FOYDALANILADIGAN LOKAL TEXNOLOGIYALAR

Tashkiliy qism	Talabalarning o'quv motivlarini rivojlan-tirish	Yangi mavzuni o'rghanish.	Yakun yasash va xulosalash	Mustaqil ish topshiriqlarini berish
ATAMALAR ZANJIRI, ATAMA-LAR IZOHI	QIZIQARLI ANALOGIYA, AQLIY HUJUM KLASTER VENN DIAGRAMMASI KEYS STADI	XUSUSIY METODIK DARAJA-DAGI TEXNOLOGIYALAR	AQLIY HUJUM KLASTER VENN DIAGRAM MASİ KEYS STADI	AQLIY HUJUM KLASTER VENN DIAGRAM MASİ KEYS STADI

HAMKORLIKDA O'QITISH TEXNOLOGIYASINING KICHIK GURUHLARDA O'QITISH METODIDAN FOYDALANISH

Tashkiliy qism	Talabalar-ning o'quv motivlarini rivojlan-tirish	Yangi mavzuni o'rghanish.	Yakun yasash va xulosalash	Mustaqil ish topshiriqlarini berish
Davomatni aniqlash Avvalgi mavzuni qisqacha esga tushirish	Qiziqarli analogiyalar, o'rganiladigan mavzu material-laridan mustaqil hayat va kasbiy faoliyatdagi o'rni	Mavzu muayyan qismi rejaga muvofiq yetkaziladi, Talabalarning bilish faoliyati kichik guruhlarda ishlash metodiga asosan tashkil etiladi	O'qituvchi tomonidan amalga oshiriladi	Ko'rsatma shaklida

O'qituvchi talabalarda mustaqil ishslash yuzasidan muayyan ko'nikmalar shakllanib bo'lgandan so'ng, mustaqil ishslash hajmini ko'paytiradi. Unda ma'ruza mashg'ulotining modeli quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi.

Tashkiliy qism	Talabalar-ning o'quv motivlarini rivojlan-tirish	Yangi mavzuni o'rganish	Yakun yasash va xulosalash	Erishilgan natijani tahlil qilish va yakun yasash.
Davomatni aniqlash Atamalar varag'idan foydalanish Tushuncha va atamalarning izohini eslash	O'quv maqsadlarini qo'yish Aqliy hujum o'tkazish	Ma'ruza Kichik guruhlar guruhlarda ishlash Ma'ruza Kichik guruhlarda ishslash	Kichik guruhlar o'rtasida munozara larini o'tkazish	Kichik guruhlarning erishilgan yutuqlarini e'tirof etish Mustaqil ish topshiriqlarini tavofutlab berish

Yuqorida berilgan tavsiyalardan ma'ruzaning borishini o'zgartirmagan holda, mavzu mazmunida tushuncha va atamalar, ilmiy-nazariy masalalar o'rinni olgan hollarda foydalanish maqsadga muvofiq.

Dastlab ma'ruzani tavsiyaga muvofiq tashkil etilishi talabalar tomonidan bilimlarni mustaqil o'zlashtirish, mavzu mazmunidagi asosiy g'oyani ajratish, o'z fikrini bayon etish, mustaqil fikr yuritish ko'nikmalarini tarkib toptirish imkonini beradi.

Ma'rutzada talabalarning kichik guruhlarda mustaqil ishlarining tashkil etilishi ularning bilish faoliyatini tashkil etishda muayyan o'zgartirishlar kiritilishiga zamin tayyorlaydi, shuningdek, talabalarni ob'ekt maqomidan ajralib, sub'ekt maqomiga o'tishga zamin tayyorlaydi.

Hamkorlikda o'qitish texnologiyasining komandada o'qitish metodiga asoslangan ma'ruza mashg'ulotini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar

Tashkiliy qism	Talabalar-ning o'quv motivlarini rivojlan-tirish	Yangi mavzuni o'rganish.	Yakun yasash va xulosalash	Erishilgan natijani tahlil qilish va yakun yasash.
Davomatni aniqlash Atamalar varag'idan foydalanish	O'quv maqsadlarini qo'yish Aqliy hujum o'tkazish	1-qism Komandada ishslash 2-qism Komandada ishslash 3-qism	Har bir qism yaku-nida komandanalar	Komanda-larning erishgan yutuqlarini e'tirof etish Mustaqil ish topshiriqlarini

Tushuncha va atamalarining izohini eslash		Komandada ishslash 4-qism Komandada ishslash	o'rtasida o'quv munozara larini o'tkazish Mavzuni umumiylash yakunlash	tavofutlab berish
--------------------------------------------------	--	----------------------------------------------------	--------------------------------------------------------------------------------------------------------	--------------------------

Modulli ta'lif texnologiyasining talabalarining kichik guruhlarda ishslashiga mo'ljallangan modul dasturiga asoslangan mashg'ulotning ishlanmasi

Modulli ta'lif texnologiyasiga asoslangan ma'ruzani takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar

3-variant

Tashkiliy qism	Talabalarining o'quv motivlarini rivojlan-tirish	Yangi mavzuni o'rganish.	Yakun yasash va xulosalash	Erishilgan natijani tahlil qilish va yakun yasash.
Davomatni aniqlash Atamalar varag'idan foydalanish Tushuncha va atamalarining izohini eslash	O'quv maqsadlarini qo'yish Aqliy hujum o'tkazish	1-Modul Kichik guruhlarda ishslash 2-Modul Kichik guruhlarda ishslash 3-Modul Kichik guruhlarda ishslash 4-Modul Kichik guruhlarda ishslash Modul dasturini yakunlash	Har bir modul yakunida kichik guruhlar o'rtasida munozara larini o'tkazish Mavzuni umumiylash yakunlash	Kichik guruhlarning erishilgan yutuqlarini e'tirof etish Mustaqil ish topshiriqlari ni tavofutlab berish



Ma'ruza mashg'ulotida didaktik o'yin texnologiyasidan foydalanish muhim o'rinni tutadi

O'qitishda boshqa pedagogik texnologiyalar kabi didaktik o'yin texnologiyasidan foydalanish maqsadga muvofiq. Mazkur texnologiyaning konferensiya, taqdimot, ijodiy o'yin, o'yin mashqlardan foydalanish yuqori samara beradi. Ushbu mashg'ulotlarda talabalarning bilim olish faoliyati o'yin faoliyati bilan uyg'unlashtiriladi, shu sababli talabalarning bilish faoliyatini tashkil etish va boshqarishning o'ziga xos xususiyatlari mavjud.

Ma'ruza mavzusi jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar, faktik materiallarni o'rganishga bag'ishlangan bo'lsa, u holda didaktik o'yin texnologiyasining konferensiya shaklidan foydalanish tavsiya etiladi.

Didaktik o'yin texnologiyasining konferensiyasiga asoslangan ma'ruzani takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar

4-variant

Tashkiliy qism	Talabalarning o'quv motivlarini rivojlan-tirish	Yangi mavzuni o'rganish.	Yakun yasash va xulosalash	Erishilgan natijani tahlil qilish va yakun yasash.
Davomatni aniqlash Atamalar varag'idan foydalanish Tushuncha va atamalarning izohini eslash	O'quv maqsadlarini qo'yish Bumerang, Blis-o'yin	1-guruh Ma'ruzasi 2-guruh Ma'ruzasi 3-guruh Ma'ruzasi 4-guruh Ma'ruzasi Klaster	Har bir taqdimot yakunida kichik guruhlar o'rtasida munozara larini o'tkazish Mavzuni umumiylash yakunlash	Kichik guruhlarning erishilgan yutuqlarini e'tirof etish Mustaqil ish topshiriqlarini tavofutlab berish

Didaktik o'yin texnologiyasining "Taqdimot" turi asosan kurs va boblarning dastlabki mavzularini o'rganadigan mashg'ulotlarda foydalanish tavsiya etiladi.

Mazkur mashg'ulotdan bir hafta oldin o'qituvchi talabalarni kichik guruhlarga ajratib ularga kurs yoki bob yuzasidan muammolarga bag'ishlangan savol-topshiriqlar beradi.

Har bir guruh o'zlariga topshirilgan muammo yuzasidan izlanish olib boradi va izlanish natijalarini taqdim etadi.



Didaktik o‘yin texnologiyasining taqdimot mashg‘ulotiga asoslangan ma’ruzani takomillashtirish bo‘yicha tavsiyalar

5-variant

Tashkiliy qism	Talabalar-ning o‘quv motivlarini rivojlan-tirish	Yangi mavzuni o‘rganish.	Yakun yasash va xulosalash	Erishilgan natijani tahlil qilish va yakun yasash.
Davomatni aniqlash Atamalar varag‘idan foydalanish Tushuncha va atamalarning izohini eslash	O‘quv maqsadlarini qo‘yish Bumerang, Blis-o‘yin	1-guruh Ishining taqdimoti 2-guruh Ishining taqdimoti 3-guruh Ishining taqdimoti 4-guruh Ishining taqdimoti	Har bir taqdimot yakunida kichik guruhlar o‘rtasida munozara larini o‘tkazish Mavzuni umumiy yakunlash	Klaster Kichik guruhlarning erishilgan yutuqlarini e’tirof etish Mustaqil ish topshiriqlarini tavofutlab berish

Didaktik o‘yin texnologiyasining ijodiy o‘yin mashg‘ulotiga asoslangan ma’ruzani takomillashtirish bo‘yicha tavsiyalar

6-variant

Tashkiliy qism	Talabalar-ning o‘quv motivlarini rivojlan-tirish	Yangi mavzuni o‘rganish.	Yakun yasash va xulosalash	Erishilgan natijani tahlil qilish va yakun yasash.
----------------	--------------------------------------------------	--------------------------	----------------------------	----------------------------------------------------

Davomatni aniqlash Atamalar varag‘idan foydalanish Tushuncha va atamalarning izohini eslash	O‘quv maqsadlarini qo‘yish Bumerang, Blis-o‘yin	1-guruh Ijodiy ishining Bumerang, Blis-o‘yin 2-guruh Ijodiy ishining taqdimoti 3-guruh Ijodiy ishining taqdimoti 4-guruh Ijodiy ishining taqdimoti	Har bir taqdimot yakunida kichik guruhlar o‘rtasida munozara larini o‘tkazish Mavzuni umumiylash	Klaster Kichik guruhlarning erishilgan yutuqlarini e’tirof etish Mustaqil ish topshiriqlarini tavofutlab berish
-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------	--------------------------------------------------------	----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------	---------------------------------------------------------------------------------------------------------	----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------

Didaktik o‘yin texnologiyasining ijodiy o‘yin metodidan foydalanilgan mashg‘ulotning savol-topshiriqlari avvalgi mashg‘ulotlardagi savol-topshiriqlardan ijodiy xarakterdaligi bilan farqlanadi.

Ushbu ma’ruza turidan mavzu mazmunidagi muammolarni talabalarining ijodiy izlanishi orqali hal etish mumkin bo‘lganda foydalanish tavsiya etiladi.

6-amaliy mashg‘ulot: Ma’ruza mashg‘ulotlarining kredit-modul tizimi talablari asosida kvalimetrik diagnostikasi.

Biologik fanlarni o‘qitishda kredit-modul tizimining joriy etilishi, o‘qituvchilardan pedagogik jarayonga yangicha yondashishni talab etadi.

Shu sababli, professor-o‘qituvchilarning kredit-modul tizimining talablari asosida pedagogik faoliyatini o‘rganish, tahlil qilish, nazorat qilish va baholash mezonlarini ishlab chiqish muhim o‘rin tutadi.

O‘qituvchilarning pedagogik faoliyatini o‘rganish dastlab, pedagogning o‘zi o‘qitadigan kursning va kredit-modul tizimining mazmun-mohiyatini anglashi, pedagogik kadrlar tayyorlashdagi o‘rnini bilish, kursning o‘quv-metodik ta’minotini yaratganligi bilan bog‘liq holda o‘rganiladi. Shuni hisobga olgan holda quyida o‘qituvchilarning kredit-modul tizimiga asoslangan mashg‘ulotlarni o‘tkazishga o‘quv-metodik tayyorgarligini o‘rganish, nazorat qilish va baholash mezonlari berilmoqda. Mazkur mezonlar kursni o‘qitish shakllari: ma’ruza, amaliy, laboratoriya va seminar mashg‘ulotlarini tashkil etadigan va o‘tkazadigan o‘qituvchilar uchun umumiy sanaladi.



1. O‘qituvchining mashg‘ulotlarni o‘tkazishga o‘quv-metodik tayyorgarligi – 30 ball

2.

№	Baholash ko‘rsatkichlari	Baholash darajasi	
		ball	O‘qituvchi bahosi
1	Fan bo‘yicha tasdiqlangan ishchi o‘quv dasturi, ma’ruzalar matni kredit-modul tizimiga asoslangan (o‘quv-metodik majmua, fan silabusi, amaliy mashg‘ulotlar uchun kredit birliklarga asoslangan topshiriqlar to‘plami)ning mavjudligi va sifati	2	
2	Kredit-modul tizimiga asoslangan holda kredit birliklarning maqsadga muvofiq belgilanganligi va foydalanish sifati	1	
3.	Ma’ruza mavzusiga bog‘liq holda Blum taksonomiyasiga asosan o‘quv maqsadlarning shakllantirilganligi	6	
4.	Blum taksonomiyasiga asosan belgilangan o‘quv maqsadlarning maqsadga muvofiqligi va amalga oshirish yo‘llari	4	
5	Ta’lim-tarbiya jarayonida foydalaniladigan Keys-stadi topshiriqlarining mavjudligi	5	
6.	Innovatsion va axborot texnologiyalardan foydalanish uchun tarqatma va didaktik vositalarning mavjudligi	4	
7.	Ta’lim-tarbiya jarayonida mavzular bo‘yicha taqdimot uchun slayd, animatsiya, o‘quv va videofilm va elektron darsliklarning mavjudligi	4	
8.	Kursdan tashkil etiladigan ta’lim-tarbiya jarayonida ma’ruza mashg‘ulotlari mazmunining seminar, amaliy, laboratoriya mashg‘uloti bilan uzviyiligi	1	
9.	Kredit-modul tizimining kredit birligiga muvofiq talabalarning joriy, oraliq va yakuniy nazorati uchun tayyorlangan nazorat topshiriqlarining qiyinlik darajasi ko‘rsatkichlari	1	
10.	Kredit-modul tizimining kredit birligiga muvofiq mustaqil ishlar mazmuni, bajarish	2	



	yuzasidan ko'rsatmalar, baholash mezonlari va ularning darajasi		
--	-----------------------------------------------------------------	--	--

Jami 30 ball

2.2. Ma'ruza mashg'ulotini kuzatish, tahlil qilish va samaradorlik koeffitsentini aniqlash.

O'qituvchining ma'ruza mashg'ulotlarni tashkil etish va o'tkazish mahorati mezonlari mezonlari

№	Baholash ko'rsatkichlari	Baholash ballari	
		Ball	O'qituvchi bali
I	Tashkiliy qism	10	
1	Ma'ruza mashg'ulotining o'z vaqtida va o'z auditoriyasida boshlanishi, ko'rgazma vositalarining mavjudligi	1	
2	Ma'ruza mashg'ulotining borishi bilan tanishtirish, ma'naviyat daqiqasi va qiziqarli analogiyadan foydalanish	2	
3	Ma'ruza mashg'ulotining boshlanishida mavzuga oid muammoli vaziyatning vujudga keltirilishi, bugungi kunning dolzarb muammolariga bog'lanishi	1	
4	Mavzu mazmuniga bog'liq holda kasbiy yo'naltirilganlikni amalga oshirilishi	2	
5	O'quv maqsadlarining shakllantirilganligi va talabalar zimmasiga yuklatilishi	1	
6	Ma'ruza mashg'ulotining zamon talablari, shaklan va mazmunan kalendar-rejaga mos kelishi	3	
II	Yangi mavzuni o'rGANISH	40	
7	Talabalarning bilim, ko'nikma va malakalarini faollashtirish va mavzulararo bog'lanishni amalga oshirishda ularning avval o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalaridan foydalanish darajasi	2	
8	Kredit-modul tizimi talablariga muvofiq fanlararo, boblararo, mavzulararo bog'lanishning keng qamrovliligi, tempi, maqsadga muvofiqligi, uziyligi.	3	
9	Mavzu mazmunidagi asosiy g'oya, qonunlar, qonuniyatlarning yoritilishi, tushunchalar va ko'nikmalarni shakllantirish bosqichlari ketma-ketligiga amal qilinganligi	5	

10	Kredit-modul tizimi talablariga muvofiq talabalarning bilish faoliyatining tashkil etilish shakli (yalpi, individual, kichik guruhlar) va boshqarilishi	10	
11	Innovatsion va axborot texnologiyalardan o‘z o‘rnida samarali foydalanish darajasi	10	
12	Kredit-modul tizimi talablariga muvofiq nazariy va talabalar tomonidan mustaqil o‘zlashtirishi lozim bo‘lgan o‘quv material-larining sifati, mavzu mazmunini qamrab olinganligi, o‘z vaqtida foydalanilish holati	5	
13	Mavzu mazmuniga bog‘liq holda Keys-stadi topshiriqlarining tuzilganligi va o‘z vaqtida foydalanilishi.	5	
III	Ma’ruza mashg‘ulotning mazmuni sifati:	10	
14	Ma’ruza mashg‘uloti mazmunining g‘oyaviy-siyosiy yo‘naltirilganligi, ilmiy-nazariy, metodologik jihatdan asoslanganlik darajasi	2	
15	Ma’ruza mazmunidagi ma’lumotlarning yangiligi va dolzarbligi, talabalar ongi va qalbiga milliy g‘oyalarning singdirilishi	2	
16	Nazariya va amaliyot, ta’lim-tarbiyaning uzbekligiga amal qilinishi	2	
17	Ma’ruza mazmuniga fan yangiliklari, innovatsiyalarning kiritilganligi, talabalarni innovatsiyalar va ilmiy-tadqiqot ishlariga yo‘naltirilganligi	3	
18	O‘qituvchining muloqot madaniyati, nutqining ravonligi, intonatsiyasi, tempi va ovoz tembri	1	
IV	Ma’ruza mashg‘ulotda talabalar faolligi va holati	10	
19	Talabalarning fanni o‘rganishga bo‘lgan motivatsiyasi	3	
20	Talabalar tomonidan Keys-stadi topshiriqlarini bajarish jarayonida avval o‘zlashtirilgan bilim, ko‘nikma va malakalaridan foydalanish ko‘nikmasining mavjudligi	5	
21	Talabalarning ma’ruza mashg‘uloti jarayonida faolligi holati	1	
22	Talabalarda muomala, nutq va kiyinish madaniyati holati	1	

Jami 70 ball



KREDIT-MODUL TIZIMIGA ASOSLANGAN MA'RUZA MASHG'ULOTINI KUZATISH VA TAHLIL QILISH

Mashg'ulotlarni kuzatish bosqichlari

Oliy ta'lif muassasalarida ma'ruza mashg'uloti - ta'lif-tarbiya jarayonini tashkil etishning asosiy shakli hisoblanadi. Mazkur mashg'ulotni kuzatish uchun, avvalo, ma'ruza mashg'ulotining tipi (kirish, muammoli, umumlashtiruvchi), maqsadi va vazifalari, foydalaniladigan innovatsion texnologiyalarni aniqlab olish zarur.

Mashg'ulot quyidagi bosqichlarga bo'lib tahlil qilinadi:

Umumiy ma'lumotlar: guruh, o'quv fani, ma'ruza mashg'uloti tipi, turi (frontal, kichik guruhlarda ishlash), mavzusi, mashg'ulot o'tkazilayotgan vaqt.

O'qituvchining mashg'ulotga tayyorgarligi: o'qituvchida o'quv fanini o'qitish rejalashtirilgan ishchi dasturi, istiqbol reja, mavzuli-taqvim reja, mavzu bo'yicha Keys stadi topshiriqlari, kichik guruhlarda o'qitish metodidan foydalanish imkonini beradigan o'quv topshiriqlari majmuasi, mustaqil ta'lif rejasi, reyting tizimi bo'yicha baholash me'yorlarini qamrab olgan fan silabusi, mashg'ulot ishlanmasi va texnologik xaritaning mavjudligi, o'tgan va yangi mavzu bo'yicha talabalarning bilimlarini nazorat qilish va baholash uchun topshiriqlarning yetarli nusxada bo'lishi;

Eslatma: o'qituvchida yuqorida qayd etilganlarning birortasi bo'lmagan holda o'qituvchi mashg'ulotga qo'yilmasligi mumkin.

O'quv xonasining mashg'ulotga tayyorgarligi: auditoriyaning sanitariya-gigiena qoidalariga javob berishi, talab darajasida jihozlanganligi, talabalarning yoshlik va fiziologik xususiyatlari hisobga olingan holda yoritilganligi, mebellar mosligi, o'quv va ko'rgazma jihozlari va mavzu bo'yicha taqdimotning mavjudligi.

Mashg'ulotning tashkiliy qismi: mashg'ulotning o'z vaqtida boshlanishi, o'qituvchi va talabalarning mashg'ulotga munosabati, salomlashish odobi, guruhda ongli intizomning mavjudligi, davomatni aniqlash, o'tgan mavzu va uy topshiriqlarini aniqlash, tashkiliy qism uchun sarflangan vaqt.

Yangi mavzu yuzasidan talabalarning bilimlarini faollashtirish. Fanlararo, boblararo, mavzulararo bog'lanishni amalga oshirilganligi, Keys stadi topshirig'i, Aqliy hujum o'tkazilganligi, topshiriqlarning keng qamrovligi, topshiriqlarning murakkablik darajasi va ketma-ketligi, tempi, rag'batlantirishning mavjudligi, uning haqqoniyligi, uzbekligi. Talabalar o'quv motivlarining holati. Ajratilgan vaqt.



O‘tgan mavzuni yakunlash va yangi mavzu bilan bog‘lanishi. O‘qituvchi tomonidan foydalanilgan metodlar va ko‘rgazma vositalari, unda talabalarning bilimlaridan foydalanishi, tipik xato va kamchiliklarni bartaraf etishi, yakunlashning keng qamrovliligi, asosiy tushuncha va tayanch so‘zlarga urg‘u berishi, xulosalashi, ajratilgan vaqt.

O‘qituvchining talabalarning javoblari, bilim, ko‘nikma va malakalaridagi kamchiliklarni aniqlay olish mahorati, talabalar intizomi va ularni saqlash uchun qo‘llanilgan choralar.

Yangi mavzuni o‘rganish:

- Talabalarni yangi mavzuning o‘quv maqsadlari, vazifalari, ma’ruza davomida kichik guruhlarning mashg‘ulot davomida bajariladigan ishlar bilan tanishtirilishi, o‘quv maqsadlarining qo‘yilishda talabalarning ishtiroki.
- Yangi mavzuning mazmuni, asosiy g‘oya, qonunlar, qonuniyatlarining yoritilishi, talabalarda shakllantiriladigan tushuncha, ko‘nikma va malakalar, talabalar tomonidan o‘zlashtirish bosqichlariga amal qilinganligi.
- Mavzu bayonida o‘qitish prinsiplariga amal qilinganligi (ilmiylik, tushunarlik, tizimlilik, keng qamrovlilik, nazariya va amaliyot birligi, mahalliy hamda qo‘srimcha materiallar bilan boyitilganlik, ta’lim-tarbiya uzviyligini amalga oshirish va h.k.).
- Mavzu bayonida fanlararo, bo‘limlararo, mavzulararo bog‘lanishning amalga oshirilganligi.
- Mavzuni o‘rganishda foydalanilgan reproduktiv (og‘zaki, ko‘rgazmali, amaliy) va faol (muammoli, mantiqiy, ijodiy izlanishli, didaktik o‘yinli va h.k.) metodlar, vositalar (ko‘rgazmali qurollar, laboratoriya jihozlari, tarqatma va didaktik materiallar, o‘quv-texnik va kompyuter vositasi va h.k.);
- Ma’ruza mashg‘ulotida foydalanilgan innovatsion va axborot texnologiyalar (muammoli, modulli, didaktik-o‘yinli, hamkorlikda o‘qitish)ning mavzu mazmuniga muvofiq tanlanganligi. Innovatsion texnologiyalarining talabalar bilish faoliyatini tashkil etish, bilim zahirasi, egallangan ko‘nikma va malakalari, yoshlik va psixologik xususiyatlariga mosligi.
- Mashg‘ulot davomida Keys stadi va aqliy hujum topshiriqi asosida muammoli vaziyatlarning tug‘dirilishi, ularni hal etishda talabalar bilimidan foydalanishi, talabalarning bilish faoliyati va ularning mashg‘ulotdagi ishtiroki. Yangi mavzuni o‘rganishga ajratilgan vaqt.
- Ma’ruza mashg‘uloti mazmuniga bog‘liq holda taqdimot materiallarining mavjudligi va o‘z o‘rnida maqsadga muvofiq foydalanilganligi.



- O‘qituvchining nutqi, dixsiyasi, pedagogik mahorati, muloqot madaniyati, o‘quv maqsadlari va topshiriqlarini qo‘ya olishi, talabalarning bilish faoliyatini tashkil etish va boshqarish ko‘nikmalari, o‘zini tutishi, mimikasi, his-hayajonini boshqara olishi, talabalarga nisbatan pedagogik (avtoritar yoki insonparvarlashgan) munosabati.

Ma’ruza mashg‘ulotining mazmunan tahlili. Ma’ruza mazmunan bugungi kunning dolzarb muammolarni qamrab olinganligi, g‘oyaviy-siyosiy yo‘naltirilganlik, mavzu mazmuniga bog‘liq holda kasbiy yo‘naltirilganlikni amalga oshirilishi, ta’lim-tarbiyaning uzviyligi.

Ma’ruza rejasining to‘liq yoritilganligi, talabalarning mazmundagi nazariya, g‘oya, qonuniyatlar, tushuncha, atamalarni o‘zlashtirish jarayonida didaktik qonuniyatlarga amal qilinganligi, tushuncha va atamalarning izohining yoritilish darajasi.

Mashg‘ulotni yakunlash – yakunlashning xarakteri, to‘liqligi, o‘qituvchi tomonidan foydalanilgan metodlar va ko‘rgazma vositalari, unda talabalar javobidagi tipik xato va kamchiliklarni bartaraf etishi, yakunlashning keng qamrovliligi, asosiy tushuncha va tayanch so‘zlarga urg‘u berishi, xulosalashi, ajratilgan vaqt.

Umumiyl xulosa va fikrlar

1.Mashg‘ulot davomida yo‘l qo‘yilgan kamchiliklar

Taklif va mulohazalar

Taqrizchining familiyasi, ismi, sharifi _____

_____ (imzo) Sana _____



